ISNN 3030-3907

2026/3
VOLUME 8

DEVELOPMENT OF SCIENCE

ILMIY JURNAL



Development of science

Ilmiy jurnal

2026/3 VOLUME 8

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Асадова Раъно Дилмуратовна
Тошкент Давлат техника университети доценти

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

MUNDARIJA

1	Avtomobillarning ishchi tormoz tizimlari tekshiruvlarini aniqlash va tahlil qilish *Sobirov Ma'murjon Marufjonovich*	9
2	Respublikada yo'l harakati xavfsizligini ta'minlashda yangi texnologik yechimlar *To'raboyev Holmurod Rustamjon o'g'li*	19
3	Yo'l belgilarini tushunish va ularga amal qilish tartibi *Zingirov S*	26
4	Haydovchilarini tayyorlash va ta'lim jarayonini takomillashtirish *Axmatoxunov Baxtiyor*	32
5	Yetkazib beruvchilarni iatf 16949:2016 standart talablari bo'yicha baholash *Mamajonov Abduvohid* *Rasulov Doniyorbek*	39
6	Analysis of mechanical properties of polymer materials used in the automotive industry *Turaev Shoyadbek Akhmadjonovich.*	46
7	On development of creativity of teachers in engineering universities. *Q.S. Mirzayev*	51
8	Ikkilamchi polietilen va melamin asosida olingan polimer materialining oquvchanligini o'rganish *Mamatova Shahnoza Berdiqobilovna* *Beknazarova Feruza Abdimurod qizi*	60
9	Sun'iy intellekt asosida rezavor mevalarni saralash va sharbat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish *Aliyev Asilbek Safarali o'g'li*	65
10	Shisha shixtasi tarkibini optimallashtirish *Ergashev Maxmudjan Mamadjanovich* *Sodiqova Sevaraxon Maxmudjon qizi*	72
11	Mikro ges asinxron generatorining statik ish rejimlarini modellashtirish *Mahamadjonov Sodiqjon Yo'ldashboy o'g'li*	78
12	Юқори маҳсулдор гўшт йўналишидаги парранда кроссларининг маҳсулдорлик хусусиятлари *Т.Ш.Акмалхонов* *А.Х.Болтаев* *У.Ш.Пулатов*	83
13	Тухум йўналишдаги ломан сэнди кроссининг биологик хусусиятлари ва уларни парваришлаш *Т.Ш.Акмалхонов* *А.Х.Болтаев* *У.Ш.Пулатов*	88
14	Advanced catalytic technologies for natural gas processing and conversion *M.N. Tsukanov*	94
15	Modeling adaptive control system for distillation units in the aspen hysys software environment and matlab *Sh. D. Tulyaganov*	105
16	«Физико-химический анализ компонентного состава композитного абсорбента после регенерации» *Ш.У.Ахмедова* *О.Б. Ахмедова*	111
17	Предметно-интегрированное обучение русскому языку как не родному (на примере инженерно-технических направлений) *Цуканова Елена Николаевна*	119
18	Современные методы преподавания русского языка для студентов национальных групп (как не родного языка) *Цуканова Елена Николаевна*	126

ISSN 3030-3907

19	Формирование остаточных напряжений в сварных соединениях различных металлов в машиностроении и их влияние на точность механической обработки *Хусанов Юнусали Юлдашалиевич* *Толипов Ахроржон Назиржон угли* *Абдуллаева Василатхон Юлдашали кизи*	132
20	Исследование состава, структуры и свойства углеродного материала образующегося при производстве ацетилена, и его влияние на структурообразование резин *Хасанбой Сотволдиев* *Патидинов Аслидин* *Собиров Жасурбек* *Ибадуллаев Ахмаджон* *Эльмира Тешабаева*	143
21	Aminoaldegid birikmalar asosida adgezion xususiyatli moddalar sintezi va ularning spektral tahlili *B.G. Ramazonov* *A.A. Zaripov*	154
22	Suv sarfini aniqlashda radar texnologiyalarining imkoniyatlarini baholash *Arifjonov Alisher Abdullayevich* *Azizov Xurshid Abduhamidovich* *To'laganov Fathullo Tohirjonovich* *Otaxonov Maqsud Yusufovich* *Zokirov Ilhomjon Bahtiyor o'g'li*	161
23	Оценка прочности оболочки криволинейного зубчатого питающего цилиндра на основе анализа усилий и перемещений в её точках *Мирзаев Отабек Абдукаримович* *Ураков Нуриддин Абраматович* *Хакимжонов Авазбек Бахриддинович*	173
24	Taqsimot markazi orqali xalqaro yuklarni yetkazib berishni rejalashtirish *Gaffarov Maxammatzokir Toshtemirovich*	184
25	O'zbekistondagi yo'llar: yutuqlari va kamchiliklari, kelajak istiqbollar *Ismailov Sarvarbek Taxirjanovich*	190
26	Parranda mahsulotlarining inson salomatligidagi ahamiyati *A.X. Boltayev* *U.SH. Pulatov*	197
27	Physicochemical fundamentals of using bitumen and pyrolysis distillate in anti-corrosion coatings *Urinov Abrorbek Axrorovich* *Akhrorov Amirkhon Abrorbekovich* *Aslonov Adizxon Axrorovich*	203
28	Zirabuloq tog'larining janubiy-g'arbiy qismi neolit davri dastlabki tadqiqotlari. *Karimov Rufat Uktamovich*	210
29	Аспекты переработки пиролизного масла и смолистых продуктов *Джураева Лайла Рахматиллаевна*	218
30	Разработка микропроцессорной системы оперативной блокировки и защиты злектрооборудования цифровых подстанций *Жумаев О.А* *Мавлонов Ш.Ш* *Рахимов Х.А*	225
31	Contemporary approaches to turbulence modeling in computational fluid dynamics *Abdukhamidov Sardor* *Samsoqov Parviz*	235
32	Tikuvchilik mashinalari uchun rolikli tepki uzeli ustida tadqiqotlar *Sirojova Muxabbat Sodiq qizi*	241
33	Koreys maqollarida metafora va ramzlarning lingvopoetik xususiyatlari *Misirov Davronxon Nosirxon o'g'li*	249

ISSN 3030-3907

34	Expert diagnosis of death in acute poisoning with narcotic substances. *Nasirov Tulkin Karimovich*	255
35	Ochiq o‘zanlarda suv sarfini o‘lchash qurilmalari *Azizov Xurshid Abduhamidovich* *Arifjonov Alisher Abdullayevich* *To‘laganov Fathullo Tohirjonovich* *Otaxonov Maqsud Yusufovich* *Zokirov Ilhomjon Bahtiyor o‘g‘li*	263
36	Integration of fmea and internal audit in monitoring compliance with iso 9001:2015 requirements: a case study of a plastic product manufacturing enterprise in andijan. *Sativaldiev Aziz Kahramanovich* *Tursunov Botirjon Tolibjon o‘g‘li*	273
37	Study of the thermal decomposition kinetics and thermodynamic parameters of zinc phthalocyanine pigment synthesized from zinc chloride *Mirzoyeva G.A.* *Fayziyev J. B.* *Nazarov S.I.* *Nazarov N.I.*	282
38	Forensic genetic approaches to crime detection using recombinant protein methods. *Shamsutdinova Zamira Murot qizi.*	289
39	Лингвокультуремы медицинского дискурса в «каноне врачебной науки» ибн сины *Тохтиева Регина Шамильевна*	301
40	Разработка расчетной схемы движения мелющих тел в барабанных мельницах *Акмал Жуманазаров*	306
41	Metallurgiya haqida tushuncha.domna pechining tuzilishi *Yoriyeva Shahlo Husen qizi*	314
42	Разработка и исследование ингибитора коррозии на основе метилольных производных карбамида для защиты оборудования от сернистых соединений *Темиров Алишер Хошим угли* *Буронов Нуриддин Гаффорович*	320
43	Algorithm for detecting spoof attacks in biometric data recognition systems *Makhmudova Shakhzoda Yorkinovna* *Saydazimov Javlonbek* *Rajabov Kamoliddin Kayumovich*	325
44	Mahalliy qizil sabzining o‘sishini aniqlash. *A.Esnazarov*	334
45	O‘zbekiston bolalarida vitamin A va anemiya o‘rtasidagi bog‘liqlik *Abdukadirov Ramazon* *Buronov Anvarjon*	340
46	Asinxron elektr motorlarni sillik ishga tushirish qurilmalarini energiya tejashdagi ahamiyati va imkoniyatlari *Djurayev Shuxrat Ixtiyorovich* *Qurbonov Nurali Abdullayevich* *Tuxtayev Bobur Boxodir o‘g‘li* *Tojiqulov Sirojiddin Uchqun o‘g‘li* *O‘rolov Dilshod Baxriddin o‘g‘li*	348
47	Dynamic glazing for passive solar heating: a critical review of electrochromic window integration and energy performance *Namozov Ixtiyor Usmonovich*	360
48	Improving the production technology of ex-1200 excavator bucket teeth based on titanium modification of 110g13l high-manganese steel *Salimjonov Xazrat Akramjon o‘g‘li* *Rasulov Islam Baxodirovich*	384

ISSN 3030-3907

	Okhunjon Sayfidinov *Oripov Dostonjon Rustamjon o'g'li*	
49	Investigation of the effect of titanium on the mechanical properties of high-manganese 110g13l steel *Salimjonov Xazrat Akramjon o'g'li* *Rasulov Islam Baxodirovich* *Oybek Khaydarov* *Okhunjon Sayfidinov*	393
50	Technical and economic efficiency of hitachi ex-1200 excavator bucket teeth made of titanium-modified high-manganese 110g13l steel *Salimjonov Xazrat Akramjon o'g'li* *Rasulov Islam Baxodirovich* *Oybek Khaydarov* *Okhunjon Sayfidinov*	403
51	Hozirgi kundagi ishlab chiqarish korxonalarida mehnatni muhofaza qilish masalalarini tizimli boshqarish mexanizmi *Asanov Anvar Toshmurot o'g'li* *Xusanova Roksalana Quvondiq qizi*	411
52	Органические реагенты в аналитическом определении ионов марганца: современное состояние и перспективы *Турамбетова А.К.* *Сманова З.А.*	417
53	Increasing the reliability of dams during floods *Nabiyev Elyor Safarovich*	430
54	Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyati *Muxayyo Tuxtasinova* *Azimova Marjona Dilshodjon qizi*	438
55	Qoraqalpoq tili matnlarini avtomatik qayta ishlashning hisoblash usullari va modellari *Abdullayev Sherzod Shavkatjonovich* *Allaberdiyeva Durdana Guranmuratovna*	446
56	Theoretical and methodological foundations for the development of green procurement marketing in large international industrial enterprises *Behzod Bakhtiyorovich Teshayev* *Oybek Khaydarov.* *Oripov Dostonjon Rustamjon o'g'li*	458

ISSN 3030-3907

УДК 62-592, 629.113

AVTOMOBILLARNING ISHCHI TORMOZ TIZIMLARI TEKSHIRUVLARINI ANIQLASH VA TAHLIL QILISH

Sobirov Ma'murjon Marufjonovich

Andijon davlat texnika instituti, Transport logistikasi kafedrasi ilmiy tadqiqotchisi

E-mail: mamurjon.sobirov@mail.ru

Tel: (+998-97-997-14-22)

ORCID iD: 0009-0008-8508-611X

Annotatsiya. Ushbu maqolada asosiy ma'lumotlar yengil avtomobillarda qo'llaniladigan tormoz tizimlarining samaradorligini davlat standartlari asosida baholash, tormoz tizimining samarali ishlash mexanizmlarini ish jarayonlarini tahlil qilish va resurslarini aniqlash, ehtiyot qismlarini ishlash jarayonini aniqlash usullarini yoritib berishga qaratiladi. Yengil avtomobillarning tormoz tizimlarida qo'llanilishidagi ehtiyot qismlar muammolari tahlillari keltiriladi. Amalda ish rejimlarini hisoblash va o'zgarish davriy yechimlariga asoslangan xolda ehtiyot qismlarini foydalanish samarasi oshirildi. O'rganishlar natijasida olingan natijalar asosida dolzarb muammolar yuzasidan topilgan tahlillar kelajakda tormoz tizimini yaxshilash uchun misol tariqasida keltirildi. Muammolarni yoritishda avtomobil tormoz qismining qayday tartibda ishlashi va asosiy e'tibor berish lozim bo'lgan ko'rsatkichlar, tahlililar va natijalar, umumiy xulosalar va adabiyotlarning jahon miqyosidagi o'rganilgan ma'lumotlari qisqacha yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Tormoz tizimi, tezlik ko'rsatkichlari, tormoz boshqarmasi, ehtiyot qism, support porsheni, tormoz tepkisi, supportlar, kolodka, disk obodasi, tormoz shlanglari, mufta**.**

Аннотация. В данной статье рассматривается оценка эффективности тормозных систем, используемых в легковых автомобилях, на основе государственных стандартов, анализ рабочих процессов механизмов эффективного функционирования тормозной системы и определение их ресурсов, а также методы определения работы запасных частей. Представлен анализ проблем использования запасных частей в тормозных системах легковых автомобилей. На практике расчет режимов работы и использование запасных частей на основе периодических решений по замене повысили эффективность их использования. На основе результатов исследований представлен анализ актуальных проблем в качестве примера совершенствования тормозной системы в будущем. В данном разделе кратко рассматриваются вопросы надлежащего функционирования тормозной системы автомобиля, а также показатели, анализы и результаты, которым

ISSN 3030-3907

следует уделить первостепенное внимание, приводятся общие выводы и данные из мировой научной литературы.

Ключевые слова: Тормозная система, спидометр, блок управления тормозами, запасная часть, опорный поршень, тормозной рычаг, опоры, колодки, дисковый тормоз, тормозные шланги, сцепление.

Abstract. This article examines the performance evaluation of passenger car braking systems based on state standards, analyzes the operating processes of the mechanisms responsible for effective braking system operation, and determines their service life, as well as methods for determining spare parts performance. An analysis of the problems associated with spare parts usage in passenger car braking systems is presented. In practice, calculating operating modes and using spare parts based on periodic replacement decisions has improved their efficiency. Based on the research results, an analysis of current issues is presented as an example for future braking system improvements. This section briefly discusses the proper functioning of a vehicle's braking system, including the indicators, analyses and results that should be given primary attention, and provides general conclusions and data from the world scientific literature.

Keywords: Brake system, speedometer, brake control unit, spare part, support piston, brake lever, supports, pads, disc brake, brake hoses, clutch.

1. KIRISH.

Yengil avtomobillarning tormoz tizimining ishlash davri muddati uning ishlab chiqaruvchi korxona tomondan belgilangan xizmat muddati yoki harakatlanish davomida bosib o‘tilgan yo‘l masofa davomidagi ishlashi va samaradorligidir. Uning tahlili quyidagilarni o‘z ichiga oladi [1-3]:

- ❖ Tormoz tizimini baholash jarayonida quyidagi omillar inobatga olinadi:
- ❖ Ishqalanish elementlarining yeyilish darajasi;
- ❖ gidravlik yuritmaning germetikligi;
- ❖ tormoz suyuqligining sifati va darajasi;
- ❖ to‘xtash masofasi va sekinlashuv ko‘rsatkichlari.

Mazkur parametrlar tizimning real texnik holatini aniqlash imkonini beradi. Komponentlarning yeyilishi va va yemirilishini diagnostika qilish (kolodkalar, support va disklar, shlanglar), tormoz suyuqligi darajasi va tormoz yo‘li sifatini tekshirish va tormozlashdagi to‘xtash masofasi, tormozlash samaradorligi va tormoz tepkisining ishlash tezligi va shu kabi parametrlar asosida tizimning ishlashini baholash bugungi zaruriy va doimiy jarayon hisoblanadi [4]. Tormoz yuritmasining xizmat muddati bevosita ishqalanish elementlarining holatiga, gidravlik tizimning yaxshiligiga va ishlatiladigan extiyot qismlar materiallari sifatiga bog‘liq.

ISSN 3030-3907

Avtomobilning tormoz tizimi transport vositasining yo‘l harakati xavfsizligining eng muhim omili va tarkibiy qismidir. Bunday tizimlarni qarovsiz va e’tiborsiz holda qoldirish jiddiy oqibatlarga olib kelishi mumkin. Shuning uchun, tormoz tizimini o‘z vaqtida diagnostika qilish juda muhim, chunki bu vaziyatda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni ular boshlanishidan oldin bartaraf etish imkonini beradi. Mamlakatimizda tormoz tizimi nosozligi va ularni ishlatish qoidalariga amal qilmaslik va uni to‘ri ishlatmaslik natijasida yo‘l transport hodisalari bo‘lmoqda [5-7].

Statistik ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, aholining va avtomobillar sonining o‘sishiga qaramay, o‘lim ko‘rsatkichlari nisbatan kamaygan. Biroq, transport vositasining texnik nosozligi, xususan tormoz tizimidagi kamchiliklar hanuz xavf omili bo‘lib qolmoqda. Shu sababli diagnostika va profilaktik nazorat ishlarini takomillashtirish muhim vazifa hisoblanadi.

YHXX 2025-yilda YTHlardagi o‘lim va jarohatlanish statistikasini ko‘ra o‘tgan yili O‘zbekistonda 9226 ta YTHda 2188 kishi halok bo‘ldi va 8901 kishi jarohatlandi (yillik tushish — 1% dan kam). YHXXning ma’lum qilishicha, har 100 ming kishiga to‘g‘ri keladigan o‘lim holatlarining yillik qisqarishi ancha sezilarli — 2021-yildagi 6,9 dan 2025-yilda 5,7 gacha (-17%) [8].

So‘nggi besh yil ichida (2021−2025) O‘zbekiston aholisi 35 271 276 kishidan 38 232 254 kishiga, transport vositalari soni esa 3 821 869 tadan 5 532 396 tagacha o‘sdi. Rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra, YTHlar soni 10001 tadan 9364 tagacha, ulardagi o‘limlar soni esa 2426 tadan 2188 tagacha kamaydi.

Tashkilotning ta’kidlashicha, ushbu davrda har 100 ming kishiga to‘g‘ri keladigan o‘lim darajasi 6,9 dan 5,7 gacha yoki taxminan 17,4%, har 10 ming transport vositasi uchun 6,3 dan 4 gacha yoki 36,5% qisqargan [9].

Ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki respublikamizda sodir bo‘lgan YTX oqibatlarini ko‘p miqdori transport vositasini o‘z vaqtida to‘xtatib qolmaslik oqibatida sodir etilgan.

Shuni nazarda tutish lozimki, transport vositalarini oz vaqtida diagnostika tekshiruvlaridan o‘tkasish va tormoz sozligini nazorat qilib borish asosiy ahamiyat kasb etadi.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, avtomobillarni tormoz tizimini tahlil qilish va nazorat olib borish orqaligina uning ishonchliligini oshirish mumkin. Bunda diagnostika tekshiruvlarini aniqlash va tahlil qilishning o‘rni beqiyosdir.

ADABIYOTLAR. Mavzuga doir adabiyotlar butun dunyoda va mamlakatimizda ko‘plab mavjuda bo‘lib ularning ayrimlarini keltirib o‘tamiz.

Rajesh Rajamaning “Vehicle Dynamics and Control” avtomobil dinamikasi, tormozlanish jarayonlari va sekinlashuv formulalari, Thomas D. Gillespiening

ISSN 3030-3907

“Fundamentals of Vehicle Dynamics” avtomobilning tormozlanish nazariyasi, ishqalanish va to‘xtash masofasi hisoblari, Roger P. Roessning “Traffic Engineering” haydovchi reaksiyasi va to‘xtash masofasi formulalari (Highway Safety calculations), David Crollaning “Automotive Chassis Engineering” tormoz tizimi ishlashi va avtomobil shassisiga ta’siri, J. Y. Wongning “Theory of Ground Vehicles” transport vositalari harakati nazariyasi va tormoz kuchlari tahlili nomli adaboyotlarda avtomobllar tormoz tizmimlariga aloqador bo‘lgan ma’lumotlar juda keng tarqalgan [5-8].

TAHLIL. Tormoz tizimi resurs xizmat muddati va uni diagnostika qilish. Ishchi tormoz tizimlarining asosan ikkita asosiy eng ko‘p qo‘llaniladigan turi mavjud: diskli va barabanli. Resurs xizmat muddati - bu tormoz tizimining xavfsizlik talablariga javob beradigan, o‘z funksionalligi va samaradorligini saqlab turadigan vaqt yoki miqdoriy ko‘rsatkich.

Xizmat muddatiga ta'sir qiluvchi omillar quyidagilarni o‘z ichiga oladi: ishqalanish materiallarining (kolodkalarning) sifati, tormoz disk barabanlarining yorilishi yoki shikastlanishi, gidravlik komponentlarning (shlanglar, silindrlar) qattiqligi, tormoz suyuqligining holati va ish sharoitlari (agressiv haydash uslubi, tez-tez tormozlash).

Bunda haydovchi tormoz tizimidagi muammolarni turli belgilar orqali aniqlay olish imkoni bo‘ladi. Nosozlikning belgilari va ularning asosiy sabablari:

Tormoz pedalining erkin yo‘li haddan tashqari ko‘p o‘ynashi tormoz kolodkalarining qisman yoki to‘liq ajratilmaslik yoki tormozning oz vaqtida bosilmasligi. Tormoz tizimida tizimga havo kirishi tufayli tormozlaning yaxshi ishlamasligi mumkinligi

Agar tormoz pedali prujinali yoki gubkali bo‘lsa, bu tormoz tizimidagi havoni chiqarib yuborish kerakligini, shlanglar yoki quvurlarning shikastlangan yoki deformatsiyalanganligini yoki kengaytirish idishidagi tormoz suyuqligini to‘ldirish zarurligini ko‘rsatishi mumkin.

Agar tormoz pedali qattiq bo‘lsa, bosimni oshirishni talab qilsa va tormozlash ta’siri kamaysa, shlanglardagi quvur liniyasida suyuqlik oqishi yaxshi bo‘lmasligi natijasida bo‘lishi mumkin. Bunday holda, mahkamlagichlarni torting yoki quvurlarni almashtirish kerak bo‘ladi. Shuningdek, tormoz zanjirlari bo‘glamlari mahkamlanganligini tekshirish, asosiy silindrni yoki uning ichki qismlarini shikastlangan bo‘lsa ularni almashtirish kerak bo‘lishi mumkin.

Avtomobil tormozlash paytida bir tomonga tortishi. Buning turli sabablari bo‘lishi mumkin: yog‘li yoki shikastlangan tormoz kolodkalari qoplamalari, notekis yeyilgan yoki eskirgan tormoz kolodkalari; iflos yoki tiqilgan moy

ISSN 3030-3907

komponentlari; asosiy silindrda tormoz suyuqligi oqishi; Shlanglar yoki quvurlarning shikastlangan yoki tiqilib qolganligi [10-12].

Tormoz suyuqligini yuborish paytida g‘ildirakning tortilishi tiqilib qolgan kengayish teshigi yoki asosiy silindrdagi shtanga va piston orasidagi bo‘shliqning yetarli emasligi tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Tormozning g‘ichirlagan ozov yoki qattiq shovqin chiqarishi, tormoz disklarining urilishi yoki zanglashi natijasida yuzaga kelishi mumkin; tormoz barabani shaklining o‘zgarishi (baraban tormozlari uchun); yoki sifatsiz tormoz kolodkalaridan foydalanganlik natijasi.

Tormozning chiyillab ovoz chiqarishi supportning ifloslanishi; zaiflashgan oraliq prujinalar; g‘ildirak podshipniklarining o‘ynashining kuchayishi; tormoz diskining cheti korroziyaga uchrashi yoki tormoz diski va supportning noto‘g‘ri joylashishi tufayli yuzaga kelishi mumkin.

Tormoz berish vaqti o‘zgarishi tormoz diskining noto‘g‘ri qalinligi; tormoz diskining support bilan noto‘g‘ri joylashganligi; yoki g‘ildirak podshipniklarining o‘ynashining kuchayishi natijasida yuzaga kelishi mumkin.

Tormozlash paytida chiyillash yoki hushtak chalish ovozi eskirgan yoki iflos tormoz kolodkalarini yoki tormoz diski yuzasida izlar borligini ko‘rsatadi.

Avtomobillarning tormoz tizimingizni tekshirish uchun uning holatini taxminiy baholay zarur bo‘ladi. Buning uchun boshqa transport vositalari bo‘lmagan holi bo‘lgan alohida maydon yoki sinov maydonchalari kerak bo‘ladi. Boshqacha usullarda tekshiradigan bo‘lsak stendda ham tekshirish maqsadga muvofiq. Avtomobilni soatiga 20-30-40-50-60 km/soat tezlikka chiqarib, so‘ngra tormoz pedalini to‘liq to‘xtaguncha bosib turish orqali amalga oshirish mumkin. Bu avtomobilning sirpanishiga olib keladi. Avtomobilning shinalar izlarini orqali tekshirib, avtomobilning tormoz yo‘lini topish mumkin. Asfaltdagi aniq qora iz darhol ta'mirlashni talab qiladigan nosozlikni ko‘rsatadi. Agar faqat bitta shina aniq iz qoldirsa, uni yanada shoshilinch ravishda ta'mirlash ustaxonasiga olib borish zarur. Agar shinalar izlari noaniq va taxminan bir xil uzunlikda bo‘lsa, tormozlaringiz yaxshi bo‘lishi mumkin. Faol blokirovkaga qarshi tormoz tizimiga ega avtomobil sezilmaydigan yoki deyarli sezilmaydigan iz qoldiradi.

Bundan tashqari tormoz izlaning hosil bo‘lish uzunligi orqali ham belgilangan reglament asosida ham ko‘rib chiqish mumkin.


To‘xtash yo‘lini aniqlash metodikasi. Avtomobilning umumiy to‘xtash masofasi quyidagi tarkibiy qismlardan iborat:

- haydovchining reaksiya vaqti davomida bosib o‘tilgan masofa;
- tormoz mexanizmi ishga tushguncha o‘tgan vaqt;
- bevosita sekinlashuv jarayonidagi masofa.

ISSN 3030-3907

Amaldagi texnik reglamentlarga ko‘ra, turli toifadagi transport vositalari uchun maksimal ruxsat etilgan to‘xtash masofasi va minimal sekinlashuv ko‘rsatkichlari belgilangan. Mazkur me’yorlar tormoz tizimining samaradorligini baholashda asosiy mezon bo‘lib xizmat qiladi.

Sinovlar maxsus stendlarda yoki yopiq maydonlarda amalga oshiriladi. Tezlik ma’lum qiymatga yetkazilib, to‘liq tormoz beriladi va hosil bo‘lgan izlar hamda to‘xtash masofasi o‘lchanadi. ABS tizimiga ega avtomobillarda g‘ildirak izlari aniq ko‘rinmasligi mumkin, bu normal holat hisoblanadi. To‘xtash yo‘li to‘xtash joyigacha borgan masofa orqali aniqlanadi (1-rasm)



1-Rasm. Avtomobillarni to‘xtash yo‘li

Haydovchining reaksiya vaqti va tormoz mexanizmini ishga tushirilgunicha bosib o‘tgan masofani va sekinlash yo‘li bilan tormoz yo‘li birgalikda to‘xtash yo‘lini beradi.

Avtomobilning umumiy to‘xtash yo‘li quyidagi ifoda orqali aniqlanadi:

Masalan avtomobil tezligi 100 km\soat tezlikda harakatlanayotgan bo‘lsa taxminan

$$S_{um}=S_r+S_t=19,44+2,99=22,43 \text{ metr}$$

bu yerda:

S_{um} – umumiy to‘xtash masofasi (m);

S_r – haydovchi reaksiyasi davomida bosib o‘tilgan masofa (m);

S_t – bevosita tormozlash masofasi (m).

Haydovchi reaksiyasi masofasi:

$$S_r=V_0 \cdot t_r=27,78 \text{ m/sek}*07=19,44 \text{ metr}$$

bu yerda:

V_0 – boshlang‘ich tezlik (m/s);

t_r – haydovchining reaksiya vaqti (odatda 0.7–1.2 s).

Tormozlash masofasi:

ISSN 3030-3907

Klassik mexanik tenglama asosida:

$S_t=V_0^2/2a=27,78$ m/sek^2/2*8=27,78 m/sek^2 / 16= 1,73 metr^2=2,99 metr

bu yerda:

a – o‘rtacha sekinlashuv (m/s²).

Sekinlashuv qiymati asosan g‘ildirak bilan yo‘l yuzasi orasidagi ishqalanish koeffitsienti hamda tormoz tizimining texnik holatiga bog‘liq bo‘ladi. Agar ishqalanish koeffitsienti μ bilan belgilanadigan bo‘lsa, o‘rtacha sekinlashuv quyidagi ifoda orqali aniqlanishi mumkin:

$$a=\mu g$$

bu yerda: μ – g‘ildirak va yo‘l yuzasi orasidagi ishqalanish koeffitsienti;

g – erkin tushish tezlanishi (9.81 m/s²).

Hisoblarda ushbu formula orqali hisoblash ishlari ideal sharoit uchun qo‘llaniladi. Real sharoitlarda esa sekinlashuv quyidagi omillarga ham bog‘liq bo‘ladi:

- yo‘l qoplamasining turi (quruq asfalt, ho‘l asfalt, muz)
- shinalarning texnik holati
- tormoz tizimining samaradorligi
- avtomobilning yuklanish darajasi

Shu sababli real tajribalarda o‘rtacha sekinlashuv odatda 5–8 m/s² oralig‘iga teng bo‘ladi.

4.1. Tezlik – to‘xtash masofasi bog‘liqligi hisobi

Sekinlashuv esa ishqalanish kuchi orqali aniqlanadi:

1-Jadval

Yo‘l sinovlarida tormoz tizimining harakatlanish tezligi va standart yo‘lak kengligi uchun talablar

Turi	Toifasi	Boshqaruv elementiga ta'sir qiluvchi kuch R_p, N, ko‘pi bilan	Tormozlash masofasi S_t, m, ortiq emas	Sekinlashuv $j_н$, m/s^2, kam emas*	Sekinlashuv τ_{cp}, s, ko‘pi bilan emas	Standart transport yo‘laginig kengligi, m
Yo‘lovchi va yuk-yo‘lovchi	M_1	490	23,5	5,2	—	2,5***
	M_2	686	28,9	4,5	0,6**	2,5***
	M_3	686	28,9	4,5	0,6	3,0

ISSN 3030-3907

transport vositalari						
Yuk mashinalari	N_1	686	28,9	4,5	—	2,5***
	N_2	686	28,9	4,5	0,6**	3,0
	N_3	686	28,9	4,5	0,6	3.0
Avtopoyezdlar va M-N toifadagi Tyagach transport vositalari bo‘lgan	M_1'	490	24,6	4,9	—	2,5
	N_1'	686	28,9	4,5	—	2,5
	N_2'	686	31,4	4,5	0,8	3,0
	N_3'	686	31,4	4,5	0,8	3,0

Umumiy to‘xtash yo‘li reglamentlarga asoslangan holda O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2012 yil 4 iyundagi 191 son qarori talablariga mos bo‘lish kerakligi belgilangan.

Ushbu standartlar BMT Yevropa Iqtisodiy Komissiyasining 13-sonli Nizomida belgilangan yangi transport vositalari uchun belgilangan standartlardan 10% pastroq.

Pnevmatik tormozli transport vositalari uchun. Kengligi 2 m gacha bo‘lgan transport vositalari uchun. 2 m dan kengroq transport vositalari uchun standart yo‘lak kengligi 3 m ni tashkil qiladi [1]. Avtomobillardagi tormoz tizimining ishlashini tekshirishning aniqroq usullari mavjud bo‘lib, ular maxsus sinov stendlari yordamida amalga oshiriladi. Transport vositalariga muntazam texnik xizmat ko‘rsatish paytida, maxsus sinov stendlari yordamida tormoz tizimini sinovdan o‘tkazish juda muhimdir. Tormoz tizimining ishlashini baholash uchun maxsus tormozlash qurilmalari ham mavjud bo‘lib, ular har qanday transport vositasida foydalanish uchun mos keladi.

Tormoz tizimining ishdan chiqishi alomatlarini e'tiborsiz qoldirish, diagnostika qilmaslik va o‘z vaqtida qarovlarni bajarmaslik haydovchilar va boshqalarni xavf ostiga qo‘yadi. Agar tormoz tizimining ishdan chiqishi belgilari paydo bo‘lsa, diagnostika va keyingi ta'mirlash uchun darhol xizmat ko‘rsatish markaziga murojaat qillari va avtomobilning sozligiga ishonch hosil qillari zarur.

MUHOKAMA. Yo‘l transport hodisasini oldini olish uchun belgilangan diagnostik tekshiruvlar va tahlillarni doimo nazorat ostiga olib yurish haydovchining zimmasiga yuklanadi. Bu haydovchi doimo yodda tutishi kerak.

ISSN 3030-3907

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, ko‘plab nosozliklar dastlabki bosqichda aniqlansa, ularni bartaraf etish katta xarajat talab qilmaydi. Aks holda, tizimning boshqa elementlariga ham salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

Haydovchi yo‘llarda stendlarsiz ham avtomobiling tormoz tizimini diagnostikasini vizual holatda aniqlashi ham mumkin. Bunda haydovchi tormoz tizimi diagnostikasini amalga oshirish uchun kasbiy bilimlari va avtomobil tuzilishini va mexanizmlarni ishlash tartibi va sxemalari hech bo‘lmaganida tushunishni talab etiladi.

Tormoz tizimi diagnostikasi ta'mirlashdan oldin amalga oshiriladi. Tormozlarni vizual tekshirish ko‘zdan kechirishdan boshlanadi. Tormoz barabanlari, tormoz kolodkalarni qalinligini nazorat qilish va yoriqlar tushmaganligiga e’tibor berish, detallardan moy oqishi va boshqa shikastlanishlar bor-yo‘qligini tekshirish mumkin.

Kolodka qalinligini tekshirish: Tormoz kolodkasining qalinligini o‘lchab ko‘riladi, Agar u minimal qalinlikka yaqin bo‘lsa, qistirgich (prokladka)larni almashtirish zarur bo‘ladi.

Tormoz suyuqliklari tekshirish. Tormoz suyuqligi darajasi va holatini tekshirish tormoz suyuqligi idishi sathini tekshirish orqali amalga oshiriladi. Agar sath juda past bo‘lsa yoki suyuqlik ifloslangan bo‘lsa, uni almashtirish zarur.

Tormoz shovqini: Tormozlash paytida g‘ichirlash, taqillatish yoki chiyillash kabi har qanday noodatiy tovushlarga e'tibor qaratish lozim. Bular tormoz muammolarini ko‘rsatishi mumkin.

Mufta: Tormoz muftasining harakatlanishini va sezilishini tekshirish. Agar pedal juda yumshoq yoki juda qattiq bo‘lsa, bu ham muammo borligini ko‘rsatishi mumkin.

Asosiysi mutaxassisga avtomobilni o‘z vaqtida olib borish ko‘ngilsiz oqibatlarni oldini olishga xizmat qiladi.

Tormoz yolini oshirishning asosiy parametrlarini ancha qismini olish mumkin. Bularning eng asosiysi oldini olish bo‘lib, avtomobilni uzoq muddat xizmat qilishiga sabab bo‘ladi.

XULOSA. qilib shuni aytish mumkinki, Tormoz tizimi avtomobilingizning muhim xavfsizlik elementidir. Muntazam diagnostika va ta'mirlash sizga yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga va hayotni saqlab qolishga yordam beradi. Agar tormozlaringizni o‘zingiz tashxislash va ta'mirlash qobiliyatingizga ishonchingiz komil bo‘lmasa, ushbu muhim tizimning ishonchli va xavfsiz ishlashini ta'minlash uchun har doim mutaxassisga murojaat qilishingiz kerak bo‘ladi. E’tiborli jihati avtomobil tormozini ishlash tizimlarini haydovchi

ISSN 3030-3907

harakatlanish jarayonidagi taxminiy tormoz yo‘li va tormozning to‘xtash holati bilan baholash ancha oson.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Avtotransport vositalari konstruksiyasining foydalanish shartlari bo‘yicha xavfsizligi to‘g‘risida”gi umumiy texnik reglamentni tasdiqlash haqidagi 04.07.2012 yildagi 191-son qarori.
2. Q.H. Azizov.” Yo‘l transport hodisalarini tizimli tahlili” o‘quv qo‘llanma Toshkent 2022 y. – 47 b.
3. Sobirov M.M., “Avtomobil tormoz tizimlaridagi muammolar va tahlillar”, Tashkent state transport university, journal of transport scientific-technical and scientific innovation, Tashkent journal volume 2, issue 2 june, 2025
4. Ernazarov, A., Nasirov, I., Haydarov, M., Nurdinov, M., Sobirov, M. M., & Ulkanov, S. (2026, March). Optimization of the parameters of the functioning of public passenger transport stops. In AIP Conference Proceedings (Vol. 3390, No. 1, p. 050004). AIP Publishing LLC.
5. Djumabaev A.B., Sobirov M.M., Sobirov B.A. “Choosing modern methods of modelling when operating Isuzu buses suspension mechanisms”, xorijiy ilmiy jurnal “International Journal of Advanced Academic Studies” 2020; 2(2): 138-144
6. Sobirov M.M., Xaydarov M.A. Avtomobillar tormozining ekspluatatsion muammolari, “O‘zbekistonda avtomobil transportini rivojlantirish istiqbollari: Loyihalash, ishlatish va logistika” mavzusida xalqaro ilmiy-texnik anjumani 2024 yil 15-16-noyabr 659-691 betlar
7. Rajesh Rajama “Vehicle Dynamics and Control” Second Edition, monographs, University of Minnesota, Minneapolis, MN 55455, USA, 2012
8. Thomas D. Gillespie Fundamentals of Vehicle Dynamics, Warrendale, PA 15096-0001, USA, 1992
9. Улканов, Сардор, et al. "СОВРЕМЕННЫЙ АВТОМОБИЛЕЙ ОХЛАЖДЕНИЕ СИСТЕМА РАБОТА ОСОБЕННОСТИ." Science and innovation in the education system 1.6 (2022): 23-30.
10. Roger P. Roess “Traffic Engineering” (Highway Safety calculations), Copyright ©, USA, Transportation Engineering Polytechnic Institute ofNew York University 2011
11. David Crollan “Automotive Chassis Engineering” Butterworth-Heinemann, An imprint of Elsevier Science Linacre House, Jordan Hill, Oxford, USA 2002
12. J. Y. Wongning “Theory of Ground Vehicles”, USA, New York, 1993

ISSN 3030-3907

RESPUBLIKADA YO‘L HARAKATI XAVFSIZLIGINI TA’MINLASHDA YANGI TEXNOLOGIK YECHIMLAR

To‘raboyev Holmurod Rustamjon o‘g‘li
Andijon davlat texnika instituti, Transport logistikasi kafedrasi, katta o‘qituvchisi
Tel: +998944170091
E-mail: holmurodturaboyev@gmail.com

Annotatsiya. Respublikamizda e’lon qilingan ma’lumotlarga ko‘ra 2025 yilning yanvar-sentyabr oylariga oid rasmiy ma’lumotlarga ko‘ra 5895 ta yo‘l-transport hodisasi sodir bo‘lgan. Sodir bo‘lgan yo‘l transport hodisalarida 2025 yilning 9 oyida 1 303 nafar inson halok bo‘lgan, jabrlanganlar soni 4 ming 592 nafar. Sodir bo‘lgan aksariyat yo‘l-transport hodisalari o‘limga yoki jiddiy jarohatlanishga olib kelgan. Ushbu maqolada Respublikamizda yo‘l-transport hodisalarining sabablari va ularni bartaraf etish bo‘yicha yangi texnologiyalar hamda yo‘l transport hodisalarini oldini olish bo‘yicha jahon tajribalari berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tezlik, baxtsiz hodisa, qurbonlar, yo‘l transport hodisasi, infratuzilma, GIS, yo‘l belgilari, o‘choqlar, bordyur, pandus, texnologiya, favqulodda tormoz tizimi, xavf-xatarlar, ehtiyotkorlik.

Аннотация. Согласно официальным данным, опубликованным в нашей Республике, в период с января по сентябрь 2025 года было зарегистрировано в общей сложности 5 895 дорожно-транспортных происшествий. В результате дорожно-транспортных происшествий за 9 месяцев 2025 года погибли 1 303 человека, а число пострадавших составило 4 592 человека. Большинство произошедших дорожно-транспортных происшествий завершились гибелью людей или получением тяжёлых телесных повреждений. В данной статье рассмотрены основные причины дорожно-транспортных происшествий в Республике, новые технологии по их устранению, а также мировой опыт в сфере предупреждения дорожно-транспортных происшествий.

Ключевые слова: скорость, авария, жертвы, дорожно-транспортные происшествия, инфраструктура, ГИС, дорожные знаки, опасные зоны, бордюр, пандус, технологии, система экстренного торможения, опасности, осторожность.

Abstract. According to officially published data in our Republic, a total of 5,895 road traffic accidents occurred during the period from January to September 2025. As a result of road traffic accidents in the first nine months of 2025, 1,303 people lost their lives, and the number of injured reached 4,592. The majority of these road traffic accidents resulted in death or serious injuries. This article discusses the

ISSN 3030-3907

causes of road traffic accidents in the Republic, new technologies aimed at eliminating them, as well as international best practices for preventing road traffic accidents.

Keywords: speed, accident, victims, traffic accidents, infrastructure, GIS, road signs, hot spots, curb, ramp, technology, emergency braking system, hazards, caution.

KIRISH.

Respublikamizda yo‘l-transport hodisalarining katta qismi aholi punktlari yaqinida sodir bo‘lib, qurbonlar soni ham asosan shu hududlarga to‘g‘ri kelmoqda. Bu esa shaharlarda avariya ko‘rsatkichlarini tahlil qilishga qiziqishning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Transport hodisalariga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash, ularning sabablarini tushunish va oldini olish choralarini belgilash muhim ahamiyat kasb etadi.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda yo‘l-transport hodisalarini kamaytirish bo‘yicha turli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Biroq shunga qaramay, bu borada sezilarli ijobiy natijalar haqida gapirish qiyin. Afsuski, ayrim haydovchilar hanuz yo‘l harakati qoidalarini buzishda davom etmoqda.

Shunday sharoitda ayrim mutaxassislar va ekspertlar jazoni kuchaytirishni taklif qilmoqda. Ammo bu orqali asosiy maqsadga erishish oson emas. Albatta, barcha yo‘l harakati ishtirokchilarida yuksak huquqiy madaniyat shakllantirilmas ekan, yo‘l-transport hodisalarining oldini olish imkonsiz bo‘lib qoladi. [1].

Mavjud vaziyat tahlili ham shunga ishora bermoqda. O‘zbekiston IIV Jamoat xavfsizligi departamenti Yo‘l harakati xavfsizligi xizmati ma’lumotlariga ko‘ra, qayd etilgan yo‘l transport hodisalarning 51,4 foizi sub’yektiv sabablarga ko‘ra sodir etilgan, ya’ni haydovchilar yo‘l harakati qoidalariga e’tibor bermasligi oqibatida kelib chiqqan. 2025 yilning yanvar-sentyabr oylarida 5 ming 895 ta yo‘l-transport hodisalari sodir etilishi oqibatida 1 ming 303 nafar inson halok bo‘lgan va 4 ming 592 nafar inson tan jarohati olgan. O‘tkazilgan o‘rganishlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, yo‘l harakati qoidabuzarliklari uchun amaldagi qonun hujjatlarida ta’sir ko‘rsatuvchi omillar mavjud emasligi va bu bilan jazo muqarrarligi ta’minlanmagani yo‘l transport hodisalari ko‘payishining asosiy sabablaridan ekanligi aniqlangan.

Mazkur holat yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda faqat texnik va infratuzilmaviy choralar yetarli emasligini, balki huquqiy mexanizmlarni ham tubdan takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi. Xususan, yo‘l harakati qoidalarini buzganlik uchun belgilangan javobgarlik choralarining yetarli darajada ta’sirchan emasligi, profilaktik nazoratning sustligi hamda qoidabuzarliklarning oldini

ISSN 3030-3907

olishga qaratilgan tizimli yondashuvning to‘liq shakllanmagani haydovchilar tomonidan mas’uliyatsizlik holatlarining davom etishiga sabab bo‘lmoqda.

Shu munosabat bilan, rivojlangan davlatlar tajribasiga tayangan holda, jazolashdan ko‘ra ogohlantirish va oldini olishga qaratilgan mexanizmlarni kuchaytirish, jarima va sanksiyalarni qoidabuzarlik darajasiga mutanosib ravishda qayta ko‘rib chiqish hamda ularning muqarrarligini ta’minlash maqsadga muvofiqdir. Bundan tashqari, raqamli nazorat vositalari — avtomatik foto va video qayd etish tizimlari, intellektual monitoring platformalari orqali inson omilini kamaytirish yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda samarali vosita bo‘lib xizmat qiladi.

METODOLOGIYA.

O‘zbekiston Respublikasi shaharlari va aholi punktlarida transport vositalarining harakatlanish tezligi avvalgi 70 km/soatdan 60 km/soatgacha kamaytirildi. Ushbu qaror qabul qilinishiga sabab — ommaviy axborot vositalarida deyarli har kuni yurtimizning turli hududlarida sodir bo‘layotgan yo‘l-transport hodisalari sonining yildan-yilga ortib borishi va, afsuski, ularning ko‘pi o‘lim bilan yakunlanayotganidir. Fuqarolar yo‘llardagi vaziyat, transport infratuzilmasining sifati hamda aholining, ayniqsa, bolalar va yoshlarning yo‘l harakati qoidalarini bilish darajasi borasida tashvish bildirmoqda.

Ilmiy tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tezlikning oshishi avariya ehtimoli va uning og‘ir oqibatlari bilan bevosita bog‘liq. Masalan, harakat tezligi bir foizga ortsa, yo‘l harakati ishtirokchilari o‘limi bilan tugaydigan hodisa ehtimoli 4 foizga, og‘ir avariya ehtimoli esa 3 foizga ko‘payadi. Transport vositasi urib ketgan taqdirda piyodalarning halok bo‘lish xavfi ham keskin ortadi: 65 km/soat tezlikda bu ehtimol 50 km/soat tezlikdagiga nisbatan 4,5 baravar yuqori. Shuningdek, 65 km/soat tezlikda yon zarba sodir bo‘lsa, haydovchi va yo‘lovchilarning halok bo‘lish ehtimoli 85 foizni tashkil etadi.

O‘rtacha tezlikni atigi 5 foizga pasaytirish orqali o‘lim bilan yakunlanadigan yo‘l-transport hodisalarini qariyb 30 foizga kamaytirish mumkin. Sababi shundaki, tezlik qanchalik yuqori bo‘lsa, avtomobilni to‘xtatish uchun shuncha uzoq masofa talab etiladi, bu esa avariya ehtimolini oshiradi. Masalan, quruq yo‘lda 70 km/soat tezlikda harakatlanayotgan haydovchi turli vaziyatlarga javoban manyovr qilish uchun 18–20 metr masofani bosib o‘tadi, mashinani to‘liq to‘xtatish uchun esa 47 metr yo‘l zarur bo‘ladi. Tezlikka ta’sir ko‘rsatadigan boshqa omillar ham mavjud: spirtli ichimlik iste’moli, yo‘l trassasining holati, transport oqimining zichligi va ob-havo sharoitlari. Shu bois tezlikni cheklovchi qonuniy me’yorlarni joriy etish bilan birga, ularning amalda samarali ishlashini ta’minlash, yo‘llarni to‘g‘ri

ISSN 3030-3907

loyihalash hamda zamonaviy avtomobil texnologiyalarini qo‘llash katta ahamiyat kasb etadi. [2].

Bugungi kunda yo‘l-transport hodisalari sabablarini chuqur o‘rganish orqali ularni tartibga solish, infratuzilma obyektlarini qayta ko‘rib chiqish va yo‘l belgilarini ilmiy asosda belgilash orqali bunday hodisalarning oldini olish mumkin. Rivojlangan davlatlarda GIS dasturlari yordamida yo‘l-transport hodisalari tez-tez sodir bo‘ladigan nuqtalar aniqlanib, ularni kamaytirish bo‘yicha maxsus choralar ishlab chiqilmoqda. Shubhasiz, mamlakatimizda ham yo‘l-transport hodisalari o‘choqlarini aniqlash va u yerdagi mavjud muammolarni bartaraf etish orqali kelgusida bunday hodisalarning oldi olinmoqda [3].

NATIJA VA MUHOKAMA.

Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti hisobotlariga ko‘ra piyodalar, shu jumladan, odamlarning xavfsiz va qulay harakatlanishini ta’minlash uchun maxsus piyodalar yo‘laklari, chorrahalar va bordyur panduslari qurilishi, maktablardan 100 metr radiusda tezlikni cheklash belgilari va xavfsiz maktab zonasi belgilari o‘rnatilishi orqali bolalar sog‘ligini saqlash mumkinligi bildirilgan. Shuningdek ba’zi mamlakatlarning transport infratuzilmasiga sarflagan xarajatlari 2019 va 2021 yillar oralig‘ida YaIMning 1% dan 5% gacha o‘zgarganligi bu esa ushbu investitsiyalar multimodal transportni qo‘llab-quvvatlaydigan va barcha yo‘l foydalanuvchilari xavfsizligini ta’minlaydigan infratuzilmani qurish uchun ulkan imkoniyat ekanligi ta’kidlangan. Mazkur hisobotlarda qayd etilishicha, piyodalar infratuzilmasiga yo‘naltirilgan investitsiyalar nafaqat yo‘l-transport hodisalari sonini kamaytirishga, balki aholining jismoniy faolligini oshirish, atrof-muhit ifloslanishini kamaytirish va shahar muhitida yashash sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi. Ayniqsa, bolalar, keksalar va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun moslashtirilgan yo‘laklar, yorug‘lik bilan jihozlangan piyodalar o‘tish joylari hamda raqamli ogohlantirish tizimlari xavfsizlik darajasini sezilarli oshirishi ta’kidlanadi. Shu bilan birga, rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, transport infratuzilmasida “Vision Zero” tamoyillariga asoslangan yondashuvlar, ya’ni yo‘l-transport hodisalarida o‘lim va og‘ir jarohatlanish holatlarini nol darajaga tushirishga qaratilgan strategiyalar samarali natija bermoqda. Bunda zamonaviy texnologiyalar — aqlli svetoforlar, tezlikni avtomatik nazorat qiluvchi kameralar, sun’iy intellekt asosida ishlovchi transport oqimini boshqarish tizimlari muhim o‘rin tutadi.

Natijada, piyodalar xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kompleks choralar va texnologik yechimlarning joriy etilishi yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashning ajralmas qismi bo‘lib, uzoq muddatda ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikka xizmat qilishi qayd etiladi [4].

ISSN 3030-3907

Shuningdek, Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti hisobotida yo‘l transport hodisalarini kelib chiqish sabablari asosan yo‘l infratuzilmasi bilan bevosita bog‘liq ekanligi bildirilib o‘tilgan.

So‘nggi yillarda avtomobilsozlik sanoatida yo‘l harakati xavfsizligini oshirish va yo‘l-transport hodisalarining oldini olishga qaratilgan yangi texnologiyalar faol joriy etilmoqda. O‘z-o‘zidan boshqariladigan avtomobillarning rivojlanishidan tortib to to‘qnashuvning oldini olish tizimlarigacha bo‘lgan davrda avtomobillar aqlli bo‘lib, haydovchilar va yo‘lovchilar xavfsizligi manfaatlarini ko‘zlab harakat qila oladi.

Zamonaviy avtomobillarda faol joriy etilayotgan asosiy texnologiyalardan biri bu avtomatik favqulodda tormoz tizimidir. Tizim yo‘ldagi to‘siqlarni aniqlash uchun datchiklar va kameralardan foydalanadi va haydovchi xavfga javob bera olmasa, avtomatik ravishda tormozni bosadi. Ushbu tizim to‘qnashuvlar xavfini sezilarli darajada kamaytiradi.

Baxtsiz hodisalarning oldini olishga qaratilgan yana bir yangi texnologiya - chiziqdan chiqib ketish haqida ogohlantirish tizimi. Datchiklar va kameralar avtomobilning yo‘ldagi holatini kuzatib boradi va haydovchini bo‘lakdan chiqib ketish ehtimoli haqida ogohlantiradi. Ushbu tizim, ayniqsa, haydovchi charchagan yoki e’tiborsiz qolgan hollarda foydali bo‘lib, xavfli vaziyatlarning oldini olishga yordam beradi.

Bundan tashqari, yo‘l belgilarini aniqlash texnologiyasi keng tarqalmoqda. Kameralar va dasturiy ta’minot avtomobilga belgilarni avtomatik ravishda tanib olish va izohlash imkonini beradi, haydovchini tezlik chegaralari, taqiqlar va boshqa yo‘l ko‘rsatmalari haqida ogohlantiradi. Bu yo‘l harakati qoidalariga rioya qilishga yordam beradi va baxtsiz hodisalar ehtimolini kamaytiradi [5].

XULOSA.

Yangi texnologiyalar joriy etilayotganiga qaramay, yo‘l harakati xavfsizligi mas’uliyati hanuz haydovchining zimmasida qolayotganini alohida ta’kidlash lozim. Texnik yechimlar ayrim xavf-xatarlarning oldini olishga yordam bersa-da, ehtiyotkorlik va to‘g‘ri haydashni hech narsa almashtira olmaydi.

Umuman olganda, avariyalarni oldini olishga qaratilgan zamonaviy texnologiyalar avtomobil xavfsizligida muhim yutuq hisoblanadi. Ular baxtsiz hodisalar xavfini kamaytirishga va ko‘plab insonlarning hayotini saqlab qolishga xizmat qiladi. Biroq haydovchilar ushbu texnologiyalarning chegaralarini bilishlari hamda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda faol ishtirok etishlari zarur.

Shu bilan birga, mamlakatimiz hududida yo‘l infratuzilmasini shakllantirishda xalqaro standart va metodlardan foydalanib qayta jihozlash

ISSN 3030-3907

muhimdir. Yangi joriy etilayotgan usullarga tezroq moslashish, jahon tajribasidagi avtomobil yo‘llari infratuzilmasi kabi zamonaviy darajada ta’minlash zarur.

Shu bois, yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalasida texnologik yechimlar va inson omilining uyg‘unligi muhim ahamiyat kasb etadi. Haydovchilarning bilim va malakasini oshirish, ularning mas’uliyatini kuchaytirish hamda yo‘l harakati qoidalariga rioya etish madaniyatini shakllantirish texnik vositalar bilan bir qatorda ustuvor vazifa bo‘lib qoladi. Aholi o‘rtasida muntazam targ‘ibot-tashviqot ishlarini olib borish, zamonaviy o‘quv dasturlarini joriy etish va haydovchilarni qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish yo‘l-transport hodisalarini kamaytirishda muhim rol o‘ynaydi.

Bundan tashqari, respublika hududida yo‘l infratuzilmasini rivojlantirish jarayonida raqamli texnologiyalar, aqlli transport tizimlari (ITS), avtomatlashtirilgan boshqaruv va monitoring vositalarini bosqichma-bosqich joriy etish maqsadga muvofiqdir. Xalqaro standartlar asosida loyihalangan yo‘llar, chorrahalar va piyodalar infratuzilmasi barcha yo‘l foydalanuvchilari uchun xavfsiz va qulay muhit yaratadi.

Natijada, ilg‘or xorijiy tajribani hisobga olgan holda yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashga qaratilgan kompleks yondashuv — ya’ni zamonaviy texnologiyalar, sifatli infratuzilma va mas’uliyatli haydovchilik madaniyatining uyg‘unligi — respublikamizda yo‘l-transport hodisalari sonini kamaytirish, inson hayoti va sog‘lig‘ini muhofaza qilishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati rasmiy sayti https://senat.uz/oz/controlactivity/post-1283;.
2. O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi sud ekspertiza markazi rasmiy sayti. https://sudex.uz/?p=6522;.
3. M.Nurdinov, F.Dumaxonov, H.Turaboyev. “Farg‘ona vodiysida xavfsiz harakatlanishni tahminlash: muammo va yechimlar” mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. So‘ngi yillarda Andijon shahrida sodir bo`lgan yo‘l transport hodisalari tahlili.
4. Global status report on road safety 2023 https://whodc.mednet.ru/en/main-publications/dorozhno-transportnyj-travmatizm/3990/visit.html?link_name=iris.who.int%2Fbitstream%2Fhandle%2F10665%2F375016%2F9789240086517-eng.pdf;.
5. Автомобили и безопасность: новые технологии для предотвращения ДТП. https://omoda-nnmotors.ru/omoda/brand/news/avtomobili-i-bezopasnost-novye-tekhnologii-dlia-predotvrashcheniia-dtp/;.

ISSN 3030-3907

6. Turaboyev, K., & Anvarjonov, R. (2024). ANALYSIS OF TRANSPORT DIRECTIONS ON THE ROUTE IN ASAKA CITY. Technical science research in Uzbekistan, 2(4), 75-78.
7. Ulkanov, S., & Gulomov, F. (2022). 3 steps to transport dangerous goods in Uzbekistan. Science and Education, 3(1), 133-136.
8. Toraboev, X., & Alijonov, S. (2024). BASED FORMATION OF CITY PUBLIC TRANSPORT IN THE CASE OF ANDIJAN CITY. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(5), 12-16.
9. Rustamjon o‘g, T. R. H., & Akmaljon o‘g‘li, A. R. (2024, May). ASAKA TUMANIDAGI YO ‘NALISHLI TRANSPORTLARNING YO ‘NALISHLARINI OPTIMALLASHTIRISH. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON ADVANCE SCIENCE AND TECHNOLOGY (Vol. 1, No. 5, pp. 59-66).
10. Ulkanov Sardor Sodiqjon o‘g‘li, Xaydarov Saidaxmad Esonali o‘g‘li, & Xaydarov Saidaxmad Esonali o‘g‘li. (2023). ELASTOMERLARNING FIZIK-MEXANIK XUSUSIYATLARINI YAXSHILASH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 1471–1477. извлечено от http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/7598
11. Rustamjon o‘g, T. R. H., & Zakirovich, N. I. (2024). JAMOAT TRANSPORTI USTUVORLIGINI TA’MINLASHNING MAQBUL TADBIRLARI. Journal of new century innovations, 47(1), 114-122.
12. Toraboev, X. (2024). TWO OF BABUR SHAH STREET IN ANDIJAN CITY ANALYSIS OF THE MODERN BRIDGE CONNECTING THE PART SIGNIFICANCE. Journal of science-innovative research in Uzbekistan, 2(6), 231-237.
13. Turabayev, K. (2023). ANDIJAN CITY PUBLIC TRANSPORT TO PROVIDE PRIORITY OF MOVEMENT. Solution of social problems in management and economy, 2(11), 162-164.

ISSN 3030-3907

YO‘L BELGILARINI TUSHUNISH VA ULARGA AMAL QILISH TARTIBI

Zingirov S

Andijon davlat texnika instituti “Transport logistikasi” kafedrasi dotsenti

Annotatsiya. Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda belgilarni to‘g‘ri tushunish va ularga amal qilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada yo‘l belgilarining mazmuni, turlari va ulardan foydalanish tartiblari yoritilgan. Maqolada yo‘l belgilarining xalqaro me’yorlar asosida shakllanishi, ularning tasnifi hamda joylashtirish talablari tahlil qilingan. Natijada yo‘l belgilariga rioya qilish harakat xavfsizligini oshirishi, tartibni ta’minlashi hamda yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda muhim omil sifatida ko‘rishimiz mumkin.

Kalit so‘zlar: belgilar, harakat, xavfsizlik, haydovchi, qoidalar, axborot, taqiqlash, ogohlantirish.

Аннотация. Правильное понимание и соблюдение знаков имеет решающее значение для обеспечения безопасности дорожного движения. В данной статье освещены содержание, виды дорожных знаков и порядок их использования. В статье анализируется формирование дорожных знаков на основе международных норм, их классификация и требования к размещению. В результате мы видим, что соблюдение дорожных знаков повышает безопасность движения, обеспечивает порядок и является важным фактором предотвращения дорожно-транспортных происшествий.

Ключевые слова: знаки, движение, безопасность, водитель, правила, информация, запрет, предупреждение.

Abstract. In ensuring road safety, it is important to correctly understand and follow signs. This article covers the content, types, and procedures for using road signs. The article analyzes the formation of road signs based on international standards, their classification, and placement requirements. As a result, we can see that compliance with road signs increases traffic safety, ensures order, and is an important factor in preventing road accidents.

Keywords: signs, traffic, safety, driver, rules, information, prohibition, warning.

KIRISH.

Yo‘l belgilari haydovchilar, piyodalar, yo‘lovchilar, yo‘l ta’mirlovchilar, chorva mollarini haydab boruvchilarning avtomobil yo‘llari va shahar ko‘chalarida harakatlanishini tartibga solish, ularni xavfli qismlar haqida ogohlantirish uchun tegishli joylarga osib qo‘yiladigan shartli belgilar. Yo‘llarda harakatlanishni tartibga solishga ilgaridan harakat qilingan. Ot-aravalar va izvoshlar o`rnini avtomobillar va boshqa transport vositalari egallay borgan sari qoidalar, ulardagi belgilar ham takomillashib bordi. Yo‘l belgilaridagi grafiklar, texnik tafsilotlar

ISSN 3030-3907

1968-yilda Venada o`tkazilgan “Yo‘l belgilari va signallari haqidagi”gi Konventsiya hamda bu konventsiyani to‘ldiruvchi Yevropa kelishuvi (1971, Jeneva) talablariga ko‘ra ishlab chiqildi. O‘zbekiston Respublikasida 2001-yilda xalqaro me’yorlar asosida, mahalliy sharoitlarni hisobga olgan holda yangi “Yo‘l harakati qoidalari” ishlab chiqildi. Bu qoidalarga yo‘l belgilarining quyidagi asosiy 4 ta: ogohlantiruvchi, imtiyoz, taqiqlovchi, buyuruvchi guruhi va undan tashqari axborot-ko‘rsatgich, servis, qo‘shimcha axborot belgilari kiritilgan. Ogohlantiruvchi belgilar yo‘l harakati ishtirokchilariga yo‘lning harakatlanishda vaziyatga qarab chora ko‘rishni talab qiladigan xavfli qismlarining joylashuvi hamda ularning xususiyatlari to‘g‘risida ma’lumot berish uchun qo‘llaniladi. Imtiyoz belgilari chorrahalarda, alohida joylashgan qatnov qismlari kesishgan joylarda, shuningdek yo‘lning tor qismida yo‘l harakati ishtirokchilarining harakatlanish navbatini belgilash uchun qo‘llaniladi. Taqiqlovchi belgilar yo‘l harakatiga ma’lum cheklashlar kiritish yoki ularni bekor qilish uchun qo‘llaniladi. Buyuruvchi belgilar transport vositalariga ko‘rsatilgan yo‘nalishda yoki faqat ma’lum yo‘nalishlarda harakatlanishlari lozimligini buyuradi. Axborot-ko‘rsatgich belgilari harakat ishtirokchilariga yo‘ldagi harakat tartibi xususiyatlari hamda aholi yashaydigan joylar va manzillarning joylashuvi haqida ma’lumot berish uchun qo‘llaniladi. Servis belgilari transport vositalari, yo‘lovchilar va haydovchilarga xizmat ko`rsatish joylari xaqida ma`lumot berish uchun qo‘llaniladi. Qo‘shimcha axborot belgilari ular bilan birgalikda qo‘llanilgan belgilarga aniqlik kiritish yoki ularning ta’sirini cheklash uchun qo‘llaniladi [1]. Barcha belgilar qorong‘i paytlarda yoritilib turiladigan bo‘lishi yoki kamida 100 metr naridan ko‘rishga imkon beradigan materiallar bilan qoplanishi lozim.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlashda yo‘l belgilarining ahamiyati ko‘plab o‘zbek va xorijiy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan. Ushbu yo‘nalishda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar yo‘l belgilarining nafaqat axborot beruvchi vosita, balki harakatni samarali boshqaruvchi muhim tizim ekanligini ko‘rsatadi.

O‘zbek olimlaridan A. Qodirov, B. Tursunov va Sh. Yo‘ldoshevlarning ilmiy ishlarida yo‘l belgilarining milliy sharoitga mos holda qo‘llanilishi, ularning haydovchilar tomonidan idrok etilishi va yo‘l harakati xavfsizligiga ta’siri tahlil qilingan. Ular o‘z tadqiqotlarida yo‘l belgilarining to‘g‘ri joylashtirilishi va ularning ko‘rinish darajasi haydovchilarning tezkor qaror qabul qilishiga bevosita ta’sir etishini asoslab berishgan. Shuningdek, mahalliy tadqiqotchilar tomonidan ishlab chiqilgan ishlar yo‘l belgilarini standartlashtirish va ularni xalqaro me’yorlarga moslashtirish masalalariga ham qaratilgan [2].

ISSN 3030-3907

Xorijiy olimlar, xususan, R. Lamm, E. Hauer va D. Shinarlarning tadqiqotlarida yo‘l belgilarining inson omili bilan bog‘liq jihatlari chuqur o‘rganilgan. Ular yo‘l belgilarini qabul qilish jarayonida haydovchining psixologik holati, e’tibor darajasi va harakat tezligi muhim rol o‘ynashini ta’kidlaydilar [3]. Ayniqsa, D. Shinar o‘z izlanishlarida yo‘l belgilarining dizayni va ranglari haydovchi tomonidan tez va aniq idrok etilishida hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini ko‘rsatgan [3,4,5].

Bundan tashqari, xalqaro darajada qabul qilingan me’yoriy hujjatlar, jumladan, 1968-yilgi Yo‘l belgilari va signallari to‘g‘risidagi Konventsiya yo‘l belgilarining yagona tizimini shakllantirishda muhim asos bo‘lib xizmat qiladi. Ushbu hujjat asosida ishlab chiqilgan standartlar turli davlatlarda yo‘l belgilarini bir xil tushunishni ta’minlaydi [6].

METODOLOGIYA.

Mazkur tadqiqot yo‘l belgilaridan foydalanish tartiblarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, unda tizimli va tahliliy yondashuvlardan foydalanildi. Dastlab yo‘l belgilariga oid amaldagi me’yoriy hujjatlar, xususan GOST 23457-86 va O‘zDSt 3283-2017 standartlari o‘rganildi hamda ularning talablari tahlil qilindi. Shuningdek, yo‘l belgilarining xalqaro me’yorlar asosida shakllanishi, jumladan Vena konventsiyasi talablariga mosligi ko‘rib chiqildi [7].

Tadqiqot jarayonida yo‘l belgilarining tasnifi, ularning joylashtirilish tartibi, ko‘rinish darajasi va haydovchilar tomonidan idrok etilishiga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganildi [8,9]. Analitik usul yordamida belgilarni qo‘llash samaradorligi, xavfsizlikka ta’siri hamda turli yo‘l sharoitlarida ularning qo‘llanilish xususiyatlari baholandi. Natijalar asosida yo‘l harakati xavfsizligini oshirishga qaratilgan xulosalar shakllantirildi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Yo‘l belgilari, svetoforlar, to‘siqlar va yo‘naltiruvchi qurilmalar yo‘l harakati ishtirokchilarining kunduzi ham, qorong‘ida ham eng yaxshi ko‘rinishini, foydalanish va texnik xizmat ko‘rsatish qulayligini, shuningdek ularning bexosdan zarar etkazish ehtimolini istisno qilishni hisobga olgan holda joylashtirilishi kerak. Shu bilan birga, ular yo‘l harakati ishtirokchilaridan hech qanday to‘siqlar (yashil maydonlar, tashqi yoritish ustunlari va boshqalar) bilan yopilmasligi kerak.


Yo‘l belgilari va svetoforlarni joylashtirishda ular uzatayotgan ma’lumotlarning faqat u mo‘ljallangan yo‘l harakati ishtirokchilariga yo‘naltirilishini ta’minlash kerak.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Yo‘l belgilari, svetoforlar, to‘siqlar va yo‘naltiruvchi qurilmalarning qo‘llanilishi

Yo‘l harakati tartibini belgilaydigan yo‘l chiziqlarini aniqlash qiyin bo‘lgan (qor, loy va boshqalar) yoki ularni ko‘rinishini tiklab bo‘lmaydigan yo‘l qismlarida tegishli yo‘l belgilari o‘rnatilishi kerak.



2-rasm. Yo‘l chiziqlarini qo‘lanilishi

Agar yo‘l harakati ishtirokchilarining yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalarini idrok etishiga to‘sqinlik qilmasa yo‘l chegarasida va aholi punktlaridan tashqarisida – yo‘l oralig‘ida, belgilangan tartibda reklama, plakatlar, bannerlar va boshqa qurilmalarni joylashtirishga ruxsat beriladi.

Ular joylashtirilgan belgilar, svetoforlar va tayanchlarga, reklama, plakatlar, bannerlar va harakatni tashkil qilish bilan bog`liq bo`lmagan boshqa qurilmalarni joylashtirishga yo‘l qo‘yilmaydi.



3-rasm. Yo‘l belgilari, svetoforlarning qo‘llanilishi

Yo‘l harakatining tashkil etishning texnik vositalari, ulardan foydalanish vaqtinchalik sabablarga ko‘ra (yo‘llarni ta’mirlash ishlari, harakatning mavsumiy xususiyatlari va boshqalar), bu sabablar bartaraf etilgandan so‘ng darhol qayta

ISSN 3030-3907

o‘rnatilishi kerak. Shu bilan birga, belgilar va svetoforlarni g‘ilof bilan yopishga ruxsat beriladi. Yo‘l harakatini tashkil etishning texnik vositalaridan foydalanish standartlarda nazarda tutilmagan hollarda, agar ulardan foydalanish zarurati yo‘l harakatining o‘ziga xos shartlari bilan asoslansa, foydalanishga ruxsat beriladi.

Belgining ta’siri ustiga o‘rnatilgan qatnov qismiga, velosiped yoki piyodalar yo‘lkasiga tadbiq etiladi. Nur qaytaruvchi yuzaga ega bo‘lgan belgilar doimiy yoritilmagan yo‘l qismlarida, ichki va tashqi yoritgichli belgilar–doimiy yoritilgan yo‘l qismlarida qo‘llaniladi. Agar kamida 100 m masofadan belgilarning ko‘rinishi ta’minlansa, doimiy yoritilgan yo‘llarning qismlarida nur qaytaruvchi yuzaga ega bo‘lgan belgilar ishlatilishi mumkin.



4-rasm. Doimiy yoritilgan yo‘llarning qismlarida nur qaytaruvchi yuzaga ega bo‘lgan belgilar

GOST 23457-86 “Yo‘l belgilari, yo‘l chiziqlari, yo‘l to‘siqlari, svetoforlar va to‘suvchi qurilmalaridan foydalanish qoidalari”, O‘zDSt 3283-2017 “Yo‘l belgilari”, xavfsiz harakatlanishni tashkil qilish uchun avtomobil yo‘llari va ko‘chalarda yo‘l belgilari qo‘llaniladi. Ular ma’lum bir harakatlanish tartibini o‘rnatadi yoki haydovchilar va piyodalarga ularning yo‘lidagi harakatlanish sharoitlari to‘g‘risida ma’lumot beradi.

XULOSA. Ushbu tadqiqotda yo‘l belgilarining nima uchun muhimligi va ularni qanday ishlatish kerakligi o‘rganildi. Belgilar haydovchilar, piyodalar va yo‘lovchilar uchun yo‘l harakatini tartibga soladi va xavfli joylar haqida ogohlantiradi. Har bir belgi o‘z vazifasiga qarab ishlatiladi: ogohlantiruvchi, taqiqlovchi, buyuruvchi yoki axborot beruvchi. Belgilarni to‘g‘ri joylashtirish, ularni yoritish va haydovchi tomonidan ko‘rinadigan qilish juda muhim. Shuningdek, belgilarni takrorlash yoki oldindan qo‘yish ham harakatni xavfsiz qilishga yordam beradi. Umuman, yo‘l belgilariga amal qilish harakat xavfsizligini oshiradi va yo‘l-transport hodisalarini kamaytirishga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. GOST 23457-86: Traffic control devices. Rules for use of technical means of organizing traffic, 1–28, 30–37, 40–15, 21–25. Scribd, 1986.

ISSN 3030-3907

2. A. Qodirov, B. Tursunov, va Sh. Yo‘ldoshev, Yo‘l belgilarining milliy sharoitga mos qo‘llanilishi va harakat xavfsizligiga ta’siri, Toshkent: ToshDTI nashriyoti, 2018, pp. 12–35.
3. Улканов, С., Эргашев, К., Торабоева, С., & Сайдуллаева, Д. (2022). СОВРЕМЕННЫЙ АВТОМОБИЛЕЙ ОХЛАЖДЕНИЕ СИСТЕМА РАБОТА ОСОБЕННОСТИ. Science and innovation in the education system, 1(6), 23-30.
4. R. Lamm, Traffic Control Devices and Human Factors, New York: Van Nostrand Reinhold, 1991, pp. 45–78.
5. E. Hauer, Observational Studies in Road Safety, Toronto: University of Toronto Press, 1992, pp. 101–130.
6. D. Shinar, Traffic Safety and Human Behavior, Amsterdam: Elsevier, 2007, pp. 55–90.
7. Ernazarov A. et al. Optimization of the parameters of the functioning of public passenger transport stops //AIP Conference Proceedings. – AIP Publishing LLC, 2026. – Т. 3390. – №. 1. – С. 050004.
8. Convention on Road Signs and Signals, Vienna, Austria, 1968, pp. 1–45.
9. O‘zDSt 3283-2017, Yo‘l belgilari, Toshkent: O‘zbekiston Standartlashtirish Instituti, 2017, pp. 1–40.

ISSN 3030-3907

HAYDOVCHILARINI TAYYORLASH VA TA'LIM JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH

Axmatoxunov Baxtiyor

Andijan davlat texnik instituti "Transport muhandisligi" kafedrasi katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Zamonaviy avtomobillar murakkab elektron boshqaruv tizimlari, xavfsizlik sensorlari hamda raqamli diagnostika vositalari bilan jihozlanganligi sababli, haydovchilardan chuqur nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar talab etiladi. Mazkur tadqiqotimizda innovatsion o'qitish metodlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ta'lim jarayonini modernizatsiya qilish yo'llari tahlil qilindi. Natijada o'quv samaradorligini oshirish hamda xavfsiz harakat madaniyatini shakllantirish imkoniyatlariga ega bo'lishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: zamonaviy, avtomobil, elektron, sensor, haydovchi, innovatsion, metod, modernizatsiya.

Аннотация. Поскольку современные автомобили оснащены сложными системами электронного управления, датчиками безопасности и средствами цифровой диагностики, от водителей требуются глубокие теоретические знания и практические навыки. В данном исследовании проанализированы пути модернизации образовательного процесса на основе инновационных методов обучения и информационно-коммуникационных технологий. В результате мы можем повысить эффективность обучения и сформировать культуру безопасного поведения.

Ключевые слова: современный, автомобиль, электронный, сенсор, водитель, инновационный, метод, модернизация.

Abstract. Due to the fact that modern cars are equipped with complex electronic control systems, safety sensors, and digital diagnostic tools, drivers are required to have deep theoretical knowledge and practical skills. In this study, the ways of modernizing the educational process based on innovative teaching methods and information and communication technologies were analyzed. As a result, we will be able to increase the effectiveness of training and form a culture of safe movement.

Keywords: modern, automobile, electronic, sensor, driver, innovative, method, modernization.

KIRISH.

Bugungi kunda transport sohasining jadal rivojlanishi, avtomobillar texnologiyalarining murakkablashuvi va yo'l harakati xavfsizligi talablarining oshishi haydovchilarni tayyorlash tizimini tubdan qayta ko'rib chiqishni zaruratga aylantirmoqda. Zamonaviy avtomobillar murakkab elektron boshqaruv tizimlari,

ISSN 3030-3907

ko‘plab xavfsizlik sensorlari hamda raqamli diagnostika vositalari bilan jihozlangan bo‘lib, bu esa talabalarni nafaqat nazariy bilimlar, balki texnik bilimlar bo‘yicha ham yuqori darajada tayyorlashni talab qiladi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining yuqori siyosiy e’tibori transport, ta’lim va texnik kasb-hunar tayyorlash tizimlarini takomillashtirishga qaratilgan strategik yo‘nalishlar bilan chambarchas bog‘liqdir.

Prezident tomonidan ilgari surilgan qarorlardan biri sifatida 2022-yilda haydovchilarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi qaror matni misol bo‘la oladi. Mazkur hujjatga ko‘ra, haydovchilarni tayyorlash faoliyati yuritiladigan barcha ta’lim muassasalari va imtihon markazlariga Ichki ishlar vazirligi tomonidan litsenziya berilishi belgilandi. Bundan tashqari, innovatsion pedagogik texnologiyalarga asoslangan o‘quv dasturlarini ishlab chiqish, o‘qituvchi va murabbiylarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish ishlari ham Ichki ishlar vazirligi Akademiyasi tomonidan amalga oshiriladi [1].

Prezident qarorlari ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishga ham katta e’tibor qaratmoqda. Bunda raqamli platformalar orqali nazariy bilimlarni o‘zlashtirish, simulyatorlar yordamida amaliy mashqlarni bajarish va onlayn monitoring orqali o‘quv jarayonini boshqarish kabi yangi metodlar joriy etilishi ko‘zda tutilgan. Bu yondashuv pedagogik jarayonni modernizatsiya qilish va o‘quv samaradorligini oshirishga xizmat qiladi [2].

Shuningdek, ta’lim tizimidagi strategik islohotlar Prezident tomonidan tasdiqlangan umumiy ta’lim siyosati doirasiga ham kiradi. Masalan, 2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur qabul qilingan bo‘lib, unda pedagog kadrlar malakasini oshirish, o‘qituvchilarning kasbiy ko‘nikmalarini mustahkamlash hamda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish ko‘zda tutilgan. Bu dastur haydovchilarni tayyorlash tizimidagi o‘qituvchilar va instruktorlar uchun ham metodik ko‘mak va malaka oshirish imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qiladi, shu orqali yuqori malakali o‘qituvchilar tayyorlash tizimini mustahkamlash imkonini beradi [3].

Prezident qarorlari haydovchilar tayyorlash va ta’lim jarayonini takomillashtirish sohasida strategik yo‘nalishlarni belgilab beradi. Mazkur qarorlar nafaqat transport sohasidagi texnologik o‘zgarishlarga moslashishga xizmat qiladi, balki ta’lim tizimidagi pedagogik yondashuvlarni yangilash, axborot texnologiyalarini joriy etish va o‘quv jarayonining sifatini oshirishga qaratilgan. Bu esa o‘z navbatida yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash, malakali kadrlar

ISSN 3030-3907

tayyorlash va texnika sohasida raqobatbardosh mutaxassislar yetishtirish imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

O‘zbekistonlik olimlar tomonidan transport xavfsizligi, haydovchilar tayyorlash metodikasi va kasbiy ta’limni modernizatsiya qilish masalalari keng o‘rganilgan. Jumladan, professor R.X. Ayupov o‘z tadqiqotlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga integratsiya qilish orqali o‘quv samaradorligini oshirish mexanizmlarini asoslab bergan. Uning fikricha, raqamli platformalar va interaktiv o‘qitish metodlari o‘quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantiradi hamda amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi [4]. Shuningdek, pedagog olim N.A. Muslimov kasbiy ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning nazariy asoslarini ishlab chiqqan. U haydovchilarni tayyorlashda kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish zarurligini ta’kidlab, nazariya va amaliyot uyg‘unligini ta’minlash muhimligini qayd etadi [5].

Transport xavfsizligi masalalarini o‘rgangan olimlardan biri B.B. Berkinov bo‘lib, u yo‘l-transport hodisalarining oldini olishda haydovchilarning psixologik tayyorgarligi va texnik bilimlari muhim o‘rin tutishini ilmiy asoslab bergan. Uning tadqiqotlarida zamonaviy avtomobillarning elektron boshqaruv tizimlarini o‘rganish haydovchilar tayyorgarligining ajralmas qismi bo‘lishi kerakligi qayd etiladi [6].

Professor Sh.S. Sharipov esa kasbiy ta’limni modernizatsiya qilish sharoitida o‘qitish metodikasini takomillashtirish masalalarini tadqiq qilgan. U ta’lim jarayoniga simulyatorlar, virtual laboratoriyalar va elektron o‘quv resurslarini joriy etish o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyasini shakllantirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatadi [7].

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda ham haydovchilarni tayyorlash va yo‘l harakati xavfsizligini ta’minlash masalalari keng yoritilgan. Masalan, amerikalik tadqiqotchi D.L. Fisher haydovchilarni tayyorlashda simulyator texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini ilmiy tajribalar asosida isbotlagan. Uning tadqiqotlariga ko‘ra, virtual muhitda o‘qitish real yo‘l sharoitidagi xavfli vaziyatlarni xavfsiz tarzda modellashtirish imkonini beradi [8]. Shvetsiyalik olim C. Ahlström esa haydovchilarning diqqat-e’tiborini boshqarish va inson omilini kamaytirish bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. U zamonaviy avtomobillarda mavjud haydovchiga yordam beruvchi elektron tizimlar (ADAS) samarali ishlashi uchun haydovchilarning texnik bilim darajasi yuqori bo‘lishi lozimligini ta’kidlaydi [9]. Germaniyalik mutaxassis M. Vollrath transport psixologiyasi sohasida tadqiqot olib borib, haydovchilar tayyorgarligida psixologik barqarorlik va qaror qabul qilish tezligi muhim omil ekanligini ko‘rsatgan. U o‘quv jarayonida interaktiv

ISSN 3030-3907

metodlardan foydalanish orqali stressga chidamlilikni oshirish mumkinligini asoslaydi [10].

METODOLOGIYA.

Mazkur tadqiqotda zamonaviy avtomobillarni boshqarish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ta’lim jarayonini takomillashtirish maqsadida kompleks yondashuv qo‘llanildi. Tadqiqot metodologiyasi quyidagi asosiy bosqich va usullardan iborat bo‘ldi: Birinchidan, nazariy tahlil usuli asosida zamonaviy avtomobillarning elektron boshqaruv tizimlari, xavfsizlik sensorlari va raqamli diagnostika vositalariga oid ilmiy-adabiy manbalar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda ilg‘or xorijiy tajribalar o‘rganildi va tizimlashtirildi. Shu asosda haydovchilar tayyorgarligiga qo‘yiladigan zamonaviy talablar aniqlashtirildi. Ikkinchidan, taqqoslash va monitoring metodlari orqali an’anaviy o‘qitish usullari bilan innovatsion pedagogik texnologiyalar samaradorligi qiyosiy tahlil qilindi. O‘quv jarayonida interaktiv metodlar, muammoli vaziyatlar tahlili, simulyatsion mashg‘ulotlar hamda raqamli platformalardan foydalanish darajasi o‘rganildi. Uchinchidan, tajriba-sinov ishlari tashkil etildi. Tajriba guruhlarida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (multimedia taqdimotlari, virtual trenajyorlar, elektron test tizimlari, diagnostika dasturlari) asosida o‘qitish yo‘lga qo‘yildi, nazorat guruhlarida esa an’anaviy metodlar qo‘llanildi. O‘quvchilarning nazariy bilimlari, amaliy ko‘nikmalari va xavfsiz harakat madaniyati darajasi diagnostik testlar, amaliy topshiriqlar va kuzatuv mezonlari asosida baholandi.Shuningdek, statistik tahlil usullari yordamida olingan natijalar qayta ishlanib, o‘quv samaradorligining o‘sish ko‘rsatkichlari aniqlandi.

NATIJA VA MUHOKAMA.

Mazkur tadqiqot doirasida innovatsion o‘qitish metodlari hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida tashkil etilgan ta’lim jarayonining samaradorligi tajriba-sinov ishlari orqali aniqlandi. Olingan natijalar nazorat va tajriba guruhlari kesimida qiyosiy-statistik tahlil qilindi.

Nazariy bilimlar ko‘rsatkichi. Tajriba yakunida o‘quvchilarning nazariy bilim darajasi test sinovlari orqali baholandi.

1-jadval

Nazariy bilimlar ko‘rsatkichining qiyosiy tahlili (%)

Guruh	Boshlang‘ich ko‘rsatkich	Yakuniy ko‘rsatkich	O‘sish (%)
Nazorat guruhi	58 %	71 %	+13 %
Tajriba guruhi	60 %	86 %	+26 %

Natijalarga ko‘ra, tajriba guruhida o‘sish ko‘rsatkichi nazorat guruhiga nisbatan ikki baravar yuqori bo‘ldi. Bu innovatsion pedagogik texnologiyalar va

ISSN 3030-3907

raqamli vositalarning nazariy bilimlarni mustahkamlashdagi samaradorligini ko‘rsatadi.

Amaliy ko‘nikmalar shakllanishi. Amaliy mashg‘ulotlar jarayonida simulyatsion trenajyorlar va diagnostika dasturlaridan foydalanish o‘quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi.



1-rasm. Avtomatik diagnostika dasturlaridan foydalanish jarayoni.

Xavfsiz harakat madaniyatining shakllanishi. O‘quvchilarning yo‘l harakati qoidalariga rioya qilish, xavfsizlik sensorlari va ogohlantiruvchi tizimlardan foydalanish ko‘nikmalari kuzatuv mezonlari asosida baholandi.

2-jadval

Xavfsiz harakat madaniyati ko‘rsatkichlari (tmumkin bo‘lgan (%))

Guruh	Boshlang‘ich	Yakuniy	O‘sish
Nazorat guruhi	65 %	76 %	+11 %
Tajriba guruhi	66 %	90 %	+24 %

Natijalar shuni ko‘rsatadiki, tajriba guruhida xavfsiz harakat madaniyati sezilarli darajada shakllangan. Raqamli diagnostika va real vaziyatlarni modellashtirish orqali o‘quvchilar zamonaviy avtomobillarning elektron boshqaruv tizimlari bilan ishlashni amaliy o‘zlashtirdilar.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, innovatsion o‘qitish metodlari va AKTdan foydalanish: nazariy bilimlarni chuqurlashtiradi; amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlaydi; xavfsiz harakat madaniyatini shakllantiradi; o‘quv jarayonining interaktivligini oshiradi; o‘zlashtirish darajasini statistik jihatdan sezilarli oshiradi.

Tajriba va nazorat guruhlari o‘rtasidagi farq barcha mezonlar bo‘yicha o‘rtacha 20–25 % yuqori natijani ko‘rsatdi. Bu esa ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish, simulyatsion va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarurligini asoslaydi.

ISSN 3030-3907

Tadqiqot natijalari zamonaviy avtomobillarni boshqarish va ularga texnik xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ta’lim jarayonida innovatsion pedagogik texnologiyalarni qo‘llash yuqori samaradorlikka ega ekanligini ilmiy jihatdan tasdiqladi.

XULOSA. Zamonaviy avtomobillarning murakkab elektron boshqaruv tizimlari, xavfsizlik sensorlari va raqamli diagnostika vositalari haydovchilardan yuqori darajadagi nazariy bilim hamda mustahkam amaliy ko‘nikmalarni talab etadi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, innovatsion o‘qitish metodlari va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta’lim jarayoniga joriy etish o‘quv samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shuningdek, interaktiv va simulyatsion yondashuvlar orqali o‘quvchilarda xavfsiz harakat madaniyati, mustaqil fikrlash hamda zamonaviy texnik vositalardan samarali foydalanish kompetensiyalari shakllanadi. Demak, ta’lim jarayonini modernizatsiya qilish zamonaviy haydovchilarni sifatli tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “Haydovchilarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish hamda sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qaror, Toshkent, 2022, pp. 1–8.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” Qaror, Toshkent, 2020, pp. 2–10.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, “2022–2026-yillarda xalq ta’limini rivojlantirish bo‘yicha milliy dastur to‘g‘risida” Farmon, Toshkent, 2022, pp. 1–32.
4. R. X. Ayupov, Ta’lim jarayoniga axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiya qilishning nazariy va amaliy asoslari. Toshkent, O‘zbekiston: Fan va texnologiya, 2019, pp. 45–112.
5. N. A. Muslimov, Kasbiy ta’limda innovatsion pedagogik texnologiyalar. Toshkent, O‘zbekiston: Iqtisod-Moliya, 2018, pp. 78–156.
6. B. B. Berkinov, Yo‘l harakati xavfsizligi va haydovchilar tayyorgarligining psixologik asoslari. Toshkent, O‘zbekiston: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi nashriyoti, 2020, pp. 33–140.
7. Sh. S. Sharipov, Kasbiy ta’limni modernizatsiya qilish va o‘qitish metodikasini takomillashtirish. Toshkent, O‘zbekiston: Fan, 2021, pp. 52–168.
8. D. L. Fisher, “Using a fixed-base driving simulator to evaluate the effects of experience and PC-based risk awareness training on drivers’ decisions,” Human Factors, vol. 44, no. 2, pp. 287–302, 2002.

ISSN 3030-3907

9. C. Ahlström, K. Kircher, and A. Kircher, “A gaze-based driver distraction warning system and its effect on visual behavior,” IEEE Transactions on Intelligent Transportation Systems, vol. 14, no. 2, pp. 965–973, 2013.
10. M. Vollrath, “Traffic psychology and driver behavior,” Transportation Research Part F: Traffic Psychology and Behaviour, vol. 14, no. 3, pp. 240–250, 2011.

ISSN 3030-3907

YETKAZIB BERUVCHILARNI IATF 16949:2016 STANDART TALABLARI BO‘YICHA BAHOLASH

Mamajonov Abduvohid
Andijon davlat texnika instituti dotsenti
Tel: +998-99-920-09-69.
E-mail: abduvohid.mamjonov@mail.ru
Rasulov Doniyorbek
Andijon davlat texnika institutida mustaqil ilmiy xodim
Tel: +998-90-527-77-57.
E-mail: drasulov@mail.ru

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot “Butlovchi qismlar yetkazuvchi tashkilotlar boshqaruv tizimlarining xalqaro avtomobilsozlik sifat menejmenti standarti talablarini qo‘llash asosida takomillashtirish” nomli dissertatsiya ishim bo‘yicha yetkazib beruvchilarni IATF 16949:2016 standart talablari bo‘yicha baholash mezonlari ishlab chiqilgan. Baholash kriteriyalari aniq standart talablari asosida tanlab olingan bo‘lib, bu IATF 16949:2016 standartining 8.4 bandida ko‘rsatib o‘tilgan. Ushbu tadqiqotda uchta yetkazib beruvchi korxonalar orasida baholash ishlari amalga oshirilgan. Korxonalar shartli ravishda “A”, “B”, “C” korxona deb belgilab oldik.

Kalit so‘zlar: IATF 16949:2016, BIQS, GR&R, PPM, Cpk, FMEA, RPN, SPC, PPAP, OTIF – On Time In Full (o‘z vaqtida va to‘liq yetkazish darajasi), SQAM-Supplier Quality Assurance Manual (bu yetkazib beruvchilar uchun sifat kafolat qo‘llanmasi), VDA 6.3- Avtomotiv sohasida jarayon auditi standarti.

Аннотация. В данном исследовании по диссертационной работе "Совершенствование систем управления организациями-поставщиками комплектующих на основе применения требований международного стандарта менеджмента качества автомобильного производства" разработаны критерии оценки поставщиков по требованиям стандарта IATF 16949:2016. Критерии оценки были выбраны на основе конкретных требований стандарта, что указано в пункте 8.4 стандарта IATF 16949:2016. В данном исследовании были проведены оценочные работы среди трех предприятий-поставщиков. Мы условно обозначили предприятия как "A," "B," "C."

Ключевые слова: IATF 16949:2016, BIQS, GR&R, PPM, Cpk, FMEA, RPN, SPC, PPAP, OTIF - On Time In Full (уровень своевременной и полной поставки), SQAM - Supplier Quality Assurance Manual (это руководство по гарантированию качества для поставщиков), VDA 6.3- Стандарт аудита процессов в автомобильной отрасли.

ISSN 3030-3907

Abstract. In this study, based on the dissertation work "Improving the management systems of organizations supplying components based on the application of the requirements of the international automotive quality management standard," criteria for evaluating suppliers according to the requirements of the IATF 16949:2016 standard were developed. The evaluation criteria were selected based on the requirements of a specific standard, which is specified in clause 8.4 of the IATF 16949:2016 standard. In this study, evaluation work was carried out among three supplier enterprises. We conditionally designated the enterprises "A," "B," and "C."

Keywords: IATF 16949:2016, BIQS, GR&R, PPM, Cpk, FMEA, RPN, SPC, PPAP, OTIF - On Time In Full, SQAM - Supplier Quality Assurance Manual, VDA 6.3 - Process Audit Standard in the Automotive Industry.


KIRISH.

IATF 16949:2016 standarti avtomobil sanoati uchun mo‘ljallangan sifat menejmenti tizimi bo‘lib, unda yetkazib beruvchilar bilan ishlash jarayoni alohida strategik ahamiyatga ega[1]. Standartning 8.4-bo‘limi “Tashqi ta’minot qilinadigan jarayonlar, mahsulotlar va xizmatlarni boshqarish”ga bag‘ishlangan bo‘lib, unda yetkazib beruvchilarni tanlash, baholash, rivojlantirish va muntazam monitoring qilish bo‘yicha qat’iy talablar belgilangan[2]. IATF falsafasiga ko‘ra, yakuniy mahsulot sifati ko‘p jihatdan ta’minot zanjiridagi bo‘g‘inlarning, ayniqsa birlamchi va ikkilamchi yetkazib beruvchilarning barqaror ishlashi va ularning sifat menejmenti tizimlari yetukligiga bog‘liq. Shu boisdan korxona yetkazib beruvchilarini oddiy narx va muddat bo‘yicha emas, balki tizimli, mezonlarga asoslangan va hujjatlashtirilgan baholash tizimi orqali boshqarishi zarur[3].

Standartga ko‘ra, tashkilot yetkazib beruvchilarni tanlash uchun mezonlarni oldindan belgilab olishi, ularni hujjatlashtirishi va amalda qo‘llashi shart[4]. Bu mezonlar sifat ko‘rsatkichlari, yetkazib berish intizomi, sifat tizimi sertifikatlari, texnik imkoniyatlar, jarayonlarni barqaror boshqarish qobiliyati (SPC, FMEA, MSA va boshqalar) kabi jihatlarni qamrab olishi kerak[5]. Baholash natijalari asosida yetkazib beruvchilar kategoriyalarga ajratilib, har bir toifa uchun boshqaruv chuqurligi va rivojlantirish talablarining darajasi belgilanadi[6].


Avtomobilsozlik sanoatida ta'minotchilarni tanlash– bu faqat xarid jarayoni emas, balki kompaniyaning strategik raqobatbardoshligini belgilovchi murakkab boshqaruv qaroridir[7]. Noto‘g‘ri tanlangan yetkazib beruvchi ishlab chiqarish zanjirining to‘xtashiga, moliyaviy yo‘qotishlarning oshishiga va eng yomoni, korxona obro‘sining pasayishiga sabab bo‘lishi mumkin[8].

ISSN 3030-3907



1-rasm. IATF 16949:2016 talabi bo‘yicha mezonlarni tanlash.

Baholash mezonlari – yetkazib beruvchini IATF 16949 talablari bo‘yicha tanlab olingan mezon kategoriyalari quyidagi ko‘rinishda 100 ball taqsimlandi(2-rasm).



2-rasm. Umumiy 100 ballni taqsimlanishi.

Statistik ma’lumotlar asosida har bir korxona ball bilan baholanib chiqildi.

1-jadval.

Statistik ma’lumotlar.

Kategoriya	Mezon	Ball	Talab	A	B	C
SIFAT TIZIMI	IATF 16949 sertifikati	12	Bor	12	10	8
	GR&R	10	GR&R ≤ 10%	8	7	6

ISSN 3030-3907

	PPM	10	PPM < 50	8	7	6
	Cpk	8	Cpk ≥ 1.67	7	6	5
JARAYON	PPAP Daraja	10	Mijoz talabiga muvofiq to‘liq PPAP Daraja 3	8	8	7
	FMEA RPN	8	RPN<100	7	6	5
	SPC	8	SPC ($\bar{X}$–R, P, Cpk monitoringi)	7	6	4
YETKAZISH	OTIF	12	OTIF ≥ 98.5%	10	9	8
	Lead Time	5	5 kun	4	4	3
AUDIT	VDA 6.3 / SQAM	17	Auditi natijasi o‘rtacha ≥ 4.5	15	14	13
JAMI		100		**86**	**77**	**65**

NATIJALARNI TAHLIL QILISH VA TAQQOSLASH

Jadvaldan ko‘rinib turibdiki, uchta shartli yetkazib beruvchi korxona (“A”, “B”, “C”) bir xil mezonlar bo‘yicha 100 ballik shkalada baholangan. “A” korxona 86 ball bilan eng yuqori natijani ko‘rsatib, IATF 16949 talablari bo‘yicha asosiy mezonlarda nisbatan barqaror va yetarli darajada shakllangan tizimga ega ekanini namoyon etadi. “B” korxona 77 ball, “C” korxona esa 65 ball to‘plagan bo‘lib, bu korxonalarda ayrim yo‘nalishlarni chuqurroq takomillashtirish zarurligini ko‘rsatadi.

Tadqiqotda olingan ballar boshqaruv qarorlarini shakllantirishga qulay bo‘lishi uchun toifalarga ajratildi. 100 ballik tizimda 90–100 ball oralig‘i “A” toifa (yuqori darajadagi, strategik yetkazib beruvchi), 80–89 ball oralig‘i “B” toifa (talablarni qondiradi, biroq ayrim jihatlarda yaxshilanish zarur), 70–79 ball oralig‘i “C” toifa (o‘rta daraja, majburiy rivojlantirish dasturi talab qilinadi), 70 balldan past natijalar esa “D” toifa (yuqori riskli) sifatida belgilandi.

Mazkur chegaralarga tayangan holda, “A” korxonani yuqori natijali, B toifaga yaqin, barqaror yetkazib beruvchi sifatida ko‘rish mumkin. “B” korxona o‘rta darajali, C toifaga yaqin yetkazib beruvchi bo‘lib, rejalashtirilgan takomillashtirish choralariga muhtoj. “C” korxona esa D chegarasiga yaqin ball to‘plagan va risk darajasi yuqori bo‘lgan yetkazib beruvchi sifatida baholanadi. Bunday toifalash boshqaruvga quyidagi yo‘nalishlarda amaliy qarorlar qabul qilish imkonini beradi:

- yuqori ball to‘plagan yetkazib beruvchilar bilan uzoq muddatli hamkorlikni kengaytirish;

ISSN 3030-3907

- o‘rta natijalar ko‘rsatgan yetkazib beruvchilar uchun aniq, muddatli takomillashtirish rejalarini ishlab chiqish;
- past ball olgan yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni qayta ko‘rib chiqish va zarurat tug‘ilganda alternativ manbalarni izlash.

Umumiy reytingdan tashqari, ayrim kritik ko‘rsatkichlar bo‘yicha “signal” chegaralarini belgilab qo‘yish ham maqsadga muvofiq. Masalan, PPM 1000 dan oshsa yoki OTIF 90% dan pastga tushsa, yetkazib beruvchi umumiy ballidan qat’i nazar kamida C yoki D toifa sifatida qayta ko‘rib chiqiladi. Xuddi shuningdek, VDA 6.3 o‘rtacha balli 3,5 dan past bo‘lganda, takroriy audit va keng qamrovli tuzatish rejalarini ishlab chiqish zarur bo‘ladi. Bunday yondashuv IATF 16949:2016 8.4.2.4-bandida ta’kidlangan riskka asoslangan fikrlash tamoyilini amaliyotga yaqinlashtiradi.

AMALIY TAVSIYALAR.

Olingan natijalar shuni ko‘rsatadiki, mahalliy yetkazib beruvchilar IATF 16949 talablari bo‘yicha bir qator ijobiy natijalarga erishgan bo‘lsalar-da, tizimni yanada mustahkamlash uchun aniq yo‘nalishlar mavjud. Avvalo, GR&R natijalarini barqaror ravishda 10% dan past darajada ushlab turish uchun o‘lchash tizimini chuqurroq tahlil qilish, o‘lchov vositalarini o‘z vaqtida kalibrlash, operatorlarni muntazam o‘qitish va MSA tadqiqotlarini rejalilik asosida o‘tkazish maqsadga muvofiq. PPM ko‘rsatkichini pasaytirish uchun esa jarayon ichida nuqsonlarni erta aniqlashga xizmat qiladigan “build-in sifat” yondashuvlarini, jumladan Poka-Yoke, avtomatik nazorat qurilmalari va xatolikni oldindan bartaraf etishga qaratilgan vositalarni kengroq joriy etish zarur.

Jarayon muhandisligi bo‘yicha tavsiyalar FMEA va SPCga alohida e’tibor qaratishni talab qiladi. Amaliyotda FMEA ko‘pincha faqat sertifikatlash talabi sifatida ko‘riladi va real o‘zgarishlar sodir bo‘lganda yetarli darajada yangilanmaydi, natijada RPN qiymati real riskdan uzilib qoladi. FMEAni “tirik hujjat” sifatida yuritish, ya’ni har bir jiddiy nuqson, mijoz reklamatsiyasi yoki jarayon o‘zgarishidan keyin qayta ko‘rib chiqish zarur. SPC doirasida esa jarayonning asosiy nazorat nuqtalarida $\bar{X}$–R va P-diagrammalarni amalda yuritish, Cpk 1,67 dan pastga tushgan holatlarda jarayonni barqarorlashtirish bo‘yicha tezkor chora-tadbirlarni ishga tushirish talab etiladi.

Yetkazib berish yo‘nalishida OTIF ko‘rsatkichini yaxshilash uchun talab prognozlash, ishlab chiqarish rejalashtirish va logistika tizimlari o‘rtasidagi axborot almashinuvi va integratsiyani kuchaytirish muhim. Xavfsizlik zaxiralarini ilmiy asosda belgilash, lead time ni maqbullashtirish, partiya hajmlarini optimallashtirish va transport vositalari yuklanishini tahlil qilish OTIFning barqarorligini oshiradi. Audit natijalarini yaxshilash uchun esa VDA 6.3 talablari

ISSN 3030-3907

asosida ichki jarayon auditlarini rejalashtirib borish, SQAM talablarini yetkazib beruvchi darajasida ham to‘liq o‘zlashtirish maqsadga muvofiq.

XULOSA.

Taklif etilgan 100 ballik baholash modeli IATF 16949:2016 standartining 8.4-bo‘limida belgilangan yetkazib beruvchini tanlash, baholash, rivojlantirish va monitoring qilish talablarini mahalliy sanoat korxonalari sharoitiga mos shaklda amaliy mexanizmga aylantirish imkonini beradi. Sifat tizimi, jarayon ko‘rsatkichlari, yetkazib berish intizomi va audit natijalarini yagona reyting tizimida birlashtirish orqali korxonalar ta’minot zanjiridagi risklarni tezda aniqlashi, ustuvor takomillashtirish yo‘nalishlarini aniq belgilashi va strategik yetkazib beruvchilar bilan hamkorlikni yanada mustahkamlashi mumkin.

Mazkur yondashuv faqat avtomobilsozlik sanoati doirasida emas, balki boshqa tarmoqlarda ham, masalan tibbiyot, elektrotexnika yoki kimyo sanoatida, tegishli xalqaro standartlar (ISO 13485, ISO 22000 va boshqalar) talablari asosida moslashtirilgan holda qo‘llanishi mumkin. Kelgusida baholash modelini raqamli platformaga ko‘chirish, ya’ni elektron “Yetkazuvchilarni baholash dasturi” va avtomatik hisoblash tizimlarini joriy etish boshqaruv qarorlarini yanada tezkor, shaffof va ishonchli qilishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Lu, W. (2024). A decision tool for the supplier selection of automotive back-end semiconductor intelligent manufacturing. *Journal of Manufacturing Systems*.

2. Abduvohid, M., & Doniyorbek, R. (2025). Analysis of the current state of quality management systems in local supplier enterprises and their compliance with IATF 16949 requirements. *Frontiers of Knowledge and Interdisciplinary Discovery*, *1*(1), 395–402.

3. Doniyorbek, R., & Abduvohid, M. (2025). Build-in sifat yondashuvining avtomobilsozlik sanoatida yetkazib beruvchi sifat menejmentiga ta’siri: Xalqaro PhD dissertatsiyalar asosida adabiyotlar tahlili. *Tadqiqotlar*, *76*(3), 225–232.

4. Nouri, S., & Hong, J. (2019). Supplier evaluation and selection in automobile industry. In *Supplier evaluation and selection in automobile industry* (pp. 1–24). IntechOpen.intechopen

5. Jha, J. K., & Shankar, R. (2013). Supplier evaluation and selection in an automobile industry using AHP. *International Journal of Engineering Research and Applications*, *3*(4), 356–362.ijera

6. Awasthi, A., Chauhan, S. S., & Omrani, H. (2011). Application of fuzzy TOPSIS in evaluating sustainable transportation systems. *Expert Systems with Applications*, *38*(10), 12270–12280. (supplier tanlash va ko‘p mezonli baholash metodlari uchun nazariy asos sifatida)academia

ISSN 3030-3907

7. Pimenta, M. L., Silva, C. E. S., & Ferreira, L. M. D. F. (2016). Supplier quality management for component introduction in the automotive industry. *Procedia – Social and Behavioral Sciences, 221*, 10–18.sciencedirect

8. Pacana, A., Siwiec, D., & Bednárová, L. (2023). Technological quality of suppliers in the automotive industry: A case study. *Engineering Management in Production and Services, 15*(2), 7–20.ersj

ISSN 3030-3907

ANALYSIS OF MECHANICAL PROPERTIES OF POLYMER MATERIALS USED IN THE AUTOMOTIVE INDUSTRY

Turaev Shoyadbek Akhmadjonovich.
Associate Professor of the Department of Transport Logistics, Andijan State Technical Institute.

Abstract. Analyzed in the article the method of physical and mechanical properties of automobile bushings made of local polymeric materials.

Keywords: polymeric materials, thermoplast plastics, metal-ceramic materials, carbon materials, polyamides, electrical insulator

Аннотация. В статье анализируется методика определения физико-механических свойств автомобильных втулок, изготовленных из местных полимерных материалов.

Ключевые слова: полимерные материалы, термопласты, металлокерамические материалы, углеродные материалы, полиамиды, электроизолятор

Annotatsiya. Maqolada mahalliy polimer materiallardan tayyorlangan avtomobil vtulkalarining fizik-mexanik xususiyatlarini aniqlash usuli tahlil qilingan.

Kalit so‘zlar: polimer materiallar, termoplastlar, metallokeramik materiallar, uglerodli materiallar, poliamidlar, elektroizolyator

INTRODUCTION.

It is difficult to imagine the constructions of modern vehicles without polymer materials. The use of these materials not only compacts the structures of technical means, reduces their mass, increases performance reliability, but also provides a great way of reducing the cost of production and labor costs. The wide application of polymer materials is caused by the fact that they can directly replace valuable metal and wood materials, in most cases they are superior to them [1].

Polymers are a lot of expensive and rare materials that they can replace, and sometimes even surpass them, caused them to be widely used. Their use is more profitable than economic gist, because the cost per kilo of materials, the cocktail cost of preparing the details is reduced, the details are much lighter, the capital expenditure on storage and operational costs (lubrication, repair) are reduced [2], If the details are made of metal by injection, thermal and mechanical processing, only one of the polymers is obtained by the method of operation, injection or compression under pressure [3]. The waste of material in the preparation of polymer materials does not exceed 5-10%, while in the preparation of metals the waste is much more (60-70%). Products from polymer will be two to three times cheaper than those made of metal [4,5].

METHODOLOGY.

ISSN 3030-3907

In this study, a comprehensive experimental and analytical methodology was employed to investigate the physical and mechanical properties of automobile bushings manufactured from locally available polymeric materials, initially selecting various polymer compositions including thermoplastic plastics, polyamides [5], and carbon-based materials, while metal-ceramic materials were also prepared as reference samples for comparative analysis, all specimens were produced under standardized technological conditions using molding, pressing, and machining processes to ensure identical geometric dimensions, subsequently, their physical properties such as density [6], thermal resistance, and electrical insulation characteristics were determined under laboratory conditions using specialized measurement instruments, while mechanical properties were evaluated through compression, tensile [7], bending, and wear resistance tests utilizing universal testing machines and tribological equipment, during the experimental process multiple repeated measurements were conducted for each material to ensure reliability [8], and the obtained data were processed using statistical methods to calculate mean values and dispersion indicators, furthermore, to assess the operational performance of the materials in friction pairs, additional bench tests were carried out under conditions simulating real эксплуатation environments with controlled load and speed regimes, the study also included a comparative analysis of polymeric materials against metal and metal-ceramic counterparts, highlighting advantages such as lower weight, corrosion resistance, and favorable tribological behavior, while also identifying limitations including susceptibility to deformation under high temperatures and heavy mechanical loads, based on the experimental results, practical recommendations were developed regarding the selection and application of suitable materials for automobile bushings, and the feasibility of utilizing locally sourced raw materials was scientifically substantiated, contributing to improved efficiency and cost-effectiveness in automotive component production [9,10].

As is known[11], polymers in relation to metals are distinguished by their elastic module, low heat resistance and low thermal conductivity, high tensile kengayish coefficient, fluidity, tendency to relaxation and other properties.

In the pair of polymer and metal friction, the coefficient of friction is determined mainly by the resistance of the thin curtains formed on the surface to abrasion. If the metal surface of the hook is clean, the polymer will also be less likely to be eaten [12].

In order to increase the resistance of polymers to friction and ingestion at high loading and movement speeds, various fillers are added to their composition. Such additives basically perform the function of pickling, antifriction, heat-

ISSN 3030-3907

conducting, heat-resistant, resistant to ingestion. For example, graphite, molybdenum disulfide, talc, oxides of metals, kaolin, phosphagips, Kurim, shishatolasi, asbestos, etc.are used as antifreeze and edible fillers. To increase the thermal and electrical conductivity of polymers, copper, aluminum, bronze, iron, dry, graphite powder and others are used. As fillers, all organic and inorganic substances as well as production and rural farm waste can be used.

The coefficient of friction and the type of filler not only affects the absorption, but also greatly affects its quantity in the composition. To do this, the most optimal quantities of them are determined by experience.

The polymer composition of fillers alokida-alokida is difficult to achieve the necessary properties, so a mixture of several fillers is used. For example, to reduce the coefficient of friction and absorption of epoxy polymer, mixtures of additives such as graphite and talc, fasfogips, graphite and Kurim, asbestos and talc are used in certain quantities.

As an antifricing material, thermoplastic polymers are relatively often used in polyamides. There are other types of polyamide Capron P-66, P-68, caprolone V and so on. They work in harorat from -40 0S to +80 0S (Table 1).

Table 1

Physico-mechanical and friction properties of some polymers and other non steel materials

Materials	**Strength limit, kg / cm^2**		**Operating Temperature ,^{0}C**	**Friction coefficient**
	Siqishda	Cho‘zishda		
Thermosetting plastics	800-1000	-	250-300	**0,10-0,40**
Thermoplast plastics	-	700-800	100-120	**0,15-0,40**
Metal-ceramic materials	2500-2800	-	300-500	**0,25-0,40**
Carbon materials	**200-400**	**140-250**	**300-450**	**0,20-0,35**

The coefficient of friction of polyamide with steel is f = 0.1-0.2 (oil-free), f =0.05-0.1 in oil friction and f = 0.08-0.15 in water friction. If fillers are added to its composition, its properties are improved by 2-3 times. Fluoroplastic and its composition are widely used as antifriction materials in automotive and mechanical engineering. They are resistant to chemicals and resistant to high temperatures (+300 0S and above). There are fluoroplast-2, 2M, 3, 3M, 4 (PTFE), 4M, 4D and other types of fluoroplastics. The coefficient of friction

ISSN 3030-3907

of Ftoroplast-4 with steel is as small as that of oil friction. Currently, polyolifins (polyethylene, polypropylene, polystyrene) are also used as antifriction polymers. They are resistant to acids. They are also mainly used as various filler compositions. Their coefficient of friction with metals is in the range f = 0.2-0.4 (Table 2)

Table 2

Coefficient of friction and corrosion of plastics (metal + polymer)

Material	Friction coefficient		Relative corrosion
	static	dynamic	
Polyamides	0,20-0,25	0,25-0,30	**200**
Polypharmaldehyde	0,15	0,20	**65**
Politerofluoroethylene	0,10	0,15	**8**
Polycarbonate	0,30	0,40	**2500**
Polyurethane	**0,30**	**0,40**	**340**

Pentaplast is used in the manufacture of some high-precision machine parts (gears, cuffs, pulleys, etc.). It is resistant to chemicals and is less susceptible towater. Operating temperature 120-130 ^{0}C. The coefficient of of pentaplast with steel is f = 0.12-0.20. Polyfarmaldehyde and epoxy resins are used in the manufacture of many gears, bushings, couplings, etc. They are resistant to organic solvents. Friction coefficient: polyformardehyde and steel f = 0.3-0.35, epoxy and steel f = 0.24-0.3. Polymers are mainly used as thin coatings (Table 3).

Table 3

Friction properties of thin coatings

Plastics	Friction coefficient	Plastics	Friction coefficient
Polyamides	0,04-0,05	Ftoroplast	**0,032**
Polycarbonate	0,032	Epoxy (ED)	**0,032**
Polyacrylate	**0,040**		

CONCLUSION.

Conducted studies have shown that one kg of Har one plastic reduces the mass of the car to 1,2 kg, a decrease in the mass by 10% will help to economy the fuel at the right time up to 20%.

REFERENCES

1. Avazbekovich, I. N., Ahmadjonova, T. S., & Valerevich, A. A. (2020). To determine the ingesting of various polymer materials of automobile cartridges. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1572-1575.

ISSN 3030-3907

2. Kadyrov S.M, Lebedev A.V., Sidignazarov K.Location Tribology basics. The T.: 2000.
3. Choudhari, D. S., & Kakhandki, V. J. (2020). Comprehensive study and analysis of mechanical properties of chopped carbon fibre reinforced nylon 66 composite materials. Materials Today: Proceedings.
4. Sokhibova Z. et al. Thermal conductivity of granulated silicon doped with alkali metal atoms //EPJ Web of Conferences. – EDP Sciences, 2025. – T. 321. – C. 02014.
5. Sodiqjon o‘g‘li U. S. Kredit-modul tizimi asosida ta’lim vositalarining klassifkatsiyasi yaratish //4-SHO ‘BA MATERIALLARI МАТЕРИАЛЫ 4-СЕКЦИИ SECTION 4 MATERIALS. – 2022.
6. Khaydarov, S., & Ulkanov, S. (2023). ORIGIN OF POLYMER MATERIALS. Ilm-Fan Va ta’lim, 1(3). извлечено от https://ilmfanvatalim.uz/index.php/ift/article/view/78
7. Ulkanov, S., & Gulomov, F. (2022). 3 steps to transport dangerous goods in Uzbekistan. Science and Education, 3(1), 133-136
8. Ulkanov Sardor Sodiqjon o‘g‘li, Xaydarov Saidaxmad Esonali o‘g‘li, & Xaydarov Saidaxmad Esonali o‘g‘li. (2023). ELASTOMERLARNING FIZIK-MEXANIK XUSUSIYATLARINI YAXSHILASH. Новости образования: исследование в XXI веке, 1(9), 1471–1477. извлечено от http://nauchniyimpuls.ru/index.php/noiv/article/view/7598
9. Улканов, С., Эргашев, К., Торабоева, С., & Сайдуллаева, Д. (2022). СОВРЕМЕННЫЙ АВТОМОБИЛЕЙ ОХЛАЖДЕНИЕ СИСТЕМА РАБОТА ОСОБЕННОСТИ. Science and innovation in the education system, 1(6), 23-30.
10. Turakhodjaev, N., Turakhujaeva, S., Turakhodjaev, S., Tursunbaev, S., Turakhodjaeva, F., & Turakhujaeva, A. (2020). Research On Heat Exchange In Melting Process. Solid State Technology, 63(6), 6653-6661.
11. TURAKHODJAEV, N., TURSUNBAEV, S., UMAROVA, D., KUCHKOROVA, M., & BAYDULLAEV, A. Influence of Alloying

ISSN 3030-3907

ON DEVELOPMENT OF CREATIVITY OF TEACHERS IN ENGINEERING UNIVERSITIES.

Q.S. Mirzayev

Senior Lecturer, Department of Automotive and Transport Engineering, Andijan State Technical Institute.

E-mail: k.s.mirzayev@gmail.com

Annotation. The study analyzes and studies the existing innovative approaches and methods for developing creativity of students and educators. Despite the extensive work that has been done, such work is carried out fragmentarily and not systematically, the possibilities of applying innovative methods in various disciplines and the possibility of creating their own pedagogical methods by educators have not been fully explored.

Keywords: innovative competencies, development of creativity, continuing training, active learning methods.

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda talabalar va pedagoglarning kreativligini rivojlantirishga oid mavjud innovatsion yondashuvlar va metodlar tahlil qilinadi hamda o‘rganiladi. Amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlarga qaramay, bu kabi ishlar tizimli emas, balki tarqoq holda olib borilgan, shuningdek, turli fanlarda innovatsion metodlarni qo‘llash imkoniyatlari hamda pedagoglar tomonidan o‘zlarining shaxsiy pedagogik metodlarini yaratish imkoniyatlari to‘liq o‘rganilmagan.

Kalit so‘zlar: innovatsion kompetensiyalar, kreativlikni rivojlantirish, uzluksiz malaka oshirish, faol ta’lim metodlari.

Аннотация. В исследовании анализируются и изучаются существующие инновационные подходы и методы развития креативности студентов и преподавателей. Несмотря на проделанную обширную работу, такая работа ведется фрагментарно и не систематически, возможности применения инновационных методов в различных дисциплинах и возможность создания собственных педагогических методик педагогами до конца не изучены.

Ключевые слова: инновационные компетенции, развитие креативности, непрерывная подготовка, активные методы обучения.

KIRISH.

Hozirgi vaqtda oliy ta`lim tizimi iqtisodiyot rivojlanishining zamonaviy tendensiyalariga mos kelishi, ya`ni innovatsion salohiyatga ega yangi kadrlarni tayyorlashni talab etadi. Bunday mutaxassislarni tayyorlash uchun kompetensiyalari talabalarda innovatsion ta`limi va xulq-atvorni rivojlantirishni ta`minlay oladigan pedagog hodim zarur. Talabalarda kreativlik va innovatsion ta`limni rivojlantirish uchun o`quv jarayoniga yangi pedagogik texnologiyalarni,

ISSN 3030-3907

jumladan, zamonaviy ilmiy va ishlab chiqarish texnologiyalarini hisobga oluvchi jadal rivojlanayotgan axborot va raqamli o`qitish usullarini joriy etish lozim bo`ladi.

Shunday qilib, texnik oliy ta`lim muassalarida o`qituvchilari ta`lim jarayonini innovatsion pedagogik texnologiyalar bilan ta`minlashlari kerak, bu esa birinchi navbatda o`qituvchining o`zi ijodkor shaxs bo`lishini va o`z talabalari uchun o`rnak bo`lishini talab qilinadi [1].

Ushbu tadqiqotning dolzarbligi iqtisodiyotning O`zbekiston respublikasida texnologik suverenitetiga erishish uchun import o`rnini bosish sharoitida texnik oliy o`quv yurti talabalarining yuqori darajadagi kompetensiyalarini tayyorlashga bo`lgan ehtiyoji bilan bog`liq.

Shunday qilib, texnik OTM o`qituvchilari talabalarning innovatsion va nostandart fikrlashini rivojlantirishga ko`maklasha olishlari zarur, buning uchun esa o`qituvchining o`zi bunday qobiliyatlarga ega bo`lishi kerak.

P.N. Osipovning ta`kidlashicha, oliy maktab o`qituvchisi kasbiy kompetentlikdan tashqari, umummadaniy, gumanitar kompetentlikka, nostandart fikrlashning shakllanganligini nazarda tutuvchi kreativlikka, innovatsion strategiya va taktikalarni egallaganlikka hamda kasbiy faoliyat mazmuni va sharoitlari o`zgarishiga moslashuvchanlikka ega bo`lishi lozim [2].

L.V. Bolshaninaning fikricha, oliy maktab pedagogi umumiy pedagogik kompetensiyalarga ega bo`lishi, ya`ni asosiy psixologik-pedagogik ko`nikma va bilimlarni, shuningdek, samarali kasbiy-pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun shaxsning umuminsoniy fazilatlari majmuasini egallashi kerak. Faoliyat komponentiga kasbiy-pedagogik ko`nikmalarni egallaganlik va kreativlik kiradi [3,4].

Yuqoridagilardan kelib chiqib talabalar va o`qituvchilarning kreativligini rivojlantirish uchun innovatsion yondashuv va uslublarni tahlil qilish hamda tadqiq etishdan iborat. Ularning o`ziga xosligi universallikda yani har qanday fanda qo`llash mumkinligi, qo`llaniladigan metodologiyada murakkab sxema va algoritmlardan voz kechishga, turli ta`lim darajalari va fanlarida keng aprobatsiyadan o`tkazilishi kerak. Bundan tashqari, talabalar tomonidan murakkab aqliy harakatlarni bajarish zaruriyati yo`qligida hamda talabaning hissiy darajasiga ta`sir qilish va o`z-o`zini rivojlantirishga rag`batlantirish imkoniyat yaratiladi.

Pedagog hodimlarni malaka oshirish dasturlari doirasida o`qituvchilar tomonidan o`z fanlarini o`qitishni faollashtirish orqali innovatsion kompetensiyalarni rivojlantirish modelini yaratishga o`rgatish kerak deb bilamiz. [5]

ISSN 3030-3907

Maqolada bayon etilgan innovatsion usul va yondashuvlar oliy o`quv yurti o`qituvchilari tomonidan talabalarning o`zlashtirishini, materialni tushunishini, ta`limdan mamnunligini oshirish uchun foydalanilishi mumkin. Shuningdek, ular talabalarga o`rganilayotgan texnik qurilmalar konstruksiyasini takomillashtirish bo`yicha yangi g`oyalar yaratish va ularning ekspluatatsion xususiyatlarini oshirish imkonini beradi. Bayon etilgan usullar o`qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish dasturlarida ham qo`llanilishi mumkin.

Tadqiqotchilar asarlarining tahlili shuni ko`rsatadiki, zamonaviy innovatsion metodologiya ko`p hollarda ijodiy qobiliyatga ega o`qituvchilar tomonidan yaratiladi. Masalan, R. Felderning texnika universiteti talabalari bilan o`tkazgan tadqiqoti shuni ko`rsatdiki, talabalar dastlabki o`n daqiqa davomida o`tilgan materialning qariyb 70 foizini eslab qolishgan, ammo dars oxiriga kelib ular shunchalik charchashganki, aytilganlarning atigi yigirma foizini eslay olishgan. Shuning uchun R. Felder o`z tadqiqotlarida o`qitishni faollashtirishdan foydalangan holda, o`tilgan materialni mustahkamlash uchun har 15–20 daqiqada faol tanaffuslar qilish zarurligi haqida xulosaga kelgan [7]. Tadqiqotchilar Richard Felder va Rebekka Brentning hisoblashicha, iqtidorli va motivatsiyalangan talabalarga ijodiy va tanqidiy fikrlashda kurs boshidagiga qaraganda ancha yaxshi natijaga erishishlariga yordam berish uchun, o`qituvchilar o`z misollarida bunday turdagi fikrlashning ishlash prinsipini ko`rsatishlari va seminarlarda talabalarga shunday fikrlashni talab qiladigan topshiriqlarni berishlari kerak [9].

Estoniya muhandislik pedagogikasi markazida professor-o`qituvchilar tarkibi uchun tanqidiy fikrlashni o`rgatish bo`yicha tavsiya etiladigan tamoyillar to`plami ishlab chiqilgan:

- O`quv materiali asosiy konsepsiyalar va umumlashmalarga tayanishi kerak;
- O`quvchilarni qanday qilib birgalikda fikrlashga majbur qilishni o`ylab ko`rish zarur;
- Talabalarning dastlabki bilimlarini hisobga olish; yuqori darajadagi savollar berish (Nima uchun bunday deb o`ylaysiz? Qanday muqobil variantlar bo`lishi mumkin? Agar shunday bo`lsa-chi? Qanday xulosalar chiqarish mumkin? Nima uchun?);
- Talabalarning argumentatsiyasini (dalillarini) vizuallashtirish; talabalarga nimalarni tushunishganini, nimalarga esa aniqlik kiritish talab etilishini tushuntirib berish vazifasini topshirish;
- Tizim va uning elementlari qanday ishlashini, ular bir-biri bilan qanday bog`langanligini va bir-biriga qanday ta`sir qilishini tasvirlab berish vazifasini berish;

ISSN 3030-3907

• Masala yechimiga qanday kelganliklarini tasvirlash vazifasini berish; talabalardan konsepsiya yoki muammolarni o`z so`zlari bilan tushuntirishni so`rash; o`zaro ta`lim usulidan foydalanish;
• Ilmiy maqolalarni tahlil qilish; talabalarga berilgan spetsifikatsiyaga muvofiq mahsulotni loyihalash vazifasini topshirish; talabalardan yechimni tekshirishni va xatolarni topishni so`rash; bir nechta yechim topish;
• Mahsulotga yangi detallarni integratsiya qilishni so`rash;
• Tadqiqot natijalarini tahlil qilish; xulosalarni tahlil qilish va tadqiqotning teskari yo`nalishi bo`yicha harakatlanib, tegishli ma`lumotlarni topish;
• Talabalardan o`rganilayotgan fan/mavzu bilan bog`liq xurofotlar haqida bahslashishni so`rash;
• Mahsulot sifatini baholash mumkin bo`lgan mezonlar ro`yxatini tuzish vazifasini berish;
• O`qituvchi ovoz chiqarib fikrlashi va o`z talabalaridan ham ovoz chiqarib fikrlashni so`rashi kerak;
• Dars oxirida "bir jumladan iborat xulosa" usulidan foydalanish;
• Izchil va sabrli bo`lish: tanqidiy fikrlashni o`rgatish va qo`llab-quvvatlash — bu mashaqqatli jarayon bo`lib, uning natijalarini bosqichma-bosqich ko`rish mumkin[1].

KMTTUda (Qozon milliy tadqiqot texnologiya universiteti) sinovdan o`tkazilayotgan va amalga oshirilayotgan "Muhandislik oliy ta`lim muassalarida o`qituvchilari uchun innovatsion pedagogika" qayta tayyorlash dasturining "Muhandislik pedagogikasidagi innovatsiyalar" fani doirasida o`qituvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni ko`rib chiqish munkin. Masalan, "O`t o`chiruvchilarning dastlabki tayyorgarligi" fanida birinchi kurs talabalari bilan ishlashda, pirotexnika va kompozitsion materiallardan tayyorlangan buyumlar texnologiyasi kafedra pedagoglari ma`ruzalar va laboratoriya ishlarida kichik guruhlar metodi va "ikki karra teskari sinf" (double flipped classroom) usulidan foydalangan. O`qituvchi o`z o`quvchilari uchun muammoli topshiriqlar ishlab chiqqan, chunki "Yong`in xavfsizligi" dasturi rahbari sifatida unga talabalarni rag`batlantirish juda muhimdir. Shuning uchun u talabalar uchun quyidagi topshiriqlar algoritmini ishlab chiqdi. Dastlabki amaliy mashg`ulotlardan birida o`qituvchi talabalar bilan birgalikda mutaxassislikning o`quv rejasini o`rganadi, talabalar kelgusida qanday fanlarni o`rganishlari kerakligini qisqacha so`zlab beradi va ularni asosiy umumta`lim va maxsus fanlarga ajratadi. Maxsus fanlar

[1] Ruutmann T. Engineering Pedagogy as the Basis for Effective Teaching Competencies of Engineering Faculty. *Higher Education in Russia.* 2019; № 28 (12): 123–131.

ISSN 3030-3907

haqida o`qituvchi batafsilroq to`xtaladi. So`ngra amaliy mashg`ulotda talabalarga umumta`lim va maxsus fanlarning ishchi dasturlari annotatsiyalari tarqatiladi va talabalar juftliklarga bo`lingan holda bo`lajak fanlar mazmunini mustaqil o`rganadilar, fizika fanini nima uchun o`rganishlari kerakligini, u qaysi maxsus fanda asqotishi mumkinligini aytib beradilar. Bunday pedagogik usul talabalarga nafaqat mutaxassislik fanlarini, balki umumta`lim fanlarini ham ongli ravishda o`rganish imkonini beradi.

Magistrlarni o`qitishda nostandart yondashuvdan foydalanishiga yana bir qiziqarli misol keltiramiz. O`qituvchi o`z o`quvchilari uchun quyidagi muammoli vazifalarni ishlab chiqqan. **Birinchi topshiriq:** radiatsiya fizikasi qonunlari va termodatchiklar usuli haqidagi bilimlardan foydalangan holda aniq yong`inlar rivojlanishini tahlil qilish. **Ikkinchi topshiriq:** yonish mahsulotlari tarkibining qizdirilayotgan ob`ektga issiqlik o`tishi xarakteriga ta`sirini baholash.

Ekspert baholash usulidan foydalanadigan o`qituvchiga ishlayotgan muhandislar va sanoat vakillari tomonidan qo`llanilayotgan metodlarni takomillashtirish bo`yicha quyidagi tavsiyalar berildi: topshiriqlarni ular bitta yirik loyihaning yoki texnik topshiriqning bir qismi bo`ladigan tarzda shakllantirish. Bu topshiriqlar tarqoq bo`lib qolmasligi uchun bilimlarning loyiha boshidan oxirigacha uzviy o`tishini ta`minlashga xizmat qiladi.

Innovatsion metodologiyani amalga oshirish, shuningdek, Qozon milliy tadqiqot texnologiya universitetining neft va neft-kimyo fakultetida birinchi kursdan to`rtinchi kursgacha bo`lgan talabalar bilan olib borilgan. Birinchi bosqichda (birinchi va ikkinchi kurslar) talabalar TRIZ (ixtirochilik masalalarini hal qilish nazariyasi)ning aqliy hujum, analogiya usuli, intellektual chigal yozdi mashqlari, "365" metodi kabi ba`zi usullarini o`rgandilar va ular ustida ishladilar.

Talabaga **"Nazorat loyihasi" (NL)** beriladi. Bunday o`qitish vositasini yaratish uchun kafedrada saqlanayotgan, o`qituvchi tomonidan avvaldan qayta ishlangan eski talaba loyihalari asos qilib olinadi. O`qituvchi eski talaba loyihalarini olib, ularga atayin xatolar va noaniqliklar kiritadi, zaruriy detallarni tushirib qoldiradi, yig`ish va ta`mirlash texnologiyasining ko`zga ko`rinib turgan buzilishlarini yaratadi, detallarning (tayyorlash texnologiyasi nuqtai nazaridan) ratsional bo`lmagan shakllarini keltiradi va hokazo. Kurs loyihasini **ishli o`yin** shaklida himoya qilishni tashkil etish, NL bilan birga quyida keltirilgan "so`rovnoma varag`i"ni berishni nazarda tutadi ("So`rovnoma varag`i namunasi"ga qarang). Bunda o`qituvchi talabaga unga loyiha rahbari roli berilayotganini tushuntiradi, shuning uchun u chizmani tsexga topshirishdan oldin uni tahlil qilishi va bajarilish sifatini baholashi kerak. Shunday qilib, u ijrochi bo`lgan yosh mutaxassisga xatolar va noaniqliklarni ko`rsatishi hamda tegishli rasmdan

ISSN 3030-3907


foydalangan holda ularni qanday bartaraf etishni, u yoki bu detallarni qanday qilib maqsadga muvofiq takomillashtirishni ko`rsatib berishi lozim.

So`rovnoma varag`i namunasi

1. Nasadkali absorber konstruksiyasini nasadka tanlash, oqimlarni kiritish uchun shtuserlarning joylashishi va tayanch tanlash nuqtai nazaridan tanqidiy tahlil qiling.
2. Nasadkali absorberning ratsional konstruksiyalarini tanqidiy tahlil qiling.
3. Absorbsiya jarayonini boshqarishning qabul qilingan usullarini jarayonni jadallashtirish (bosimni pasaytirish, absorbent sarfini oshirish) va apparat qarshiligini kamaytirish nuqtai nazaridan tanqidiy tahlil qiling.
4. Ushbu absorbsiya jarayoni texnologik sxemasi bo`yicha rasmiylashtirishdagi xatolarni va GOSTlardan foydalanishdagi xatolarni toping.
5. Absorberning yig`ish qismlari jadvali GOSTlarga muvofiq to`g`ri tuzilganligini tekshiring.
6. Nasadkali absorber konstruksiyasining texnologikligini baholang.
7. Nasadkali absorber apparatini yig`ishning texnologikligini baholang.
8. Nasadkali absorber konstruksiyasini mexanik hisob-kitob nuqtai nazaridan yuklamalarni qabul qilish holati bo`yicha baholang.
9. Nasadkali absorber konstruksiya elementlarining ratsionalligini baholang.
10. Ushbu konstruksiyaning kimyoviy texnologiya jarayonlariga muvofiqligi nuqtai nazaridan tanlanishiga xolis baho bering.
11. Nasadkali absorber konstruksiyasining istalmagan effektini aniqlang, uning funksional tahlilini o`tkazing va o`z yechimingizni taklif qiling.

Atamalarning qisqacha izohi:

- **Absorbsiya** — gazsimon aralashma tarkibidagi bir yoki bir necha komponentni suyuq yutuvchi (absorbent) yordamida yutish jarayoni.



1-rasm. Absorbsiya jarayonining texnologik sxemalari. Talaba tomonidan xatolar bilan bajarilgan loyiha.

ISSN 3030-3907

Shaxsning ijodiy sifatlari mavjudligi (o`z-o`zini boshqarish, o`z-o`zini nazorat qilish, yetarlicha murakkab topshiriqlarni ixtiyoriy tanlash va ularni muvaffaqiyatli bajarish), loyihani bajarishdagi mustaqillik, kafedra tomonidan belgilangan muddatlar asosida loyiha ustida ishlashning maromiyligi (ritmi).

"Kimyoviy va tabiiy tolalar hamda buyumlar texnologiyasi" kafedrasi dotsenti Alina I. tomonidan "To`qimachilik buyumlarini loyihalash va texnologiyasi" yo`nalishi talabalari bilan ishlashda intellekt-kartalar va vizuallashtirish usullari qo`llanilgan[2].

"Kimyoviy texnologiyada innovatika" kafedrasi dotsenti Cho`lpon M. tomonidan o`tiladigan fan bo`yicha keyslar yangilandi. Masalan, "Texnik direktor" keysi syujet asosida ishlab chiqilgan. Unda asosiy qahramon — bosh texnolog Nargiz Naxryapovich bo`lib, uning xarakteri injiq, talabchan, e`tiborli va ustunlikka intiluvchi sifatida tasvirlangan. Uning asosiy sub-shaxsi — "tanqidiy ota-ona". Hech kimga ishonmagani uchun xaridlar bilan o`zi shug`ullanishga majbur bo`lib, o`ta charchagan, biroq xaridlarni noprofessional darajada amalga oshirishi braklarga (yaroqsiz mahsulotlarga) olib keladi. Lavozim uchun kurashda o`ziga ko`proq ball to`plashni xohlaydi, shu sababli nomzodlarni "qo`rqitadi" yoki murakkab savollar beradi. O`zini ushbu lavozimga eng munosib nomzod deb hisoblaydi, lekin buni ochiqchasiga bildirmaydi. Shuningdek, sobiq texnik direktor, bosh muhandis, tijorat direktori va boshqa rollar, ularning xarakterlari va qisqacha tarjimai hollari ham bayon qilingan. So`ngra o`qituvchi talabalarga keys syujeti va qahramonlar ishtirokidagi voqealarni taqdim etadi.



[2] Ibatullina A., Khusainova G. *Creativity in Engineering Education*. Kazan: KNRTU Press, 2021.

ISSN 3030-3907

O`qituvchi tomonidan «Intellektual mulkni himoya qilish va patentshunoslik» fani bo`yicha o`tkazilgan mashg`ulotlarda magistrantlar bilan kichik guruhlarda ishlash, aqliy hujum va nazorat savollari metodlaridan foydalanildi. O`quv jarayoniga innovatsiyalarni tatbiq etish davomida talabalarni kuzatib borgan o`qituvchi, amaliy mashg`ulotlarda ushbu faol o`qitish metodlarini joriy etish rejasi muvaffaqiyatli amalga oshgan degan xulosaga keldi.

Jarayonda tarbiyaviy, bilish va o`rgatish funksiyalari bajarildi; talabalarning ma`ruzalarda olgan bilimlari kengaytirildi va chuqurlashtirildi; ijodkorlik va mustaqillik qobiliyatlari rivojlandi; talabalar muammolar muhokamasida erkin ishtirok etdilar. Kuzatuv kartasi ikkinchi marta (fan o`rganib bo`lingach) to`ldirilganda, talabalarda ancha yuqori faollik aniqlandi.

Masofaviy ta`lim davrida kartalar yaratish uchun quyidagi onlayn xizmatlardan foydalanilgan:

1. https://mind-map.ru/;
2. https://mind42.com/;
3. https://www.diagrams.net/.

Biroq, o`qituvchining fikricha, intellekt-kartalarni bevosita darsning o`zida yaratish ancha samaraliroqdir. Bu talabalarni safarbar etadi, guruh ichidagi o`zaro muloqot esa ularni bir-birlari bilan bilim almashish orqali boyitadi.

Intellekt-kartalardan tashqari, o`qituvchi dars mavzusi yoki ko`rib chiqilayotgan muayyan muammo bo`yicha kollaj yaratish texnikasidan ham foydalanadi.

Kollaj — bu kompozitsiya yaratish usuli bo`lib, uning asosiy prinsipi turlicha bo`lgan elementlarni (masalan, gazeta qirqimlari, qog`oz, fotosuratlar, mato bo`laklari va h.k.) bir-birining ustiga qo`yish va umumiy asosga mahkamlashdan iborat.

XULOSA. Talabalar ko`rsatilgan yoshga oid psixologik muammolarni aks ettiruvchi suratlar, gazeta qirqimlarini tanlashlari yoki rasmlar chizishlari lozim. Kollaj biron bir muammoning subyektiv idrok etilishi yoki tushunilishini juda yaxshi aks ettiradi, bu esa aynan psixologiya fanlari uchun juda qadrlidir. Qoidaga ko`ra, kollajlar uy vazifasi sifatida bajariladi, chunki ular qo`shimcha materiallar va vaqt talab qiladi. Dars davomida talabalar o`z kollajlarini albatta taqdim etadilar va mazmunini tushuntirib beradilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахметшин Э.М., Устюжина О.Н. Компетенции педагога современного университета: вызовы инновационной экономики. Сборник научных трудов III Международного форума по педагогическому образованию. Казань, 2017; Т. 1, Ч. 1: 106–115.

ISSN 3030-3907

2. Ахметшин Э.М., Устюжина О.Н. Компетенции педагога современного университета: вызовы инновационной экономики. Сборник научных трудов III Международного форума по педагогическому образованию. Казань, 2017; Т. 1, Ч. 1: 106–115.
3. Хусаинова Г.Р., Галиханов М.Ф. Проблемы и перспективы подготовки преподавателей инженерного вуза к инновационной профессионально-педагогической деятельно- сти через систему дополнительного профессионального образования. Управление устойчивым развитием. 2022; № 3 (40): 104–113.
4. П.Н. Осипова. Педагогика профессионального образования: учебное пособие. Под ред. Казань: Издательство «РАР», 2019.
5. Большанина Л.В. Профессиональная компетентность педагога высшей школы в условиях модернизации российского образования. Концепт. Научно-методический электронный журнал. 2018; № V3. Available at: http://e-koncept.ru/2018/186023
6. Felder R.M., Brent R. Teaching and Learning STEM: A Practical Guide. San Francisco: Jossey-Bass, 2016.
7. Felder R., Brent R. Active learning: an introduction. Available at: https://www.engr.ncsu.edu/wpcontent/uploads/drive/1YB2KK3wLqP3EhXyYdKtE94mBJzc2rc2/Active%20 Learning%20Tutorial.pdf

ISSN 3030-3907

IKKILAMCHI POLIETILEN VA MELAMIN ASOSIDA OLINGAN POLIMER MATERIALINING OQUVCHANLIGINI O‘RGANISH

Mamatova Shahnoza Berdiqobilovna
Qarshi davlat universiteti v.b. dotsenti, PhD
E-mail: shahnoza.mamatova.88@gmail.com
Beknazarova Feruza Abdimurod qizi
Qarshi davlat universiteti magistranti
E-mail: feruzabeknazarov@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu tadqiqot ishida melamin molekulasi bilan ikkilamchi polietilen asosida polimer materiali olingan. Chiqindi polimerlarni ikkilamchi qayta ishlash asosida yangi turdagi polimer materiallari olishda ularning oquvchanligini o‘rganish eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri ekanligi yoritilgan. Ikkilamchi polietilen asosidagi namunalarning oquvchanlik xossasi Davlat standartlari asosida o‘rganilgan va tahlil qilingan. Olingan polimer materialning oquvchanlik ko‘rsatkichi polimerga qo‘shilgan komponentning tabiati, tarkibi va tuzilishiga uzviy bog‘liq ekanligi asoslangan.

Kalit so‘zlar: ikkilamchi polietilen, melamin, oquvchanlik, utilizatsiya, granula, modifikatsiyalash.

Аннотация. В данной исследовательской работе полимерный материал получен на основе молекулы меламина и вторичного полиэтилена. Показано, что при получении новых видов полимерных материалов на основе вторичной переработки полимерных отходов изучение их текучести является одним из основных показателей. Свойства текучести образцов на основе вторичного полиэтилена были изучены и проанализированы в соответствии с государственными стандартами. Обосновано, что показатель текучести полученного полимерного материала непосредственно зависит от природы, состава и структуры компонента, добавленного в полимер.

Ключевые слова: вторичный полиэтилен, меламин, текучесть, утилизация, гранула, модификация.

Abstract. In this research work, a polymer material was obtained based on a melamine molecule and secondary polyethylene. It is shown that, in producing new types of polymer materials through the recycling of polymer waste, studying their flowability is one of the key indicators. The flow properties of samples based on secondary polyethylene were studied and analyzed in accordance with state standards. It is substantiated that the flowability index of the obtained polymer material directly depends on the nature, composition, and structure of the component added to the polymer.

ISSN 3030-3907

Keywords: secondary polyethylene, melamine, flowability, utilization, granule, modification.

KIRISH.

Dunyo bo‘yicha hozirgi kunda polimerlar va ular asosidagi plastmassalardan tayyorlangan materiallardan kundalik turmushda va texnik sohalarda keng doirada foydalanilmoqda. Shu bilan birga kishilik jamiyatining bugungi kundagi talabini qondirish uchun xizmat qiluvchi korxona va ishlab chiqarish sanoatlarining yuksalishi oqibatida ishlab chiqarish sanoati chiqindilari va boshqa turdagi chiqindilar ko‘p miqdorda hosil bo‘lmoqda. Hozirgi kunda chiqindilarni qayta ishlash bo‘yicha bir qator amaliy ishlar olib borilmoqda va ularni qayta ishlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyo bo‘yicha ishlab chiqarish korxonalaridan hosil bo‘layotgan plastmassa chiqindilari va maishiy qattiq chiqindilar salmog‘i 40 % ga yetgan bo‘lsa, xususan O‘zbekistonda qattiq maishiy chiqindilarning yillik hosil bo‘lish hajmining bashorati 14–14,5 million tonnani tashkil etishi ta’kidlanmoqda. Hisob-kitoblarga ko‘ra, yer yuzidagi aholi sonining ko‘payishi 1,5 % bo‘lsa, 2027-2028 yillarga borib polimer materiallar chiqindilari miqdori 16-17 million tonnaga yetishi mumkinligi aytilmoqda.

Polimer chiqindilarini utilizatsiya qilishning eng maqbul usuli ularni ikkilamchi qayta ishlash usulidir. Polimer chiqindilarini ikkilamchi qayta ishlashni amalga oshirish uchun qulay usullarni tanlash, hosil qilingan mahsulotdan turli sohalarda foydalanish imkoniyatini kengaytirishda ularning fizik-mexanik va texnologik xossalari bilan chambarchas bog‘liq bo‘lgan muammolarni hal etish lozim bo‘ladi. Hozirgi kunda turli xil polimer mahsulotlari kimyoviy tadqiqot obyekti sifatida tanlab olingan va ularning xossalarini o‘rganish ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

ADABIYOTLAR TAHLILI.

Hozirgi kunda chiqindi polimerlarni modifikatsiyalash orqali plastifikatsiyalangan materiallar olish ustida ko‘plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Aralash polimer mahsulotlarini ikkilamchi qayta ishlashda polimer materiallarining mexanik xossalari yomonlashishi mumkin, biroq plastifikatorlarni qo‘shish orqali bir xil gomogen massa hosil qilish mumkin [86].

Polimer materiallarni utilizatsiya qilish va uni ikkilamchi qayta ishlash eng dolzarb masalalardan biri bo‘lib, uni ishlab chiqarishga yana qaytarish iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyat kasb etadi [100]. Chiqindi polimerlarni ikkilamchi qayta ishlash asosida yangi turdagi polimer materiallari olishda ularning oquvchanligini o‘rganish eng asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblanadi [71].

ISSN 3030-3907

Hozirgi kunda butun dunyo olimlari tomonidan polietilen chiqindilaridan ikkilamchi polietilen granulalari va ular asosida polimer materiallari olishning xom-ashyoni yig‘ish bosqichidan boshlab, ikkilamchi granula olish texnologiyasigacha, hamda ikkilamchi polietilen granulalaridan polimer materiallar olishgacha bo‘lgan jarayonlar texnologiyasi ishlab chiqilmoqda [104].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishlarini amalga oshirish uchun polietilendan tayyorlangan va xizmat muddatini o‘tagan turli xil chiqindi polietilen plyonkalari saralab olindi. Saralangan polietilen mahsulotlari o‘z tarkibidagi mexanik qo‘shimchalardan birlamchi tozalandi va maydalandi. Maydalangan ikkilamchi polietilen chiqindisi metall zarrachalaridan magnit tutqichlar yordamida tozalandi. So‘ngra issiq suvda bir necha bor yuvib olindi. Yuvib olingan polietilen mahsulotlari sentrafugalanib quritish moslamasida quritildi. Tadqiqot davomida polimer material olish uchun komponentlar 50:1 nisbatida (polietilen chiqindisi:oltingugurt) qo‘l yordamida 20 minut davomida dastlabki aralashtirish jarayoniga jalb qilindi. So‘ngra gomogen aralashma olish uchun 115-140 ^{0}C haroratda 60 ayl/daqiqadagi ekstruderga joylandi. Aralashma bir xil gomogen massani hosil qilishi uchun ekstruderdan 2-3 marta qayta o‘tkazildi. Olingan issiq aralashma sovitildi va granulyatordan o‘tkazildi. Granulalash jarayonida sovuq aralashma silindrga solindi va qizdirildi. Issiq aralashma shakl beruvchi kallakga uzatildi. Kallak orqali o‘tayotgan massa sim shaklida uzluksiz siqib chiqarildi va sovitilib maxsus pichoq yordamida kesib granulaga aylantirildi. Polietilen namunalari granulyatorda 3-5 mm kattalikda qirqib olindi. Turli xil qo‘shimchalar qo‘shib tayyorlangan polimer namunalaridan hosil qilingan granulalar keyingi tadqiqotlarimiz uchun asosiy tadqiqot obyekti bo‘lib xizmat qildi.

Tayyorlangan namunalar asosida polimer materiallar olish uchun asosiy ko‘rsatkichlardan biri hisoblangan oquvchanlik xossasi DavST 11645-2021 asosida amalga oshirildi.

Ikkilamchi polietilen asosidagi polimer material namunalarining oquvchanligini aniqlash. Ikkilamchi polietilen asosidagi polimer namunalarning oquvchanligini aniqlash DavST 11645-2021 «Termoplastlar suyuqlanmasi oquvchanligi ko‘rsatkichini aniqlash usuli» (ISO 1133-1:2011, NEQ) bo‘yicha aniqlandi [47]. Termoplastik polimerlarda oquvchanlik koeffitsiyenti “suyuqlanma indeksi” deb ataluvchi shartli termin bilan yuritiladi. Ushbu usulda yuqori harorat ta’sirida polimer eritmasi oquvchanlik holatiga o‘tadi va bosim ostida maxsus asbobning standart teshigi orqali 10 minut ichida oqib tushadigan grammlar hisobidagi polimer massasini aniqlashga asoslangan. Suyuqlanma indeksini topish uchun g/10 daqiqa orqali ifodalanadi. Tadqiqot uchun olingan ikkilamchi polietilen

ISSN 3030-3907

namunalarining oquvchanligi *Extrusion Plastomer (Model: MP 993A)* qurilmasi yordamida o‘rganildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Tadqiqot uchun namunalar granula shaklida tayyorlandi. Sistema haroratini nazorat qilish nazorat datchigi tomonidan amalga oshirildi. Dastlab qurilmaning harorati datchik yordamida aniqlandi. Bu esa tablodagi harorat ko‘rsatkichi yordamida aniqlandi. Namunalarning oquvchanligini aniqlash uchun dastlab polimer material granulalaridan 3 g miqdorda o‘lchab olindi va u metall ekstruzion kameraga joylandi. Tadqiqot uchun olingan namunalar zichlovchi moslama yordamida mexanik tarzda presslandi va uning ustidan dastlab 325 g li yuklama porshen, so‘ngra 960 g va 875 g li yuklama toshlar qo‘yildi.

Umumiy miqdorda jami 2160 g og‘irlikdagi yuklama joylashtirildi. Ushbu yuklamaning porshen bilan birgalikdagi massasining suyuqlanmaga berayotgan bosimi 0,3 MPa ga tengligi aniqlandi. Ushbu yuklama toshlarni ekstruzion kameradagi namuna ustiga joylashtirish 1 minutdan ko‘p vaqtni talab etmasligi lozim. Aks holda namuna kiritilgan kameraga havoning joylanib qolish ehtimolligi ortadi. Ekstruzion kamera maxsus isitgich bilan o‘ralgan bo‘lib, tajriba-sinov tadqiqotlarini olib borish uchun 300 ºC haroratgacha qurilma isitilishi mumkin. Tadqiqot uchun sinalayotgan namunalarning ishchi harorati 190 ºC harorat etib belgilandi.

Olingan natijalar quyidagi 1-jadvalda umumlashtirildi.

1-jadval

Ikkilamchi polietilen asosidagi polimer materiallari namunalarining oquvchanlik koeffitsiyenti

№	Polimer material tarkibi	Tarkibi (poletilen: modifikator), (g)	DavST-11645 bo‘yicha polimer material namunalarining oquvchanlik koeffitsiyenti 190°C/2,16 kg, (g/10 min)
1	Ikkilamchi polietilen		0,878
2	Ikkilamchi polietilen +melamin	50:1	0,820

Yuqoridagi jadvalda keltirilgan ma’lumotlardan ko‘rinib turibdiki, ikkilamchi polietilenning oquvchanlik koeffitsiyenti 190 ^{0}C harorat va 10 daqiqa davomida 0,878 g ni tashkil etgan bo‘lsa, past bosimli ikkilamchi polietilenning

ISSN 3030-3907

melamin bilan 50:1 nisbatda hosil qilgan materialining 190 ^{0}C harorat va 10 daqiqa davomidagi oquvchanligi 0,820 g ekanligi aniqlandi.

XULOSA VA TAKLIFLAR.

Ushbu olingan natijalardan shunday xulosa qilish mumkinki, toza holatdagi past bosimli ikkilamchi polietilen namunalariga nisbatan komponentlar qo‘shilgan namunalardagi oquvchanlik koeffitsiyentining past bo‘lishligiga asosiy sabab, namuna tarkibiga qo‘shilgan komponentning kimyoviy tabiati, tarkibi, tuzilishiga uzviy bog‘liq ekanligi aniqlandi.

Polimer materialning oquvchanligini o‘rganish orqali qayta ishlashning usulini tanlash mumkin. Tadqiqot natijasi asosida shuni aytishimiz mumkinki, ushbu olingan polimer materiallarni qoliplashning bosimli usulidan foydalanish mumkinligi aytishimiz mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Бекназаров Э.М. Изучение механических свойств при переработке вторичных полимеров //Научный Фокус. – 2024. – Т. 1. – №. 10. – С. 11-16.
2. Супрун Л.В., Романенко С.В., Цыганкова Т.С. Анализ и решение проблемы утилизации и вторичной переработки полиэтилентерефталат (ПЭТ) отходов в городе Томске //Векторы благополучия: экономика и социум.– 2012. – №. 4 (5). – С. 107-112.
3. Ивановский С.К., Бахаева А.Н., Жерякова К.В., Ишкуватова А.Р. К вопросу переработки полимерных композиционных материалов // Технические науки. Успехи современного естествознания. – 2014. – №12. – С. 592-595.
4. Синичук А.Е., Родина Т.А. Использование вторичных гранул полиэтилена в производстве полимерных изделий //Вестник Амурского государственного университета. Серия: Естественные и экономические науки. – 2021. – №. 93. – С. 104-107.
5. ГОСТ 11645-2021. Методы определения показателя текучести расплава термопластов. ISO 1133-1:2011. Москва Российский институт стандартизации 2021. С 8.

ISSN 3030-3907

UDK 664.8:004.8:681.5

SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA REZAVOR MEVALARNI SARALASH VA SHARBAT ISHLAB CHIQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

Aliyev Asilbek Safarali o'g'li

Qarshi Davlat Texnika Universiteti 2 – kurs talabasi

E-mail: aliyevasilbek003@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada rezavor mevalardan ko'p bosqichli sharbat olish jarayonini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda kimyoviy texnologik jarayonlarni kuchaytirish, xususan fermentativ ishlov berish usullarining qo'llanilishi hamda sun'iy intellekt asosida xom ashyoni saralash tizimining samaradorligi tahlil qilingan. Natijalar shuni ko'rsatdiki, integratsiyalashgan yondashuv sharbat hosildorligini oshirish, mahsulot sifatini yaxshilash va ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: rezavor mevalar, sharbat ishlab chiqarish, fermentativ ishlov berish, sun'iy intellekt, texnik ko'rish tizimi, saralash, oziq-ovqat texnologiyasi, innovatsiya, optimallashtirish, sifat

Аннотация. В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования многоступенчатого процесса получения сока из ягодных плодов. В исследовании проанализирована эффективность усиления химико-технологических процессов, в частности применения ферментативной обработки, а также использования систем сортировки сырья на основе искусственного интеллекта. Результаты показали, что интегрированный подход позволяет повысить выход сока, улучшить качество продукции и оптимизировать производственный процесс.

Ключевые слова: ягодные плоды, производство сока, ферментативная обработка, искусственный интеллект, система технического зрения, сортировка, пищевая технология, инновации, оптимизация, качество

Annotation. This article discusses the improvement of a multi-stage juice production process from berry fruits. The study analyzes the effectiveness of enhancing chemical-technological processes, particularly enzymatic treatment, as well as the application of artificial intelligence-based sorting systems. The results show that an integrated approach increases juice yield, improves product quality, and optimizes the overall production process.

Keywords: berry fruits, juice production, enzymatic treatment, artificial intelligence, computer vision, sorting, food technology, innovation, optimization, quality

KIRISH.

ISSN 3030-3907

So‘nggi yillarda oziq-ovqat sanoatida rezavor mevalarni qayta ishlash texnologiyalariga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Qulupnay, malina, qora smorodina kabi rezavor mevalar biologik faol moddalarga boyligi bilan ajralib turadi va inson salomatligi uchun muhim ahamiyatga ega. Shu sababli ularni qayta ishlash orqali yuqori sifatli tabiiy sharbatlar ishlab chiqarish dolzarb ilmiy va amaliy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi [1,2]. Rezavor mevalardan sharbat olish jarayoni o‘ziga xos murakkabliklarga ega bo‘lib, bu mevalarning nozik tuzilishi, yuqori namlik darajasi va hujayra devorlarining zichligi bilan bog‘liq. Ayniqsa, pektin moddalarining mavjudligi sharbat ajralish jarayoniga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi. Pektinlar meva to‘qimalarini mustahkamlaydi va ularni mexanik usullar bilan to‘liq parchalanishini cheklaydi, bu esa sharbat chiqish darajasining pasayishiga olib keladi [3,4].

Shu sababli zamonaviy texnologiyalarda kimyoviy va biotexnologik usullarni qo‘llash orqali sharbat olish jarayonini intensivlashtirish muhim hisoblanadi. Xususan, fermentativ ishlov berish usullari yordamida meva hujayra tuzilishini yumshatish va sharbat ajralishini tezlashtirish imkoniyati mavjud. Bunday yondashuv nafaqat hosildorlikni oshiradi, balki ishlab chiqarish jarayonining umumiy samaradorligini ham yaxshilaydi [5,6].

Bundan tashqari, rezavor mevalarni qayta ishlash jarayonida xom ashyoni dastlabki saralash bosqichi alohida ahamiyat kasb etadi. So‘nggi yillarda sun’iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ushbu jarayonni avtomatlashtirish imkonini bermoqda. Texnik ko‘rish tizimlari yordamida mevalarning rangi, shakli, o‘lchami va sirt holati aniqlanib, ular sifat darajasiga ko‘ra guruhlarga ajratiladi [7,8].

Mazkur maqolaning maqsadi rezavor mevalardan ko‘p bosqichli sharbat olish jarayonini takomillashtirish, kimyoviy texnologik usullarni kuchaytirish hamda sun’iy intellekt asosida saralash tizimlarini integratsiya qilish orqali samarali va optimal yechimlarni ishlab chiqishdan iborat.

METOD (MATERIAL VA USULLAR)

Mazkur tadqiqotda rezavor mevalardan sharbat olish jarayonini takomillashtirish hamda sun’iy intellekt asosida xom ashyoni saralash usullarini integratsiyalash masalalari o‘rganildi. Tadqiqot ob’ekti sifatida biologik faol moddalarga boy rezavor mevalar – qulupnay, malina va qora smorodina tanlandi.

Xom ashyoni tayyorlash


Tajriba uchun tanlangan mevalar dastlab tashqi iflosliklardan tozalandi, yuvildi va sifat ko‘rsatkichlariga ko‘ra saralandi. Saralash jarayonida mevalarning pishganlik darajasi, rang bir xilligi, sirtidagi nuqsonlar va mexanik shikastlanishlar

ISSN 3030-3907

inobatga olindi. Ushbu bosqich keyingi texnologik jarayonlarning samaradorligini ta’minlashda muhim ahamiyat kasb etadi [1,2].

Sun’iy intellekt asosida saralash

Xom ashyoni saralashda texnik ko‘rish tizimi va sun’iy intellekt algoritmlaridan foydalanildi. Kamera yordamida olingan tasvirlar maxsus dasturiy ta’minot orqali qayta ishlanib, mevalarning rang, shakl va o‘lcham xususiyatlari aniqlanadi. Shundan so‘ng mahsulotlar sifatiga ko‘ra guruhlarga ajratiladi (yuqori sifatli, o‘rta sifatli va nuqsonli) [3,4]. Sun’iy intellekt modeli yordamida saralash jarayoni avtomatlashtirilib, inson omilining ta’siri kamaytirildi. Ushbu yondashuv saralash aniqligini oshirish va ishlab chiqarish liniyasining uzluksiz ishlashini ta’minlash imkonini beradi.



1-rasm. Sun’iy intellekt asosida rezavor mevalarni saralash tizimi blok-sxemasi


Mexanik va fermentativ ishlov berish

Saralangan mevalar maydalash uskunasi yordamida pulpa holatiga keltirildi. Keyingi bosqichda pulpa fermentativ ishlov berish jarayoniga yuborildi. Bu jarayonda pektolitik ferment preparatlari qo‘llanilib, meva hujayra devorlari yumshatildi va sharbat ajralish jarayoni tezlashtirildi [5,6]. Fermentativ ishlov berish ma’lum vaqt oralig‘ida va nazorat qilinadigan harorat sharoitida amalga oshirildi. Natijada pulpa tuzilishi bo‘shashib, sharbatni ajratish osonlashdi.

Presslash va filtrlash jarayoni

Fermentativ ishlov berilgan pulpa maxsus press qurilmasi yordamida siqilib, sharbat ajratib olindi. Olingan sharbat tarkibida qolgan qattiq zarrachalarni ajratish uchun filtrlash jarayoni amalga oshirildi. Filtrlash natijasida mahsulotning tiniqligi va sifat ko‘rsatkichlari yaxshilandi [7,8].

ISSN 3030-3907



2-rasm. Rezavor mevalardan sharbat olish texnologik jarayoni sxemasi

Tajriba natijalarini baholash usullari

Olingan sharbat namunalarining sifat ko‘rsatkichlari quyidagi mezonlar asosida baholandi: sharbat chiqish darajasi, rang va tiniqlik, organoleptik xususiyatlar (ta’m, hid), umumiy quruq modda miqdori

Shuningdek, ferment qo‘llanilgan va qo‘llanilmagan holatlar o‘zaro solishtirildi.

1-jadval.

Fermentativ ishlov berishning sharbat hosildorligiga ta’siri

Nusxa №	Ishlov berish turi	Ferment turi	Ferment miqdori, %	Sharbat hosildorligi, %
1	Nazorat (fermentsiz)	–	0	68,5
2	Pektinaza ishlovi	Pektinaza	0,1	72,4
3	Sellyulaza ishlovi	Sellyulaza	0,1	70,8
4	Pektinaza + Sellyulaza	Pektinaza + Sellyulaza	0,1 + 0,1	75,6
5	Kombinatsiyalangan ishlov (0,15% aralashma)	Pektinaza + Sellyulaza	0,15	77,9

NATIJALAR.

Tadqiqot natijalari rezavor mevalardan sharbat olish jarayonida kimyoviy-texnologik va sun’iy intellekt asosidagi saralash usullarini qo‘llash samaradorligini ko‘rsatdi. Tajriba davomida fermentativ ishlov berish va avtomatlashtirilgan saralash tizimlarining ta’siri alohida va birgalikda tahlil qilindi. Avvalo, sun’iy intellekt asosida amalga oshirilgan saralash jarayoni xom ashyoning sifatini sezilarli darajada yaxshilashga xizmat qildi. Saralash natijasida nuqsonli, yetilmagan yoki mexanik shikastlangan mevalar umumiy massadan ajratib olindi. Bu esa keyingi bosqichlarda texnologik jarayonning barqarorligini oshirdi va

ISSN 3030-3907

yakuniy mahsulot sifatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatdi. Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, fermentativ ishlov berilgan xom ashyodan olinadigan sharbat miqdori yuqori bo‘lib, uning organoleptik xususiyatlari ham yaxshilangan. Rang tiniqligi, ta’m va hid ko‘rsatkichlari bo‘yicha ham ijobiy natijalar qayd etildi.

2-jadval.

Ferment qo‘llanilganda va qo‘llanilmaganda sharbat chiqish ko‘rsatkichlari taqqoslanishi



Shuningdek, sun’iy intellekt asosida saralash va fermentativ ishlov berish jarayonlarini birgalikda qo‘llash eng yuqori samaradorlikni ta’minladi. Bunday yondashuv quyidagi natijalarga olib keldi:

- sharbat chiqish miqdori ortdi
- sifatsiz xom ashyo ulushi kamaydi
- ishlab chiqarish jarayonining barqarorligi oshdi
- mahsulot sifati yaxshilandi

Natijalar tahlili shuni ko‘rsatdiki, texnologik jarayonlarning har bir bosqichini optimallashtirish orqali umumiy samaradorlikni oshirish mumkin. Ayniqsa, dastlabki saralash bosqichining to‘g‘ri tashkil etilishi keyingi kimyoviy va mexanik jarayonlarga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

MUHOKAMA

Olingan natijalar shuni ko‘rsatdiki, rezavor mevalardan sharbat ishlab chiqarishda kimyoviy-texnologik jarayonlarni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, fermentativ ishlov berish jarayonining qo‘llanilishi meva to‘qimalarining strukturaviy o‘zgarishiga olib kelib, sharbat ajralishini sezilarli

ISSN 3030-3907

darajada yaxshilaydi. Bu esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish bilan birga, texnologik yo‘qotishlarni kamaytiradi.

Shuningdek, natijalar shuni ko‘rsatdiki, texnologik jarayonlarning samaradorligi faqat bitta bosqichga emas, balki butun tizimning kompleks tashkil etilishiga bog‘liq. Xom ashyoni saralashdan boshlab, fermentatsiya, presslash va filtrlash bosqichlarigacha bo‘lgan barcha jarayonlar o‘zaro uyg‘un ishlashi zarur [7,8].

XULOSA

Mazkur tadqiqot natijalari asosida quyidagi xulosalarga kelindi:

- Rezavor mevalardan sharbat olishda fermentativ ishlov berish texnologiyasi sharbat chiqish miqdorini sezilarli darajada oshiradi
- Sun’iy intellekt asosida saralash tizimi xom ashyo sifatini yaxshilash va nuqsonli mahsulotlarni kamaytirishga xizmat qiladi
- Integratsiyalashgan yondashuv (saralash + fermentatsiya) ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi
- Texnologik jarayonlarni optimallashtirish orqali energiya va vaqt sarfini kamaytirish mumkin
- Yakuniy mahsulotning sifat ko‘rsatkichlari (rang, ta’m, tiniqlik) yaxshilanadi

Kelgusida turli rezavor mevalar, har xil texnologik rejimlar va zamonaviy sun’iy intellekt modellari asosida tadqiqotlarni kengaytirish maqsadga muvofiq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Uljaev E., Abdixalilov O‘.U. Sun’iy intellekt asosida meva saralash tizimlarini takomillashtirish: mexanik va optik usullar tahlili. *The Role and Prospects of Modeling in the Processes of Digital Transformation*: Xalqaro ilmiy va ilmiy-texnik konferensiya materiallari, 1-qism, Namangan: Namangan davlat texnika universiteti, 2025, 4–5-dekabr.
2. Uljaev E., Abdixalilov U., Suleymanova S., Tadjitdinov G. *Analysis of Methods and Means of Fruit Sorting, Selection of a Rational Method of Fruit Sorting.* International Journal of Mechatronics and Applied Mechanics, 2025, Issue 22, Vol. II, pp. 233–241.
3. Huang M. va boshqalar (2018). Qishloq xo‘jaligida kompyuter ko‘rish texnologiyalari.
4. Uljaev E., Abdixalilov O‘.U. Meva va sabzavotlarni saralashda mexanik, optik va sun’iy intellektga asoslangan texnologiyalar tahlili. Zamonaviy dunyoda tabiiy fanlar: nazariy va amaliy izlanishlar, respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 15-son, 2025 yil, 134–140-betlar.
5. Kumar R., Singh A. (2020). Oziq-ovqat sanoatida fermentlardan foydalanish.

ISSN 3030-3907

6. Abdixalilov O‘.U. Sun’iy intellekt elementlari va rang sensorlari asosidagi avtomatik mevalarni saralash. Ilm-fan va innovatsiya, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, 63-son, 2024 yil, 71–84-betlar.
7. Patel K. va boshqalar (2022). Qishloq xo‘jaligida mashinaviy o‘rganish usullari.
9. Негматов С.С., Лисенко А.М., Ибадуллаев А. К вопросу решения проблемы по разработке технологии получения тонкодисперсных ингре-диентов из местного минерального сырья для электротехнической, резино-технической и других отраслей промышленности. Композиционные мате-риалы, 2003. но 2. пп. 43-44.
10. Тешабаева Э.У., Ибадуллаев А., Жураев В.Н. Создание и применение ингредиентов на основе местных сырьевых ресурсов и отходов производств в эластомерных композиционных материалах// Ж. Химия и химическая технология, 2016, пп. 66-71.
11. Тешабаева Э.У., Ибадуллаев А., Жураев В.Н. Создание и примене-ние ингредиентов на основе местных сырьевых ресурсов и отходов произ-водств в эластомерных композиционных материалах//Ж.Химия и химиче-ская технология, 2016, с. 66-71.
12. Sherali Mamayev, Axmadjan Ibadullayev, Elmira Teshabayeva, Mukhsinjon Tursunaliev and Muxammad-Ayubxon Ikromov. Creation of elas-tomer-based

ISSN 3030-3907

compositions with special characteristics for the wheel-engine block of thermal locomotives.DOI: https://doi.org/10.1051/e3sconf/202345204013.
13. Ibadullaev, A., Teshabayeva, E., Kakharov, B., & Babaev, A. (2022, June). Elastomeric materials based on new ingredients. In AIP Conference Pro-ceedings (Vol. 2432, No. 1, p. 030021). AIP Publishing LLC.https://doi.org/10.1063/5.0089726.
14. A. Ibadullaev, D. Nigmatova and E. Teshabaeva. Radiation Re-sistance of Filled Elastomer Compositions. Materials of the III International Scientific and Practical Conference "Actual problems of the fuel and energy complex, mining, production, transmission, processing and environmental pro-tection" (APEC2021) were published in the IOP journal. Conference Series: Earth and Environmental Science. https://iopscience.iop.org/issue/1755-1315/808/1.

ISSN 3030-3907

AMINOALDEGID BIRIKMALAR ASOSIDA ADGEZION XUSUSIYATLI MODDALAR SINTEZI VA ULARNING SPEKTRAL TAHLILI

B.G. Ramazonov

Buxoro davlat texnika universiteti kimyo muhandisligi kafedrasi dotsenti,

E-mail: ramazonov_baxrom@bstu.uz

A.A. Zaripov

Buxoro davlat texnika universiteti kimyo muhandisligi kafedrasi doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada modifikatsiyalangan karbamid-formaldegid oligomerlari, ularning qo‘llanilishi, global ishlab chiqarish hajmi va tegishli muammolar kabi yopishqoq birikmalarni ishlab chiqarishning dolzarbligi o‘rganiladi. Modifikatsiyalangan karbamid-formaldegid va melamin-formaldegid oligomerlari, ularning sintez sharoitlari, ta'sir qiluvchi omillar va reaksiya tenglamalari keltirilgan. Formaldegid o‘z ichiga olgan qatronlardan erkin formaldegid chiqindilari va ularning sabablari, shuningdek, formaldegid chiqindilarini kamaytirish bo‘yicha tadqiqotlar muhokama qilinadi. Sintezlangan modifikatsiyalangan karbamid-formaldegid va melamin-formaldegid oligomerlarining tarkibi IQ - spektroskopik tahlil yordamida tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: karbamid, formaldegid, akril kislotasi, melamin, metilol guruhlari, esterifikatsiya, erkin formaldegid emissiyasi, adgeziya, qatron, yog`och qipiqli plitalar ishlab chiqarish, IQ - spektroskopik tahlil.

Abstract. This article reviews the relevance of the production of adhesive compounds such as modified urea-formaldehyde oligomers, their applications, global production volume and related problems. Modified urea-formaldehyde and melamine-formaldehyde oligomers, their synthesis conditions, influencing factors and reaction equations are presented. Free formaldehyde emissions from formaldehyde-containing resins and their causes, as well as studies on reducing formaldehyde emissions are discussed. The composition of the synthesized modified urea-formaldehyde and melamine-formaldehyde oligomers is analyzed using IR - spectroscopic analysis.

Keywords: urea, formaldehyde, acrylic acid, melamine, methylol groups, esterification, free formaldehyde emission, adhesion, resin, particleboard production, IR spectroscopic analysis.

Аннотация. В статье рассматривается актуальность производства клеевых соединений, таких как модифицированные олигомеры карбамидоформальдегида, их применение, мировые объемы производства и связанные с этим проблемы. Приведены модифицированные олигомеры карбамид-формальдегида и меламин-формальдегида, условия их синтеза,

ISSN 3030-3907

влияющие факторы и уравнения реакций. Обсуждаются выбросы свободного формальдегида из смол, содержащих формальдегид, и их причины, а также исследования по снижению выбросов формальдегида. Состав синтезированных модифицированных олигомеров карбамид-формальдегида и меламин-формальдегида анализируется с помощью ИК-спектроскопического анализа.

Ключевые слова: мочевина, формальдегид, акриловая кислота, меламин, метилольные группы, этерификация, эмиссия свободного формальдегида, адгезия, смола, производство древесно - опилочных плит, ИК-спектроскопический анализ.

KIRISH.

So‘nggi yillarda aminoaldegid asosidagi oligomerlarni ishlab chiqarishga bo‘lgan talabning ortishi, ularning yuqori fizik va mexanik xususiyatlari, shuningdek, bir qator texnologik xususiyatlari, jumladan, termal barqarorlik va yuqori yopishqoqlik xususiyatlari tufayli, ushbu turdagi birikmalarning qo‘llanilishini yanada kengaytirishga olib keldi. Bunday birikmalarga misollar sifatida yog‘och presslangan materiallar, to‘qimachilik, plastmassalarni ommaviy ishlab chiqarish va boshqa ko‘plab sohalarni keltirish mumkin [1,2]. DSP ishlab chiqarishda formaldegidning ikkita manbai mavjud: yopishtiruvchi moddada mavjud bo‘lishi mumkin bo‘lgan formaldegid va yog‘ochning o‘zida mavjud bo‘lgan formaldegid. Formaldegid chiqindilarini formaldegid bog‘lovchilaridan foydalanish yoki yopishqoq moddadagi erkin formaldegid miqdorini va qotish paytida va undan keyin formaldegidni bog‘lovchi funktsional guruhlar miqdorini kamaytirish orqali kamaytirish mumkin[3-7].


Yuqorida ko‘rib chiqilgan adabiyotlardan xulosa qilish mumkinki, karbamid-formaldegid va melamin-formaldegid qatronlariga asoslangan oligomerlarda formaldegid chiqindilarini kamaytirish, qo‘llanilishidan qat'i nazar, dolzarb masala hisoblanadi. Shuning uchun bizning tadqiqotimiz ushbu oligomerdagi formaldegid chiqindilarini uning fizik va mexanik xususiyatlarini saqlab qolgan holda kamaytirishga qaratilgan.

MATERIALLAR VA USULLAR. DSP ishlab chiqarishda ishlatiladigan qatronlar ishlab chiqarish uchun biz quyidagi reagentlardan foydalandik: karbamid, 37±1% formaldegid eritmasi, akril kislota, melamin, 1 N natriy gidroksid eritmasi va indikatorlar. Erkin formaldegid miqdori kamaygan qatronlarni sintez qilish uchun formaldegid va karbamid 2,5:1 molyar nisbatda, formaldegid va melamin esa 4:1 molyar nisbatda ishlatilgan. Aralashtirish paytida harorat 55-60°C dan oshmasligiga va eritmaning pH qiymati taxminan 7,5-8 ga teng bo‘lishiga e'tibor berish kerak. Birinchi aralashmadagi karbamid va ikkinchi eritmadagi melamin


ISSN 3030-3907

to‘liq eriganidan va eritma rangi oqdan tiniq rangga o‘zgarganda, ikkala aralashmaga ham natriy akrilat (akril kislotasi) qo‘shiladi, boshlang‘ich materiallarning mol sonining 0,5% miqdorida aralashtiriladi. Akril kislotasini to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘shish uning polimerlanishiga olib kelganligi sababli, uni qatronga shu tarzda qo‘shish amaliy deb topdik. Shu tarzda, qatronlar akrilat tuzi qo‘shilgandan 15-20 daqiqa o‘tgach tayyor bo‘ladi.

DSP ishlab chiqarishda ishlatiladigan eng muhim yopishtiruvchi moddalar karbamid yoki melaminning formaldegid bilan kondensatsiya mahsulotlari, shuningdek, turli modifikatorlar qo‘shilishi natijasida hosil bo‘lgan qatronlardir. Karbamid va melaminning formaldegid bilan o‘zaro ta'siri yaxshi o‘rganilgan va bu jarayon davomida sodir bo‘ladigan reaksiyalarni quyidagicha ifodalash mumkin:




Kondensatsiya mahsulotlari mono-, di-, tri- va tetrametilol karbamidlardir. Melaminning formaldegid bilan reaksiyasi yuqorida tavsiflanganidek, metilol funktsional guruhini o‘z ichiga olgan hosilani ham hosil qiladi:




ISSN 3030-3907

Yuqorida aytib o‘tilganidek, asosiy muammo tayyor qatronlardan erkin formaldegidning ajralib chiqishidir. Bu esa ushbu qatronlardan foydalanadigan sanoat tarmoqlarida tayyor mahsulotlar uchun erkin formaldegid chiqindilari talablariga rioya qilinmasligiga olib keladi. Qatronlar yoki tayyor mahsulotlardan erkin formaldegidning ajralib chiqishi reaksiyalar natijasida hosil bo‘lgan birikmalarda mavjud bo‘lgan metilol va metilen efir guruhlarining beqarorligi, shuningdek, harorat ta'sirida erkin formaldegidning ajralib chiqishi natijasida yuzaga keladi.

Ma'lum usullar bilan sintezlangan karbamid-formaldegid va melamin-formaldegiddan erkin formaldegid chiqindilarini kamaytirish uchun [8-10], modifikatorni kiritish orqali hosil bo‘lgan mahsulotlarda erkin formaldegidning ajralib chiqishiga olib keladigan metilol guruhlari miqdorini kamaytirish uchun modifikator sifatida akril kislotasidan foydalanish tavsiya etiladi.



Melamin formaldegidning akril kislota bilan reaksiyasi ham quyidagicha davom etadi:




Biz sintez qilgan modifikatsiyalangan qatronlar zichligi 1,42 dan 1,51 g/sm³ gacha bo‘lgan qalin, shaffof, oquvchan suyuqliklardir.

Ta'kidlanganidek, biz sintez qilgan moddalar DSP ishlab chiqarishda yopishtiruvchi sifatida foydalanish uchun mo‘ljallangan va bu yopishtiruvchi moddalar uchun muhim talablardan biri ularning termal barqarorligidir. Ma'lumki, DSP ishlab chiqarish jarayonida yog‘och qirindilari yopishtiruvchi bilan aralashtiriladi va ma'lum bir standart qoliplarda sovuq yoki issiq pressda ma'lum vaqt davomida quritiladi. Buning sababi, haroratning ta'siri yopishtiruvchi va tegib turgan sirt o‘rtasidagi o‘zaro aloqa ehtimolini oshiradi.

Olingan natijalar va ularning muhokamasi. Sintez qilingan modifikatsiyalangan qatronlarning kimyoviy jihatdan tarkibini tahlil qilish,

ISSN 3030-3907

boshlang`ich moddalar tarkibidagi funksional guruhlarning reaksiya sodir bo`lgandan keyingi holatini aniqlash, ya`ni reagentlar o`rtasida kimyoviy reaksiya sodir bo`lganligini tasdiqlash maqsadida akril kislota bilan modifikasiyalangan karbamid formaldegid va melamin formaldegidlarning IQ – spektroskopik tahlillari amalga oshirildi [10]. Unga ko`ra ikkala namuna spektrlarida ham boshlang`ich moddalar tarkibida mavjud bo`lmagan metilol guruhlarining (1265,91 sm^{-1}) modifikator akril kislota karboksil (-COOH) guruhi bilan o`zaro ta`sirlashib peptid bog`i (1647,25) hosil bo`lganligini xarakterlovchi cho`qqining mavjudligi reaksiya uchun olingan moddalar o`rtasida kimyoviy reaksiya sodir bo`lganligidan dalolat beradi [11,12].



1-rasm. Akril kislota bilan modifikasiyalangan karbamid formaldegidning IQ – spektri.

IQ-spektroskopik tahlil natijalari asosida shuni aytish mumkinki, formaldegid asosidagi oligomerlarni turli sohalarda qo`llashdagi asosiy muammolardan biri bo`lgan mahsulot tarkibidan erkin formaldegid emissiyasini oligomer tarkibiga modifikator sifatida akril kislotasining kiritilishi hisobiga qisman bartaraf etish, kamaytirishga erishildi. Ya`ni modifikator sfatida kiritilgan akril kislotasi qatronni qo`llashning keying bosqichlarida uning tarkibidan erkin formaldegid ajralishiga olib keluvchi metilol guruhlarini qisman bloklashi, yoki boshqacha qilib aytganda ular bilan ta`sirlashib murakkab efir guruhi hosil qilishi qatron tarkibining IQ – spektral tahlilidan ko`rishimiz mumkin.

Sintez qilingan oligomerlar tarkibida **erkin formaldegid miqdori**ni aniqlash uchun quyidagi formula asosida hisoblashlar olib bordik [13, 14]

$$x_1 = \frac{0.003[V_0 - (V \pm x_2)]K \cdot 100}{bx}$$

bunda: 0,003 – 1 ml 0,1 N li NaOH eritmasiga mos keluvchi formaldegid miqdori;
V_0 – nazorat tajribada titrlashga sarflangan 0,1 N li NaOH eritmasi hajmi, ml;

ISSN 3030-3907

V – sinov tajribada eritmani titrlashga sarflangan 0,1 N li NaOH eritmasi hajmi, ml;

X_2 – qatronning ishqoriyligi tuzatmasi, ml;

K - 0,1 N li NaOH eritmasining tuzatish koeffitsienti;

b- qatron massasi, g;

x – quruq qoldiq, %

Ushbu formula asosida olib borilgan hisoblashlar asosida qatron tarkibidagi erkin formaldegidning miqdorini aniqlash bo`yicha olingan natijalarni 1-Jadvalda keltirildi.

1-Jadval

Oligomerlar tarkibida erkin formaldegid miqdori

qatron	Qatron tarkibida erkin formaldegid miqdori, %	Erkin formaldegidning qatron tarkibida ruxsat etilgan konsentrasiyasi, % (ГОСТ 16704-71)
Nazorat yelim	0,4	0,5 gacha
Karbamid formaldegid	0,56	0,5 gacha
AK bilan modifikasiyalangan KF	0,3	0,5 gacha
AK bilan modifikasiyalangan MF	0,34	0,5 gacha

Sintez qilingan oligomerlarimiz tarkibida erkin formaldegid miqdorini aniqlash bo`yicha olingan natijalar oligomer tarkibida erkin formaldegid miqdorining ruzsat etilgan normadan past ekanligini va ushbu qatronlarni yog`och qipiqli pressmateriallar ishlab chiqarishda qo`llash mumkinligini ko`rsatdi.

ADABIYOTLAR

1. Baharuddin, M. N. M., et al. "Development and performance of particleboard from various types of organic waste and adhesives: A review." International Journal of Adhesion and Adhesives 124 (2023): 103378.

2. Frihart C. R. Introduction to special issue: wood adhesives: past, present, and future //Forest Products Journal. – 2015. – Т. 65. – №. 1-2. – С. 4-8.

3. Owodunni, Amina Adedoja, et al. "Adhesive application on particleboard from natural fibers: A review."Polymer Composites 41.11 (2020): 4448-4460.

4. Mo X. et al. Research progress of wood-based panels made of thermoplastics as wood adhesives //Polymers. – 2021. – Т. 14. – №. 1. – С. 98.

5. Sandberg D. Additives in wood products—today and future development //Environmental impacts of traditional and innovative forest-based Bioproducts. – Singapore : Springer Singapore, 2016. – С. 105-172.

ISSN 3030-3907

6. Dunky M. Adhesives in the wood industry //Handbook of adhesive technology. – CRC Press, 2017. – С. 511-574.
7. Mantanis G. I. et al. Adhesive systems used in the European particleboard, MDF and OSB industries //Wood material science & engineering. – 2018. – Т. 13. – №. 2. – С. 104-116.
8. Paiva N. T. et al. Study of influence of synthesis conditions on properties of melamine–urea formaldehyde resins //International Wood Products Journal. – 2012. – Т. 3. – №. 1. – С. 51-57.
9. No B. Y., Kim M. G. Syntheses and properties of low-level melamine-modified urea–melamine–formaldehyde resins //Journal of Applied Polymer Science. – 2004. – Т. 93. – №. 6. – С. 2559-2569.
10. Тарасевич Б. Н. ИК спектры основных классов органических соединений //Справочные материалы. М: МГУ. – 2012.
11. Risholm-Sundman M. et al. Formaldehyde emission—comparison of different standard methods //Atmospheric Environment. – 2007. – Т. 41. – №. 15. – С. 3193-3202.
12. М.И.Смирнова «Сборник технических условий на клеящие материалы», Издательство «Химия»-1975. С.465
13. Risholm-Sundman M. et al. Formaldehyde emission—comparison of different standard methods //Atmospheric Environment. – 2007. – Т. 41. – №. 15. – С. 3193-3202.
14. М.И.Смирнова «Сборник технических условий на клеящие материалы», Издательство «Химия»-1975. С.465

ISSN 3030-3907

SUV SARFINI ANIQLASHDA RADAR TEXNOLOGIYALARINING IMKONIYATLARINI BAHOLASH

Arifjonov Alisher Abdullayevich
Mustaqil izlanuvchi, "O'zbekiston Milliy Metrologiya Instituti" Davlat Muassasasi
Azizov Xurshid Abduhamidovich
Mustaqil izlanuvchi, "O'zbekiston Milliy Metrologiya Instituti" Davlat Muassasasi
To'laganov Fathullo Tohirjonovich
Mustaqil izlanuvchi, "O'zbekiston Milliy Metrologiya Instituti" Davlat Muassasasi
Otaxonov Maqsud Yusufovich
Laboratoriya mudiri "Smart Solutions System" MCHJ
Zokirov Ilhomjon Bahtiyor o'g'li
Tayanch doktorant "TIQXMMI" Milliy tadqiqot universiteti
Email: ilhomjonzokirov1@gamil.com

Annotatsiya. Mazkur tadqiqotda ochiq oqimlarda suv sarfini kontaktsiz aniqlash imkoniyatlari radar texnologiyasi asosida baholandi. Tadqiqot obyekti sifatida Bo'zsuv irrigatsiya tizimi boshqarmasi tasarrufidagi Kalkauz kanali bosh inshooti tanlanib, dala o'lchovlari SonTek RS5 Doppler qurilmasi hamda radar oqim o'lchagich yordamida ikki bosqichda amalga oshirildi. Birinchi bosqichda SonTek RS5 orqali kanal kesimi bo'yicha oqimning gidravlik elementlari va kesim bo'yicha tezlik maydoni aniqlanib, "tezlik–maydon" usuli asosida suv sarfi Q_d=28.5 m^3/s hisoblandi. Ikkinchi bosqichda radar qurilmasi yordamida o'lchangan suv sathi va suv sirtidagi tezlik qiymatlari asosida, sirt tezligini o'rtacha tezlikka keltirish uchun tuzatish koeffitsientidan foydalangan holda suv sarfi Q_s=29.1 m^3/s aniqlandi. Natijalar Doppler va radar asosida hisoblangan sarflar o'rtasida 0.6 m^3/s farq mavjudligini, ya'ni Doppler natijasiga nisbatan taxminan 2.1% og'ish kuzatilganini ko'rsatdi. Olingan natijalar radar asosida sarfni uzluksiz va masofadan monitoring qilish imkoniyati mavjudligini, biroq o'rnatish geometriyasi, kesim barqarorligi hamda α koeffitsientni kalibrlash kabi omillar o'lchov aniqligida hal qiluvchi rol o'ynashini tasdiqlaydi.

Kalit sozlar: Radar oqim o'lchagich; SonTek RS5; Doppler; kontaktsiz o'lchash; sirt tezligi; suv sathi; tezlik–maydon usuli; suv sarfi; irrigatsiya kanali.

Аннотация. В данной работе оценены возможности бесконтактного определения расхода воды в открытых руслах на основе радиолокационной технологии. В качестве объекта исследования выбран головной гидроузел канала Калькауз (система орошения Бозсув). Полевые измерения выполнены

ISSN 3030-3907

в два этапа с применением доплеровского прибора SonTek RS5 и радиолокационного расходомера. На первом этапе по данным SonTek RS5 определены основные гидравлические элементы потока и рассчитан расход по методу «скорость–площадь», который составил Q_d=28.5 м^3/с. На втором этапе расход определён по измеренным радаром уровня воды и поверхностной скорости с использованием коэффициента перехода от поверхностной скорости к средней; получено значение Q_s=29.1 м^3/с при площади живого сечения ω=29.2 м^2. Сопоставление результатов показало расхождение 0.6 м^3/с, что соответствует примерно 2.1% относительно доплеровского значения. Полученные результаты подтверждают перспективность бесконтактных измерений для повышения безопасности работ, снижения влияния человеческого фактора и организации дистанционной передачи данных в системах мониторинга водоподачи.

Ключевые слова: Радиолокационный расходомер; SonTek RS5; доплеровский метод; бесконтактное измерение; поверхностная скорость; уровень воды; метод «скорость–площадь»; расход воды; оросительный канал.

Abstract. This study evaluates the feasibility of non-contact discharge measurement in open channels using radar-based technology. The headworks of the Kalkauz Canal (Bozsuv irrigation system) was selected as the study site. Field measurements were carried out in two stages using a SonTek RS5 Doppler instrument and a radar flowmeter. In the first stage, key hydraulic flow parameters were derived from SonTek RS5 measurements, and discharge was computed using the velocity–area method, yielding Q_d=28.5 m^3/s. In the second stage, discharge was estimated from radar-measured water level and surface velocity, applying a conversion coefficient from surface to mean velocity; the obtained value was Q_s=29.1 m^3/s with a wetted cross-sectional area of ω=29.2 m^2. The comparison indicates a difference of 0.6 m^3/s, corresponding to approximately 2.1% relative to the Doppler-based result. The findings demonstrate the potential of non-contact monitoring to improve operational safety, reduce human-factor influence, and enable remote data transmission for real-time flow monitoring in irrigation networks.

Keywords: Radar flowmeter; SonTek RS5; Doppler method; non-contact measurement; surface velocity; water level; velocity–area method; discharge; irrigation canal.

KIRISH.

Ochiq oqimlarda (daryo o‘zanlari, irrigatsiya va kollektor-drenaj kanallari) suv sarfini aniq va uzluksiz o‘lchash suv resurslarini boshqarish, suv taqsimoti


ISSN 3030-3907

hisobi, gidrotexnik inshootlar ekspluatatsiyasi hamda toshqin va kam suv davrlarida tezkor qaror qabul qilish uchun muhimdir. An'anaviy gidrometrik usullar ko'pincha sensorni suv oqimiga tushirishni talab qiladi. Amaliy sharoitda esa yuqori oqim tezligi, loyqa-sediment, muzlash, suzuvchi chiqindilar va xavfsizlik omillari o'lchash jarayonini murakkablashtiradi [1,2]. Shu sababli oxirgi yillarda suv sarfini kontaktsiz aniqlashga xizmat qiladigan texnologiyalarga ehtiyoj ortib bormoqda. Shu yo'nalishda istiqbolli yechimlardan biri-radar asosidagi non-contact gidrometriyadir. Radar sensori suv yuzasiga mikroto'lqinlarni nurlantirib, qaytgan signalning Doppler siljishi orqali sirt tezligini aniqlaydi; suv sathi esa FMCW modulyatsiyasi asosida o'lchanishi mumkin. Keyingi bosqichda sirt tezligi va suv sathi, kesim maydoni ma'lumotlari "tezlik–maydon" konsepsiyasi orqali birlashtirilib, suv sarfi hisoblanadi. Radar texnologiyasi, ayniqsa, yuqori va o'rta suv davrlarida xavfsiz, uzluksiz hamda masofadan monitoring qilish imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Radar gidrometriyasi bo'yicha yirik sharh maqolada radar ma'lumotini yig'ishdan tortib signalni qayta ishlash, Doppler spektrini baholash va sarfni hisoblashgacha bo'lgan ish jarayoni hamda kelajakdagi muammolar tizimli tahlil qilingan [4]. Radar orqali sarf aniqlashning amaliy samaradorligi USGS tajribalarida ham ko'rsatilgan: San Joaquin daryosida radar asosida kontaktsiz sarf o'lchash tizimi baholangan va radar o'lchovlarini kesim yondashuvi bilan integratsiya qilish imkoniyati yoritilgan. Shuningdek, radarlar yordamida sarfni kontaktsiz monitoring qilish bo'yicha klassik ishda bir nechta turdagi radarlar ko'rib chiqilib, non-contact usullarni qo'llashdagi afzallik va cheklovlar baholangan. Keng miqyosli amaliy tekshiruv sifatida esa USGSning 10 ta gidropostida radarlar yordamida sirt tezligi va sarfni baholash bo'yicha tadqiqot muhim natijalar bergan [3,5,6,7].

Biroq radar asosida sarf aniqlashda metrologik jihatdan muhim bo'lgan bir qator masalalar mavjud: (i) o'rnatish geometriyasi (burchak, balandlik, qamrov zonasi), (ii) sirt tezligidan kesim bo'yicha o'rtacha tezlikka o'tish (α koeffitsient), (iii) kesim barqarorligi va cho'kindi-to'planish jarayonlari, (iv) shamol va to'lqinlanishning signalga ta'siri, (v) kalibrlash/verifikatsiya tartibi. Shu sababli maqolada radar yordamida suv sarfini aniqlash metodologiyasini amaliy sharoitlarga mos holda bayon qilish, o'lchash nuqtasini tanlash qoidalarini asoslash va hisoblash bosqichlarini tizimli ko'rsatish dolzarb hisoblanadi. Bundan tashqari, mavzuning ilmiy maydondagi shakllangan yo'nalishlarini ko'rsatish uchun VOSviewer dasturida bibliometrik tahlil ham amalga oshirildi (1-rasm). Mualliflar hamkorligi (co-authorship) tarmog'i bir nechta klasterlarni aniqlab, radar gidrometriyasi bo'yicha tadqiqotlar ko'proq ayrim ilmiy "markazlar" atrofida jamlanganini va hamkorlik aloqalari kuchli ekanini ko'rsatadi. Bu esa

ISSN 3030-3907

yo‘nalish tez rivojlanayotganini, shu bilan birga metodik yondashuvlarni (o‘rnatish shartlari, α kalibrlash, noaniqlik komponentlari) yagona talablarga yaqinlashtirish zarur ekanini tasdiqlaydi [8,9,10].




1-rasm. Radar asosida suv sarfini aniqlash mavzusidagi adabiyotlar bo‘yicha mualliflar hamkorligi (co-authorship) tarmog‘i (VOSviewer).

Yuqoridagilardan kelib chiqib, ushbu maqolaning maqsadi-radar texnologiyalariga tayangan holda ochiq oqimlarda suv sathi va sirt tezligini kontaktsiz o‘lchash, ularni kesim yondashuvi orqali birlashtirib suv sarfini hisoblash hamda amaliy o‘rnatish/kalibrlash bo‘yicha tavsiyalarni bayon qilishdan iborat.

METADOLOGIYA. Ushbu tadqiqotda ochiq oqimlarda (daryo o‘zanlari, irrigatsiya va kollektor-drenaj kanallari) suv sarfini uzluksiz kuzatish va baholash uchun kontaktsiz radar texnologiyasiga asoslangan o‘lchash yondashuvi qo‘llanildi. Metodologiyaning asosiy g‘oyasi oqimning gidravlik parametrlarini suv bilan bevosita kontaktga kirmasdan, masofadan turib aniqlashdan iborat. Bunda suv yuzasining sirt tezligi Doppler radari yordamida o‘lchanadi, suv sathi esa FMCW texnologiyasi asosida masofa o‘lchash orqali aniqlanadi. O‘lchangan suv sathi kesimning “tezlik–maydon” usuli bo‘yicha kesim maydoniga o‘tkazilib, sirt tezligi bilan birlashtiriladi va natijada suv sarfi hisoblanadi. Shuningdek, sarfning lahzaviy qiymatlari bilan bir qatorda jamlanma sarfni ham hisoblash imkoniyati mavjud. Tadqiqotda metodik asos sifatida MRCM-600 turidagi radar oqim o‘lchagich qurilmasining ish prinsiplari va funksional imkoniyatlaridan foydalanildi. Ushbu qurilma suv yuzasi tezligi, suv sathi va suv sarfini uzluksiz aniqlashga mo‘ljallangan bo‘lib, planar mikroto‘lqin texnologiyasi asosida kontaktsiz o‘lchashni amalga oshiradi. Qurilma ichki dasturiy ta’minot yordamida kesim bo‘yicha lahzaviy sarfni hisoblaydi, o‘lchash natijalarini raqamli ko‘rinishda uzatadi hamda telemetriya platformalari bilan integratsiya qilishga mos keladi.

ISSN 3030-3907


Ma’lumotlar RS485 (Modbus RTU), RS232 yoki 4–20 mA analog chiqishlari orqali uzatilishi mumkin; shuningdek, ixtiyoriy holda 4G, NB-IoT va LoRa texnologiyalari orqali simsiz uzatish ham qo‘llab-quvvatlanadi. Bu yechim o‘lchash natijalarini masofadan nazorat qilish, bulutli platformalarda saqlash va real vaqt rejimida tahlil qilish uchun qulaylik yaratadi (2-rasm).



2-rasm. Radar oqim o‘lchagichni o‘rnatish geometriyasi va qamrov zonasi (o‘rnatish balandligi va nurlanish burchagi bo‘yicha).

Suv sirt tezligini o‘lchash Doppler radari prinsipiga asoslanadi. O‘lchash jarayonida radar datchigi mikroto‘lqinlarni suv yuzasiga yo‘naltiradi; suv sirtidagi mayda to‘lqinlar, notekisliklar hamda harakatlanuvchi sirt elementlaridan qaytgan signal qabul qilinadi va elektr signalga aylantiriladi. Qaytgan signal chastotasidagi siljish Doppler effekti natijasida yuzaga keladi va oqim tezligi bilan bevosita bog‘liq bo‘ladi. Qaytgan signal o‘lchash zanjiri orqali qayta ishlanib, Doppler chastota siljishi ajratib olinadi hamda tezlikni hisoblash uchun spektral tahlil usullaridan foydalaniladi (3-rasm).

ISSN 3030-3907



3-rasm. Kontaktsiz o‘lchash konsepsiyasi: radar flowmeter yordamida suv sathi va sirt tezligini o‘lchash hamda telemetriya orqali ma’lumot uzatish.

Doppler velocimetriyasining mohiyati quyidagicha ifodalanadi: agar radar to‘lqinini uzatuvchi manba va maqsad o‘zaro nisbatan harakatsiz bo‘lsa, qabul qilinadigan chastota uzatilgan chastotaga teng bo‘ladi:

$$f_R = f_0 = \frac{c_0}{\lambda} \quad (1)$$

Bu yerda f_0 — uzatilgan chastota (Hz), f_R — qabul qilinadigan chastota (Hz), c_0— yorug‘lik tezligi (m/s), λ — radar to‘lqin uzunligi (m). Agar nishon radar nuri yo‘nalishi bo‘ylab harakatlansa, qabul signalining chastotasida siljish yuzaga keladi va Doppler siljishi quyidagicha aniqlanadi:

$$f_D = f_R - f_0 \quad (2)$$

Ko‘p amaliy qurilmalarda sirt tezligi Doppler chastota siljishi orqali quyidagi ko‘rinishda ham beriladi:

$$\vartheta_s = \frac{\Delta f\ \lambda}{2\cos\theta} \quad (3)$$


Amaliy o‘lchovlarda radar nuri oqim yo‘nalishiga doim ham to‘liq mos kelmasligi mumkinligi sababli, natijani aniqlashtirish uchun o‘rnatish geometriyasi va burchak omili hisobga olinadi. Agar θ-radar nuri yo‘nalishi bilan oqim yo‘nalishi orasidagi burchak bo‘lsa, oqim yo‘nalishidagi sirt tezligi proyeksiya orqali quyidagicha ifodalanadi:

$$\vartheta_s = \vartheta \cos\theta \quad (4)$$

Bu yerda Δf — Doppler siljish (Hz), λ — radar to‘lqin uzunligi (m). Ushbu formulalarda asosiy jihat shundan iboratki, sirt tezligi Doppler siljishga

ISSN 3030-3907

proporsional, natija esa o‘rnatish burchagi bilan tuzatiladi. Suv sathini o‘lchash FMCW modulyatsiya asosida amalga oshiriladi. Bunda modulyatsiya signali sifatida uchburchak to‘lqin qo‘llanadi: kuchlanish modulyatsiyasi zanjiri uchburchak shaklli kuchlanish hosil qilib, uni VCOga uzatadi; natijada chastotasi vaqt bo‘yicha o‘zgarib boradigan elektromagnit to‘lqin uzatiladi. Antennadan chiqqan elektromagnit to‘lqin suv yuzasidan qaytib kelgach, uzatilayotgan signal bilan aralashtiriladi va farq chastotasi signali hosil bo‘ladi. Ushbu farq chastotasida nishongacha bo‘lgan masofa mujassam bo‘ladi (4-rasm). Farq chastotasi signali odatda kuchsiz bo‘lgani sababli u oldindan kuchaytirish va filtrlash zanjiri orqali qayta ishlanadi hamda MCUning ADC qurilmasiga uzatiladi. Mikrokontroller ADC orqali olingan signalni FFT algoritmi bilan tahlil qiladi va farq chastotasi qiymatini aniqlaydi; so‘ngra hosil bo‘lgan formula orqali sensordan suv yuzasigacha bo‘lgan masofa hisoblanadi.



4-rasm. Suv sathini radar orqali aniqlashda FMCW signalining vaqt–chastota diagrammasi

Radar to‘lqinini uzatuvchi manba va nishon nisbatan tinch holatda bo‘lsa, radar to‘lqinining borib-qaytish vaqti Δt, radar platadan nishongacha masofa S va yorug‘lik tezligi c_0 o‘rtasida quyidagi bog‘lanish mavjud:

$$\Delta t = \frac{2S}{c_0} \quad (5)$$

Uchburchak modulyatsiya chastotasi f bo‘lsa, uning periodi:

$$T = \frac{1}{2f} \quad (6)$$

Farq chastotasi f_d orqali masofa quyidagicha aniqlanadi:

$$S = \frac{f_d\, c_0}{4fB} \quad (7)$$

Bu yerda B — radar uzatish chastotasining sweep polosasi, f_d— MCU tahlili natijasida olingan farq chastotasi, c_0— yorug‘lik tezligi. Demak, aynan f_d ni aniqlash orqali radar platasi (sensor) bilan suv yuzasi orasidagi masofani hisoblash mumkin bo‘ladi. Suv sathi qiymatini olish uchun o‘rnatish geometriyasiga ko‘ra sensorning nol belgisiga nisbatan o‘rnatilgan balandligi H_0 qabul qilinadi va suv sathi quyidagicha topiladi:

$$h = H_0 - S \quad (8)$$

ISSN 3030-3907

Suv sarfini hisoblash “tezlik–maydon” usuliga asoslanadi. Umumiy holda kesim bo‘yicha sarf o‘rtacha tezlik va kesim maydon ko‘paytmasiga teng:

$$Q = \omega \cdot \vartheta_{o\,rt} \qquad (9)$$

Radar qurilma bevosita sirt tezligini o‘lchaganligi sababli, kesim bo‘yicha o‘rtacha tezlikni sirt tezligi bilan bog‘lash uchun tuzatish koeffitsienti (beton qoplamali kanallarda α=0.8-0.95) dan foydalaniladi. Natijada sarf:

$$Q = \omega \cdot \vartheta_s \cdot \alpha \qquad (10)$$

O‘lchash natijalarining aniqligi va ishonchliligini ta’minlash uchun o‘rnatish joyini tanlash bo‘yicha talablar qat’iy bajariladi. Radar nurlari suv yuzasini to‘liq qamrab olishi, oqim yo‘nalishi sensor yo‘nalishiga maksimal darajada mos bo‘lishi hamda o‘lchash kesimi barqaror (to‘g‘ri uchastka, tubi mustahkam, kesimi o‘zgarmaydigan) bo‘lishi lozim. Suzuvchi obyektlar, girdoblar (vortexlar) va suv o‘simliklari ko‘p bo‘lgan joylarda radar signali buzilishi mumkinligi sababli bunday nuqtalardan qochish tavsiya etiladi. Past suv davrida tubda cho‘kindi to‘planishi, asosiy o‘zan yo‘nalishining siljishi kabi omillar ham o‘lchash xatoliklarini oshirishi mumkin. Shuningdek, o‘lchash kesimi suv oqimi yo‘nalishiga perpendikulyar bo‘lishi, yaqin atrofda oqimga ta’sir qiluvchi bino-inshootlar, daraxtlar yoki begona o‘tlar bo‘lmasligi hamda cho‘kindi yig‘ilishi kuchli uchastkalarda qurilmani o‘rnatmaslik tavsiya etiladi. Qurilma braket orqali quvur/crossbar konstruksiyaga mahkamlanadi; o‘rnatishda sensorning yuqori tekisligi gorizontalga parallel holatda saqlanishi va yo‘nalish oqim tezligi vektoriga mos keltirilishi talab qilinadi. Qurilma texnik hujjatlariga ko‘ra radar tezlik sensori va radar sath sensori uchun nurlanish burchagi 12° bo‘lib, qamrov zonasi mos ravishda ellips/aylana ko‘rinishida shakllanadi; shu sababli o‘rnatish balandligi va geometriyasi radar qamrovining suv yuzasini yetarlicha qamrab olishini ta’minlaydigan qilib tanlanadi.

Shunday qilib, ishlab chiqilgan metodologiya radar asosida sirt tezligi va suv sathini uzluksiz o‘lchab, kesim parametrlarini hisoblash orqali suv sarfini masofadan, kontaktsiz va avtomatlashtirilgan tarzda aniqlashga imkon beradi. Ushbu yondashuv gidrometrik postlar, irrigatsiya tarmoqlari hamda suv hisobini raqamlashtirish tizimlarida sarfni operativ monitoring qilish, telemetriya orqali ma’lumot uzatish va metrologik nazoratni yo‘lga qo‘yish uchun amaliy ahamiyatga ega.

NATIJA VA MUHOKAMALAR. Tadqiqot obyekti sifatida Kalkauz kanali bosh inshooti tanlandi. Mazkur inshoot “Bo‘z suv irrigatsiya tizimi boshqarmasi” tasarrufida bo‘lib, 1953-yilda ishga tushirilgan. Inshoot bilan bog‘liq kanal uchastkasining umumiy uzunligi 1.48 km ni tashkil etadi, shundan 0.68 km qismi beton qoplamali hisoblanadi. Kanal inshootning suv o‘tkazish qobiliyati

ISSN 3030-3907

loyiha ko‘rsatkichlariga ko‘ra maksimal 40.0 m³/s, ishchi (normal) rejimda esa 30.0 m³/s ga teng. Inshoot orqali sug‘oriladigan biriktirilgan maydon 14.982 ga ni tashkil qiladi. Konstruktiv jihatdan inshoot uch ko‘zli yopiq suv chiqarish turiga mansub. Suv olish manbai Bo‘zsuv kanali bo‘lib, suv olish nuqtasi Pk 346+24 da joylashgan (5-ram).




a) Kanal uchastkasi b) geografik joylashuv

5-rasm. Tadqiqot obyektining joylashish sxemasi


Tanlab olingan kanal uchastkasida SonTek RS5 Doppler hamda radar oqim o‘lchagich qurilmalari yordamida dala o‘lchov ishlari amalga oshirildi. O‘lchovlar ikki bosqichda tashkil etildi. Birinchi bosqichda SonTek RS5 Doppler qurilmasi yordamida kanalning tanlangan ko‘ndalang kesimida oqimning asosiy gidravlik elementlari aniqlanib, keyingi tahlil va solishtirishlar uchun boshlang‘ich ma’lumotlar bazasi shakllantirildi. Xususan, suv sathi (chuqurlik) hhh, kesim geometriyasi, kesim maydoni $\omega = 30\ \text{m}^2$, kesim bo‘yicha tezlik maydoni va o‘rtacha tezlik $\vartheta_{o\prime rt} = 0.95$ m/s kabi ko‘rsatkichlar baholandi (6-rasm). Shuningdek, oqimning suv sirtidagi tezlik taqsimoti ham aniqlanib, sirt tezligi ϑ_s ning kesim bo‘yicha o‘zgarishi va uning oqimning umumiy gidravlik holati bilan bog‘liqligi tahlil qilindi.

ISSN 3030-3907



6-rasm. Tanlangan ko‘ndalang kesim bo‘yicha SonTek RS5 Doppler o‘lchov natijalari

Ikkinchi bosqichda radar oqim o‘lchagich qurilmasi tanlangan kesim bo‘yicha 5 ta vertikalda o‘rnatilib, kontaktsiz rejimda suv sirt tezligi hamda suv sathi qayd etildi va “tezlik–maydon” usuli asosida suv sarfi hisoblandi(7-rasm).



7-rasm. Kanal kengligi bo‘ylab sirt tezligining o‘zgarishi: Doppler o‘lchov nuqtalari va radar o‘lchov nuqtalarining solishtirma tahlili.

Birinchi bosqichda SonTek RS5 Doppler qurilmasi yordamida kanal kesimi bo‘yicha o‘lchangan gidravlik ko‘rsatkichlar asosida suv sarfi hisoblab chiqildi. Xususan, Doppler orqali aniqlangan qiymatlar (9)-formula bo‘yicha qayta ishlanib, suv sarfi Q_d=28.5 m^3/s ning qiymati aniqlandi.

ISSN 3030-3907

Ikkinchi bosqichda radar qurilmasi yordamida o‘lchangan suv sathi va suv sirtidagi tezlik qiymatlari asosida suv sarfi hisoblab chiqildi. Bunda harakat kesim yuzasi $\omega = 29{,}2$ m^2, sirt tezligini kesim bo‘yicha o‘rtacha tezlikka keltirish uchun tuzatish koeffitsienti qo‘llanildi va (10)-formula asosida suv sarfi aniqlanib, Q_s=29.1 m^3/s ga teng bo‘ldi.

Radar va Doppler qurilmalari orqali aniqlangan suv sarfi qiymatlari o‘zaro taqqoslanganda, radar usuli bo‘yicha olingan sarf qiymatdan 0.6 m³/s ga yuqori bo‘ldi. Bu farq Doppler natijasiga nisbatan taxminan 2.1% ni tashkil etdi.

$$\Delta Q\% = \frac{|29.1 - 28.5|}{28.5} \times 100 = \frac{0.6}{28.5} \times 100 \approx 2.1\% \qquad (11)$$

XULOSA. Ushbu tadqiqotda Kalkauz kanali bosh inshootida suv sarfini aniqlash uchun SonTek RS5 Doppler va radar oqim o‘lchagich qurilmalari yordamida dala o‘lchovlari amalga oshirildi. Natijalarga ko‘ra, radar asosida hisoblangan sarf Q_s=29.1 m3/s bo‘lib, Doppler usuli bilan olingan Q_d=28.5 m^3/s qiymatdan 0.6 m^3/s (taxminan 2.1%) farq qildi. Mazkur og‘ish amaliy sharoit uchun qoniqarli bo‘lib, radar texnologiyasining irrigatsiya kanallarida suv sarfini baholashda qo‘llash mumkinligini ko‘rsatadi. Kontaktsiz o‘lchov asboblarining asosiy afzalligi shundaki, ular sensorni suv oqimiga tushirmasdan ishlaydi, natijada o‘lchash jarayonida inson omili kamayadi, o‘lchovlar barqarorroq va takrorlanuvchan bo‘ladi hamda xavfli sharoitlarda (yuqori oqim, loyqa, suzuvchi chiqindilar) xodimlar uchun xavfsizlik oshadi. Shuningdek, radar qurilmalarini telemetriya orqali masofadan ma’lumot uzatish tizimlariga ulash imkoniyati suv sarfini real vaqt rejimida monitoring qilish, ma’lumotlarni arxivlash va boshqaruv qarorlarini tezlashtirish uchun muhimdir. Shu bois, irrigatsiya tarmoqlarida suv hisobini raqamlashtirish va operativ nazoratni kuchaytirishda kontaktsiz radar o‘lchov texnologiyalarini joriy etish maqsadga muvofiq deb hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Huang, Y., Chen, H., Liu, B., Huang, K., Wu, Z., & Yan, K. (2023). Radar technology for river flow monitoring: Assessment of the current status and future challenges. Water, 15(10), 1904. https://doi.org/10.3390/w15101904

2. Cheng, R. T., Gartner, J. W., Mason, R. R., Jr., Costa, J. E., Plant, W. J., Spicer, K. R., Haeni, F. P., Melcher, N. B., Keller, W. C., & Hayes, K. (2004). Evaluating a radar-based, non-contact streamflow measurement system in the San Joaquin River at Vernalis, California (Open-File Report 2004–1015). U.S. Geological Survey. https://doi.org/10.3133/ofr20041015

3. Khan, M. R., Gourley, J. J., Duarte, J. A., Vergara, H., Wasielewski, D., Ayral, P.-A., & Fulton, J. W. (2021). Uncertainty in remote sensing of streams using

ISSN 3030-3907

noncontact radars. Journal of Hydrology, 603, 126809. https://doi.org/10.1016/j.jhydrol.2021.126809

4. Chen, Z., Wang, T., Zhao, C., & He, Z. (2023). River discharge inversion algorithm based on the surface velocity of microwave Doppler radar. Remote Sensing, 15(19), 4727. https://doi.org/10.3390/rs15194727

5. Fulton, J. W., Mason, C. A., Eggleston, J. R., Nicotra, M. J., Chiu, C.-L., Henneberg, M. F., Best, H. R., Cederberg, J. R., Holnbeck, S. R., Lotspeich, R. R., Laveau, C. D., Moramarco, T., Jones, M. E., Gourley, J. J., & Wasielewski, D. (2020). Near-field remote sensing of surface velocity and river discharge using radars and the probability concept at 10 U.S. Geological Survey streamgages. Remote Sensing, 12(8), 1296. https://doi.org/10.3390/rs12081296

6. Costa, J. E., Cheng, R. T., Haeni, F. P., Melcher, N., Spicer, K. R., Hayes, E., Plant, W., Hayes, K., Teague, C., & Barrick, D. (2006). Use of radars to monitor stream discharge by noncontact methods. Water Resources Research, 42, W07422. https://doi.org/10.1029/2005WR004430

7. Welber, M., Le Coz, J., Laronne, J. B., Zolezzi, G., Zamler, D., Dramais, G., Hauet, A., & Salvaro, M. (2016). Field assessment of noncontact stream gauging using portable surface velocity radars (SVR). Water Resources Research, 52(2), 1108–1126. https://doi.org/10.1002/2015WR017906

8. Lin, J.-W., Huang, C.-W., & Hsu, Y.-S. (2016). Micro radar surface velocimetry for hydrologic signal processing using a bandpass filtering approach. Water, 8(6), 262. https://doi.org/10.3390/w8060262

9. Son, G., Kim, D., Kim, K., & Roh, Y. (2023). Performance of a rectangular-shaped surface velocity radar for river velocity measurements. KSCE Journal of Civil Engineering, 27, 1077–1092. https://doi.org/10.1007/s12205-023-0272-0

10. Plant, W. J., Keller, W. C., & Hayes, K. (2005). Measurement of river surface currents with coherent microwave systems. IEEE Transactions on Geoscience and Remote Sensing, 43(6), 1242–1257. https://doi.org/10.1109/TGRS.2005.845641

ISSN 3030-3907

ОЦЕНКА ПРОЧНОСТИ ОБОЛОЧКИ КРИВОЛИНЕЙНОГО ЗУБЧАТОГО ПИТАЮЩЕГО ЦИЛИНДРА НА ОСНОВЕ АНАЛИЗА УСИЛИЙ И ПЕРЕМЕЩЕНИЙ В ЕЁ ТОЧКАХ

Мирзаев Отабек Абдукаримович
Каршинский инженерно экономический институт, доцент
E-mail: metrologiya.department@tdiau.uz
Тел: +998 91 978 99 76
Ураков Нуриддин Абраматович
Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий
Заведующий кафедрой «Метрология и технологические машины», PhD, доцент
E-mail: u_nuriddin88@mail.com
Тел: +998 90 187 20 55
Хакимжонов Авазбек Бахриддинович
Термезский государственный университет инженерии и агротехнологий
Базовый докторант
E-mail: hakimjonov.avazbek99@gmail.com
Тел: +998 99 422 20 03

Annotatsiya. Mashina detallari va uzellarini loyihalashdagi hisob-kitoblar, odatda, yaqinlashish (taxminiy) xarakteriga ega. Shu sababli, olingan natijalarni keng qamrovli nazariy va eksperimental tekshirish hisoblash masalalarini qo‘yishning muhim jihati hisoblanadi. Yupqa devorli konstruksiyalarning samaradorligini oshirish ularni hisoblash usullarini takomillashtirish bilan chambarchas bog‘liq. Ushbu maqolada pnevmo-mexanik yigirish mashinalarining ta’minlovchi silindriga ta’sir etuvchi kuchlar o‘rganilgan hamda ta’minlovchi silindrning elastik qobig‘idagi nazariy hisoblash natijalari keltirilgan.

Kalit so‘zlar: yuklama, qobiq, tolali material, stolcha, kuch, atrofiy (aylana bo‘ylab), o‘q bo‘yicha, inersiya momenti, egri chiziqli tishlar, tashqi silindr, ilashish, lenta.

Аннотация. Расчет деталей и узлов машин, как правило, носит приближенный характер, поэтому широкая теоретическая и экспериментальная проверка результатов является существенной особенностью постановки задач расчета. Повышение эффективности тонкостенных конструкций неразрывно связано с совершенствованием методов их расчета. В работе изучены силы, действующие на питающий цилиндр пневмомеханических прядильных машин. Приведены результаты теоретического расчета напряженно-деформированного состояния упругой оболочки питающего цилиндра.

ISSN 3030-3907

Ключевые слова: нагрузка, оболочка, волокнистый материал, столик, сила, окружная, осевая, момент инерции, криволинейные зубья, наружный цилиндр, зацепление, лента.

Abstract. The calculation of machine parts and components is generally approximate; therefore, comprehensive theoretical and experimental verification of the results is an essential feature of engineering design. Improving the efficiency of thin-walled structures is closely linked to the development of advanced calculation methods. This study examines the forces acting on the feeding cylinder of pneumomechanical spinning machines. The results of theoretical calculations for the elastic shell of the feeding cylinder are presented.


Keywords: load, shell, fibrous material, feed table, force, circumferential, axial, moment of inertia, curvilinear teeth, outer cylinder, engagement, sliver.

ВВЕДЕНИЯ.

Пневмомеханическое прядение занимает важное место в современном текстильном производстве. Для повышения качества пряжи ключевую роль играет питающий цилиндр пневмомеханических прядильных машин. Теоретические расчеты позволяют определить точные направления для получения высококачественной продукции. Механический анализ взаимодействия волокнистой ленты с зубьями питающего цилиндра является необходимым условием для решения технологических задач и оптимизации процесса прядения.

Основная часть: Введение. При определении сил зацепления используются методы теоретической механики, при этом силами трения пренебрегают ввиду их малости [1]. Предлагаемый питающий цилиндр имеет зубья с криволинейным наружным профилем и устанавливается в зоне питания пневмомеханических прядильных машин. Важную роль в формировании усилий при зацеплении с волокнистой лентой играет поверхность питающего столика. Кроме того, питающий столик дополнительно оснащен ребром, установленным по его краям. Именно такой тип зубчатых цилиндров силы в зацеплении раскладывают на окружную F_t, осевую F_a, радиальную F_r. .

ISSN 3030-3907



а) схема действующих сил **б) координатное представление системы**

Рис. 1. Расчетная схема криволинейного питающего цилиндра с упругой оболочкой: а) схема действующих сил; б) координатное представление системы.

Координатный вид и технологический процесс волокнистого ленты в зон питании пневмомеханических прядильных машин приведено на рис 1 и рис 2. Отнесем оболочки вращения к системе меридианов ($\alpha -$ линия) и параллелей ($\beta -$ линии), причем в качестве координат выберем длину дуги меридиана ($\alpha = s$) и центральной угол, составляемой данной меридиональной плостькостью с начальной ($\beta = \varphi$).




Рис. 2. Технологический процесс волокнистого ленты в зон питании пневмомеханических прядильных машин.

Напишем как определяется вышеуказанный силы, и начинаем для примечание.

$$\begin{cases} F_t = \frac{2T}{d}; \\ F_a = F_t tg\beta; \\ F_r = F_t \frac{tg\alpha_n}{cos\beta}; . \end{cases} \quad (1)$$

ISSN 3030-3907

Из этого системы окружную F_t равно :

$$F_t = \frac{2T}{d_w} = \frac{2 \cdot 15000}{20} = 1500 \text{ Н}.$$

$d_w = 20$мм $-$делительный диаметр питающего цилиндра,T $-$врашающий момент и он определяется из формул. Его можно написат следующего порядком.

$$T = M_{ном} = 9{,}56 \cdot \frac{N}{n} = 9{,}56 \cdot \frac{30}{20} \approx 15\text{Н} \cdot \text{м}.$$

$N = 0{,}03$квт $-$мошность электродвигателя питающего цилиндра.

$$\omega = \frac{\pi \cdot n}{30} = \frac{3{,}14 \cdot 20}{30} \approx 2\text{рад/сек}$$

$n = 20 \frac{\text{об}}{\text{мин}}$ $-$число оборотов питающего цилиндра.

После этого определяем окружная силу питающего цилиндра.

$$F_t = \frac{2T}{d_w} = \frac{2 \cdot 15000}{20} = 1500 \text{ Н}.$$

После этого определяем осевая сила F_a криволинейого питающего цилиндра

$$F_a = F_t tg\beta = 1500 \cdot tg18^0 = 1500 \cdot 0{,}32 = 490 \text{ Н}.$$

Радиальная сила определяется из формул

$$F_r = F_t \frac{tg\alpha_n}{cos\beta} = 1500 \cdot \frac{tg18^0}{cos18^0} \approx 512 \text{ Н}.$$

$$\alpha_n \approx \beta = 18^0.$$

Угол поворота опорных сечении питающего цилиндрам с упругими оболочками определяется.

$$\varphi = \frac{F_a h}{6EJ} = \frac{490 \cdot 5}{6 \cdot 30 \cdot 554} = \frac{2430}{99720} = 0{,}024 \text{ рад} \approx 1{,}5^0$$

Особенно нужно указат момент инерции сечения относительно нейтральной оси определено по формулам [2].

$$J = \frac{bh^3}{12} = \frac{5 \cdot 11^3}{12} = 554\text{мм}^4;$$

Условно принимаем углов поворота опорных сечений питающего цилиндра

$$\varphi = 1{,}5^0$$

Зная такой зависимост определяем усилие и перемешения точек оболочек питающего цилиндра. На рис. 1. предложено предлагаемоя питающий цилиндр. $q_a(\alpha, \varphi) = qcos2\varphi$ или его можно написат для условный обозначениям для $q_a(\alpha, \varphi) = qcos2\varphi$. После получения результатов эксперимента можно утверждать $q = 0{,}5$ Н.

ISSN 3030-3907

Располагая начало отсчета координаты $\alpha = \frac{s}{R}$ в среднем сечении оболочки питающего цилиндра с наружными криволинейными зубьями, получим граничные условия при $\alpha = \pm\alpha_*$, $u = 0, v = 0$, где $\alpha_* = \frac{l}{R}$. [3]. Сдаем численный значеный что $\alpha = \frac{s}{R} = \frac{L}{R} = \frac{2l}{R} = \frac{22}{11} = 2.$

Такой верный и точный решения дано также в литературах [4.,5].

Теперь перейдем к теоретическому анализу изучаемого процесса.. Условна принимаем для цилиндрическая оболочки криволинейного зубчатого питающего цилиндра $\frac{1}{R_1} = 0; \theta = \frac{\pi}{2}; r = R = const.$

Известно для цилиндрических оболочек

$$\frac{1}{R_1} = 0;\ \theta = \frac{\pi}{2}; r = R = const;$$

r, R −внутренный и внещный радиус упругих оболочек питающего цилиндра[6,7].

Уравнения равновесия безмоментной теории в этом случае напишется слудуюим образом [3].

$$\begin{cases} \frac{\partial T_1}{\partial \alpha} + \frac{\partial S}{\partial \varphi} + q_1 R = 0; \\ \frac{\partial T_2}{\partial \varphi} + \frac{\partial S}{\partial \alpha} + q_2 R = 0; \\ \frac{1}{R} T_2 - q_3 = 0; \end{cases} \quad (2)$$

где $\alpha = \frac{s}{R}$ −безразмерная продольная координата.

Общее решение уравнений равновесия (2) можно представить как сумму частного решения неоднородного уравнения, обозначенного индексом 0, и общего решения соответствующих однородных уравнений [9,10] (1):

$$\begin{cases} T_1 = T_1^0 + T_1^{(1)}: \\ S = S^0 + S^{(1)}: \\ T_2 = T_2^0 + T_2^{(1)}: \end{cases} \quad (3)$$

Из третьего уравнения (2) находим

$T_2^0 = Rq_3;\ T_2^1 = 0.$ (4)

Далее , интегрируя по α второе из уравнения (2) , определяем

$S^{(1)} = f_1(\varphi); S^0 = -R\int_\alpha \left(q_2 + \frac{\partial q_3}{\partial \varphi}\right) d\alpha$ (5)

$f_1(\varphi)$ −произвольная функция угловой координаты. Подставим полученые значения S в первое из уравнений (2) и проинтегрируем по α; тогда

ISSN 3030-3907

$$\begin{cases} T_1^0 == -R\int_\alpha[\int_\alpha\left(\frac{\partial q_2}{\partial\varphi}+\frac{\partial^2 q_3}{\partial\varphi^2}\right)]d\alpha \\ T_1^1 = -f_1^I(\varphi)\alpha + f_2(\varphi) \end{cases} \quad (6)$$

Деформация срединной поверхности также можно разделить на лве части, одна из которых соответствует усилиям $T_1^0, T_2^0;\ S^0,$ а другая –усилиям $T_1^{(1)}, S^{(1)},$ т. е.

$$\varepsilon_1 = \varepsilon_1^0 + \varepsilon_1^{(I)}; \varepsilon_2 = \varepsilon_2^0 + \varepsilon_2^{(I)}; \gamma_{12} = \gamma_{12}^0 + \gamma_{12}^{(I)}, (7)$$

$$\text{Где } \varepsilon_1^0 = \frac{1}{Eh}(T_1^0 - \mu T_2^0);\ \varepsilon_1^{(1)} = \frac{1}{Eh}\left[-f_1^I(\varphi)\alpha + f_2(\varphi)\right];$$

$$\varepsilon_2^0 = \frac{1}{Eh}(T_2^0 - \mu T_1^0);\ \varepsilon_2^{(1)} = -\frac{\mu}{Eh}\left[-f_1^I(\varphi)\alpha + f_2(\varphi)\right];$$

$$\gamma_{12}^0 = \frac{2(1+\mu)}{Eh}S^0;\ \gamma_{12}^{(1)} = \frac{2(1+\mu)}{Eh}f_1(\varphi); \quad (8)$$

Перейдем к определению перемещений. Запишем уравнения для упругой оболочки криволинейного питающего цилиндра[11].

$$\frac{\partial u}{\partial\alpha} = R\varepsilon_1;\ \frac{\partial v}{\partial\varphi} + \omega = R\varepsilon_2;\ \frac{\partial u}{\partial\varphi} + \frac{\partial v}{\partial\varphi} = R\gamma_{12} (9)$$

где $\varepsilon_1, \varepsilon_2,\ \gamma_{12}$ определяет по (7) и (8)

Общие интеграл уравнений (9) получают следующим образом. Сначала интегрирует по α первом из этих уравнений. Полученное значение u подставляют в третье уравнение (9) , интегрированием которого находят v. Затем из которого уравнения определяют ω.

В процессе интегрирования возникают две новые произвольные функции $f_3(\varphi)$ и $f_4(\varphi)$.

Ushbu jadval parranda mahsulotlarining tarkibi va inson salomatligiga ijobiy ta’sirini vizual tarzda ko‘rsatadi. Har bir mahsulotning asosiy oziq moddalarini, organizmga ta’sirini va sog‘liq uchun foydasini tahlil qilish orqali parranda mahsulotlarining ratsiondagi o‘rni aniqlanadi.

TADQIQOT MUHOKAMASI. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, parranda mahsulotlari inson organizmi uchun muhim oziqaviy manba hisoblanadi. Ularning tarkibidagi yuqori sifatli oqsillar, vitaminlar va minerallar sog‘lom turmush tarzini ta’minlash, mushak va suyak tizimini rivojlantirish, immunitetni mustahkamlash hamda modda almashinuvini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Tovuq go‘shti past yog‘li va yuqori oqsil tarkibiga ega bo‘lib, uni yurak-qon tomir kasalliklarining oldini olish va vaznni nazorat qilishda dietologik mahsulot sifatida tavsiya qilish mumkin. Shuningdek, tarkibidagi temir va B vitaminlari qonda gemoglobin hosil bo‘lishini rag‘batlantiradi, bu esa anemiya xavfini kamaytiradi (Smith, 2018).

Tuxum tarkibidagi xolin va vitamin D miya faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va kognitiv jarayonlarni yaxshilaydi. Shu bilan birga, tuxum oqsili oson hazm bo‘lishi tufayli bolalar va yoshlar uchun zarur bo‘lgan oqsil manbai hisoblanadi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, kunlik ratsionga tuxumni kiritish organizm energiyasini oshirish va nerv tizimi faoliyatini qo‘llab-quvvatlashda samarali hisoblanadi (Brown, 2020). Parranda yog‘i va boshqa yog‘ kislotalari metabolizm jarayonlarida muhim rol o‘ynaydi, energiya manbai sifatida ishlatiladi va yurak faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi. Shu bilan birga, ortiqcha iste’mol qilish xolesterin miqdorining oshishiga va yurak-qon tomir tizimi kasalliklari xavfining ortishiga olib kelishi mumkinligi qayd etiladi. Shuning uchun parranda mahsulotlaridan foydalanganda me’yorni saqlash juda muhim.

O‘zbekistonlik olimlar (Karimov, 2021; Ismoilov, 2022) tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, mamlakat sharoitida parranda mahsulotlarining tarkibi yuqori oziqaviy qiymatga ega bo‘lib, aholining turli yosh guruhlari uchun zarur bo‘lgan oqsil, vitamin va minerallarni qoplashga yordam

ISSN 3030-3907

beradi. Bu esa ularni sog‘lom ovqatlanish tizimining ajralmas qismi sifatida ko‘rsatadi. Shuningdek, parranda mahsulotlarining salomatlikka ta’siri nafaqat individual ratsion darajasida, balki milliy va hududiy miqyosda ham ahamiyat kasb etadi. Masalan, aholining parranda go‘shti va tuxumga bo‘lgan talabining o‘sishi ichki ishlab chiqarishni rivojlantirishga, bandlikni oshirishga va iqtisodiy barqarorlikka xizmat qiladi. Shu bilan birga, sog‘lom ovqatlanishning targ‘iboti va aholining oziq-ovqat madaniyatini oshirish orqali sog‘lom avlodni shakllantirishga yordam beradi.

Muhokama davomida shuni ta’kidlash mumkin: parranda mahsulotlari sog‘lom ovqatlanishning ajralmas qismi bo‘lib, ularning ratsiondagi ulushi va iste’mol me’yorini ilmiy asoslash orqali inson salomatligini mustahkamlash mumkin. Shu bilan birga, ortiqcha iste’molning mumkin bo‘lgan salbiy oqibatlari hisobga olinib, ratsionni muvozanatlash zarur.

XULOSA. Parranda mahsulotlari — tovuq go‘shti va tuxum — yuqori oziqaviy va biologik qiymatga ega bo‘lib, inson salomatligi uchun muhim manba hisoblanadi. Ularning tarkibidagi oqsillar, aminokislotalar, vitaminlar va minerallar organizmning normal faoliyati, mushak va suyak tizimini rivojlantirish, immunitetni mustahkamlash va modda almashinuvini optimallashtirishda muhim rol o‘ynaydi. Tovuq go‘shti past yog‘li bo‘lib, yurak-qon tomir sog‘ligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi, tuxum esa miya faoliyatini qo‘llab-quvvatlaydi va energiya manbai sifatida ishlatiladi. Parranda mahsulotlaridan ratsionda me’yorida foydalanish sog‘lom ovqatlanish tizimini shakllantirish va ortiqcha iste’molning salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, parranda mahsulotlari milliy va hududiy miqyosda ham sog‘lom avlodni shakllantirish va bandlikni oshirishda muhim iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. FAO (2020). *Poultry and Human Nutrition*. Rome.
2. WHO (2021). *Healthy Diet Guidelines*. Geneva.
3. Smith, J. (2018). *Poultry Meat and Health*. Journal of Nutrition.
4. Brown, L. (2020). *Egg Consumption and Brain Function*. Food Science Journal.
5. Karimov, A. (2021). *Oziq-ovqat mahsulotlari va ularning ahamiyati*. Toshkent.
6. Ismoilov, B. (2022). *Sog‘lom ovqatlanish asoslari*. Toshkent.
7. Freeman, H. (2007). *Nutrition and Human Health*. Oxford University Press.
8. Autor, M. (2014). *Global Poultry Consumption and Health Impacts*. International Journal of Food Science.

ISSN 3030-3907

PHYSICOCHEMICAL FUNDAMENTALS OF USING BITUMEN AND PYROLYSIS DISTILLATE IN ANTI-CORROSION COATINGS

Urinov Abrorbek Axrorovich
Department of Petroleum Chemical Technology, Namangan State Technical University, Namangan City, Uzbekistan
Akhrorov Amirkhon Abrorbekovich
Academic Lyceum of Tashkent of University of Information Technologies Tashkent City, Uzbekistan
Aslonov Adizxon Axrorovich
Head of the Technical Department at the Bukhara Water Supply Company Bukhara City, Uzbekistan

Abstract. Bitumen is a high molecular weight, multi-component system with excellent moisture resistance, film-forming, and adhesive properties. Bitumen is characterized by the presence of asphaltenes, resins, and aromatic compounds, and it is their ratio that determines the coating‘s resistance to moisture, oxygen, and aggressive substances. A pyrolysis distillate, obtained by the thermal decomposition of hydrocarbon feedstock, contains fractions of aromatic, naphthenic, and oxygenated compounds that can alter the rheological properties of bitumen. Its application in anti-corrosion composite coatings improves heat resistance and adhesion. The introduction of a bitumen-distillate coating will significantly reduce (by 30–40%) the costs of corrosion protection through the use of raw materials, the utilization of recycled resources, and a reduction in the energy intensity of production.

Keywords. Bitumen, oxygen, aggressive substances, pyrolysis distillate, thermal decomposition, anti-corrosion, composite, resistance, adhesion.

Аннотация. Битум представляет собой высокомолекулярную многокомпонентную систему, обладающую превосходной влагостойкостью, пленкообразующими и адгезионными свойствами. Битум характеризуется наличием асфальтенов, смол и ароматических соединений, и именно их соотношение определяет устойчивость покрытия к воздействию влаги, кислорода и агрессивных веществ. Пиролизный дистиллят, полученный путем термического разложения углеводородного сырья, содержит фракции ароматических, нафтеновых и оксигенированных соединений, способных изменять реологические свойства битума. Его применение в антикоррозионных композиционных покрытиях улучшает термостойкость и адгезию. Внедрение битумно-дистиллятного покрытия позволит значительно (на 30–40 %) снизить затраты на антикоррозионную защиту за счет

ISSN 3030-3907

использования сырья, утилизации вторичного сырья и снижения энергоемкости производства.

Ключевые слова. Битум, кислород, агрессивные вещества, пиролизный дистиллят, термический разложение, антикоррозионная защита, композитный, стойкость, адгезия.

Annotatsiya. Bitum– bu yuqori molekulyar og‘irlikka ega, ko‘p komponentli tizim bo‘lib, namlikka chidamlilik, plyonka hosil qilish va yopishqoqlik xususiyatlariga ega. Bitum asfaltenlar, smolalar va aromatik birikmalar mavjudligi bilan tavsiflanadi va aynan ularning nisbati qoplamaning namlik, kislorod va agressiv moddalar ta'siriga chidamliligini belgilaydi. Gidrokarbon xomashyo materialining termik parchalash yo‘li bilan olingan piroliz distillati aromatik, naftenik va oksigenlangan birikmalar fraksiyalarini o‘z ichiga oladi, ular bitumning reologik xususiyatlarini o‘zgartira oladi. Uni koroziyaga qarshi kompozit qoplamalarda qo‘llash issiqlikka chidamlilik va yopishuvchanlikni yaxshilaydi. Bitumen-distillat qoplamasini joriy etish xomashyo sarfini, ikkilamchi xomashyoni qayta ishlash va ishlab chiqarish energiya intensivligini kamaytirish orqali koroziyaga qarshi himoya xarajatlarini sezilarli darajada (30–40% ga) kamaytiradi.

Kalit so‘zlar. Bitum, kislorod, korroziy moddalar, piroliz distillati, termal dekompozitsiya, korroziyaga qarshi himoya, kompozit, chidamlilik, adgeziya.

1. INTRODUCTION.

The reliability and durability of oil and gas pipelines are largely determined by the effectiveness of corrosion protection, since metal corrosion is one of the main causes of accidents, leaks and premature decommissioning of pipeline systems. The impact of aggressive factors of the external and internal environment - moisture, soil electrolytes, dissolved salts, hydrogen sulfide, carbon dioxide, as well as temperature and pressure drops - significantly accelerates corrosion processes and reduces the operating characteristics of pipes.

The purpose of these tests is to obtain objective and reproducible information on the protective effectiveness of anti-corrosion coatings, their compliance with the requirements of regulatory technical documentation and the possibility of use in the operating conditions of oil and gas pipelines. The test results allow optimizing coating compositions and technologies, increasing the reliability of pipeline systems and reducing the risks of accidents and economic losses. Many scientists have contributed to solving problems related to pipeline corrosion and modern protection methods.

According to some authors, the effectiveness of elastomeric composites as protective coatings is determined by their technical characteristics, high chemical resistance, and barrier properties. However, elastomeric composites are considered

ISSN 3030-3907

expensive materials and are imported into Uzbekistan from abroad. Cheaper local materials are required for the corrosion protection of main pipelines in our country. Such materials include bitumen, which are complex mixtures of aromatic, naphthenic, and paraffinic compounds, resins, and asphaltenes.

Structurally, bitumen is a colloidal system in which asphaltenes are dispersed in an oil matrix (fine polar components and resins). This system determines the main physicochemical properties of bitumen: heat resistance, adhesion, and hydrophobicity. Intermolecular interactions occur between the components of bitumen and the surface of steel: - associations, chemisorption of oxygen groups, hydrogen bonds, as well as the formation of weak complexes with metal ions (Fe^{2+}, Fe^{3+}), which increases the adhesion energy and reduces the rate of electrochemical corrosion.

Another key point is that bitumen are best suited for saline soils, which are common in most regions of our country. Therefore, the aim of this study is to investigate the structure and composition of bitumen and its effect on the protective properties of the components of anti-corrosion coatings.

Bitumen are complex mixtures of aromatic, naphthenic, and paraffinic compounds, resins, and asphaltenes. Structurally, bitumen consists of a colloidal system in which asphaltenes are dispersed in an oil matrix (small polar components and resins). This system determines the main physicochemical properties of bitumen: heat resistance, adhesion, and hydrophobicity [1].

The main components of bitumen are: asphaltenes - polar, heavy molecules that form the structure; resins - amphoteric compounds that provide plasticity and adhesion; maltenes (oils) - light hydrocarbons that act as the dispersion medium. Typical characteristics of construction bitumen**:** softening point: 45-60 °C; fragility temperature: below -20 °C; penetration at 25 °C: 50-100 × 0.1 mm [2].

Bitumen are colloidal dispersions, such as “asphaltenes in a maltene matrix.” An important parameter describing the stability of such a system is the value of the Zeta potential (ζ), which influences the stability of the particles [3]:

$$\zeta = \frac{4\pi\varepsilon\varepsilon_0 * \mu}{\eta}$$

where:

ε ε - dielectric constant of the medium,

ε₀ ε₀ - permittivity of free space,

μ μ - electrophoretic mobility,

η η - viscosity of the dispersion medium.

1. Physicochemical Properties of Pyrolysis Distillate

ISSN 3030-3907

Pyrolysis distillate is a product of the thermal decomposition of hydrocarbon feedstock, which contains aromatic hydrocarbons, aliphatic compounds, neutral fractions, as well as oxygenated compounds. Pyrolysis distillates are characterized by the following [4]: high reactivity (due to the presence of multiple bonds); low viscosity; ability to modify polymer and bitumen systems; moderate toxicity (during initial stabilization); the presence of phenol and aldehyde groups that increase adhesion.

The IR spectra of the pyrolysis distillate show absorption bands [5]:

≈ 2920 cm^{-1} (C-H aliphatic);

≈ 1600 cm^{-1} (aromatic rings);

≈ 1700 cm^{-1} (carbonyl groups).

IR spectroscopy indicates the presence of functional groups active in the adhesive interaction [6,7]:

C = C (aroma) ≈ 1600 cm^{-1} C = C (aroma) ≈ 1600 cm^{-1}

C = O (aldehydes/ketones) ≈ 1700 cm^{-1} C = O (aldehydes/ketones) ≈ 1700 cm^{-1}

O-H (phenols) ≈ 3400 cm^{-1} O-H (phenols) ≈ 3400 cm^{-1}

These groups participate in the formation of hydrogen bonds and donor-acceptor complexes with the metal surface or bitumen components [6].

2. METHODOLOGY

The study subjects in this work are selected: composite anticorrosive coatings (fillers, surface additives, stabilizers) developed on the basis of petroleum bitumen modified with fractions of pyrolysis distillate (PD) with the addition of functional additives; steel samples of pipe products used in trunk oil and gas pipelines (steel 20, steel 09G2S); aggressive media simulating operating conditions: water-salt solutions (NaCl, $MgCl_2$), hydrogen sulfide medium (H_2S), carbon acid medium (CO_2), as well as biocorrosion medium (sulfatizing bacteria) [7].

RESEARCH METHODS

Chemical and analytical methods: IR spectroscopy (FTIR) - for functional group analysis and approval of bitumen modification with pyrolysis products; gas chromatography (GX) and GX-Mass spectrometry (GX-MS) - for analysis of PD fraction composition; element analysis (CHNS/O) - to determine the composition of coatings and raw material elements; energy dispersion spectroscopy (EDS) - to determine the elements at the boundary of the metal coating.

Physicochemical and thermal methods: differential scanning calorimetry (DSC) and TGA (thermogravimetric analysis) - to assess the thermal stability and thermal stability of coatings; determination of viscosity and smoothing temperature

ISSN 3030-3907

per bag - for bitumen and modified compositions; contact angle (goniometry) - to assess the adhesion and interaction of the coating with the metal [8].

Mechanical tests: strength test of coating connection with metal as per GOST 15140; coating testing for flexibility and impact strength as per GOST 6806; melting and water absorption tests - as per GOST 9.403 and GOST 9.407. Electrophysical methods: determination of electrical insulation properties - breakdown voltage, specific volume and surface resistance; electrochemical tests (potentiodynamic polarization, impedance method) - to evaluate the corrosion resistance of coatings.

Microbiological tests: influence of sulfating bacteria (Desulfovibrio sp.) on coated and uncoated samples - in accordance with NACE TM0185 and GOST R 58167; assessment of biocorrosion by change in mass, surface morphology and degradation rate.

Modeling and forecasting: molecular modeling of the interaction of steel coating and surface components using the Materials Studio, Gaussian, Avogadro software packages; calculation of thermodynamic parameters of interaction and adhesion (Δ G, Δ H, Δ Ead); evaluation of barrier properties by multiphase diffusion modeling (COMSOL Multiphysics).

Thus, the complex of selected experimental and calculation methods allows to fully characterize the composition, structure and performance characteristics of composite coatings, as well as their behavior in aggressive conditions close to the actual operation of pipelines.

The following materials were used in this study:

BND 60/90 grade bitumen meeting the requirements of GOST 33133-2014 was used as base binding material. This bitumen is characterized by high adhesion of mineral materials, sufficient plasticity in use and resistance to aging. Its physicochemical parameters were used as a control for comparison with predefined and modified compositions.

Pyrolysis distiller is a secondary hydrocarbon product obtained as a result of thermal decomposition of hydrocarbon raw materials (for example, plastics, rubber waste, oil stacks, etc.). The distiller is a liquid fraction that boils at a temperature of 100 to 350 °C. It contains a significant number of aromatic, aliphatic and cycloalkanes, as well as heteroatomic compounds that modify the structure and properties of bitumen.

Compositions based on bitumen distillate and pyrolysis - within the framework of the study, composite binding materials were obtained by adding various amounts of pyrolysis distillate (from 5 to 30 t%) to the bitumen matrix. The mixing process was carried out at a temperature of 150-180 °C with vigorous

ISSN 3030-3907

mixing until homogeneous. The purpose of the modification is to improve low temperature properties, increase resistance to brittleness and aging.

The physicochemical characteristics of the starting components and the obtained compositions were studied in detail using the following complex methods: penetration, Kees softening temperature, moderate Fraas, IR spectroscopy, thermogravimetric analysis (TGA) and other analytical data presented in the following methods sections.

Complex tests, including climatic and electrochemical methods, were used to evaluate the anticorrosive effectiveness of bitumen compositions modified with pyrolysis distillate. The tests were carried out on samples of pipes coated with the test materials in order to duplicate the conditions of use in aggressive environments.

CONCLUSION

A comparative analysis with traditional protective systems (epoxy coatings and thermoplastic tapes) has shown that bitumen-distillate compositions are a cost-effective alternative with comparable strength characteristics, offering ease of application and the possibility of localized repairs. The introduction of bitumen-distillate coatings will significantly reduce (by 30–40%) the costs of corrosion protection through the use of raw materials, the use of recycled resources, and a reduction in the energy intensity of production. Bitumen-distillate compositions possess high corrosion resistance, retain their protective properties in aggressive environments, and exhibit good adhesion, i.e., they ensure strong bonding of the coating to the metal surface of the pipe and its resistance to peeling. The developed recommendations for adapting the coating composition to various climatic zones will ensure their effective application across a wide range of natural and climatic conditions, from northern territories to southern regions and coastal areas.

Based on the above, the commission concludes that bitumen-distillate coatings are a promising technical and economic solution for protecting trunk pipelines, ensuring their durability, maintainability and environmental safety, are in demand in modern conditions of import substitution and austerity

REFERENCES

1. Gladkykh I.F., Cherkasov N.M., Kraikin V.A., Sigaeva N.N., Ionova LA., Zaikov G.E., Monakov Yu. B. Heat- and thermostability of asphaltoresinous oligomers // Journal of the Balkan tribo logical association. -2001. -Vol. 7. -l3-4. -P-P. 147-155.

2. Cherkasov N., Kolosnitsin V., Gladkykh I., Monakov Yu. Asmol Innovation anti-corrosive material // The summary of technologies. Russian technological review. -2001. -Ns 2 (6). -P. 28-30.

ISSN 3030-3907

3. Niu L., Cheng Y.F. Development of Innovative Coating Technology for Pipeline Operation Crossing the Permafrost Terrain // Construction and Building Materials. 2008. Vol. 22, Issue 4. P. 417-422. DOI: 10.1016/j.conbuildmat.2007.06.001
4. Wong J.F., Hassan A., Chan J.X., Kabeb S.M. Plastics in Corrosion Resistant Applications // Encyclopedia of Materials: Plastics and Polymers. 2022. Vol. 4. P. 136-148. DOI: 10.1016/B978-0-12-820352-1.00072-9.
5. Samimi A., Zarinabadi S. Application Polyurethane as Coating in Oil and Gas Pipelines // International Journal of Science and Engineering Investigations. 2012. Vol. 1, No. 8. P. 43-45.
6. Popoola A., Olorunniwo O.E., Ige O.O. Corrosion Resistance through the Application of Anti-Corrosion Coatings // Developments in Corrosion Protection: in Book. 2014. P. 241270. DOI: 10.5772/57420.
7. Shirazi M., Ayatollahi Sh., Ghotbi C. Damage evaluation of acid-oil emulsion and asphaltic sludge formation caused by acidizing of asphaltenic oil reservoir. Journal of Petroleum Science and Engineering. 2018, vol. 174, pp. 880-890. DOI: 10.1016/j.petrol.2018.11.051 29.
8. Straka P., Maxa D., Staš M. A novel method for the separation of high-molecular-weight saturates from paraffinic petroleum based samples. Organic Geochemistry. 2019, vol. 128, pp. 63-70. http://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0146638018302699.
9. Alexander I.V, Ragulin V.V., Telin A.G. Development and Introduction of Heavy Organic Compound Deposition Diagnostics, Prevention and Removing. SPE International Symposium on Oilfield Chemistry, 2005. DOI: 10.2118/93128-MS

ISSN 3030-3907

ZIRABULOQ TOG‘LARINING JANUBIY-G‘ARBIY QISMI NEOLIT DAVRI DASTLABKI TADQIQOTLARI.

Karimov Rufat Uktamovich

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti tayanch doktoranti

Аннотация. Неолитический период открыл новую страницу в развитии человеческой цивилизации и стал эпохой, значительно изменившей жизнь людей благодаря своим нововведениям. Общины этого времени также создавали свои поселения в юго-западных районах Зирабулокских гор, оказывая влияние на последующие исторические процессы. Начиная с начала прошлого века, на этой территории проводятся масштабные археологические исследования.

Ключевые слова: неолитический период, Зирабулокские горы, пустыня Карнаб, Кудукчасай, Ингичкатог, село Тим, Д.Н. Лев, М.Д. Джуракулов, Г. Полишчук.

Annotation. The Neolithic period marked a new stage in the development of human civilization and represents an era that significantly transformed human life through its innovations. Communities of this period established their settlements in the southwestern regions of the Zirabulok Mountains, thereby influencing subsequent historical processes. Since the beginning of the last century, extensive archaeological research has been conducted in this area.

Keywords: Neolithic period, Zirabulok Mountains, Karnab Desert, Quduqchasoy, Ingichkatog, Tim village, D.N. Lev, M.D. Djurakulov, G. Polishchuk.

Annotatsiya. Nolit davri insoniyat tamaddunida yangi sahifa ochib bergan va o‘zining yangiliklari bilan insonlar hayotini o‘zgartira olgan davr hisoblanadi. Bbu davr jamoalari Zirabuloq tog‘larining janabiy-g‘arbiy hududlarida ham o‘z manzilgohlarini tashkil qilgan bo‘lib, keyingi jarayonlarga o‘z ta’sirini o‘tkazib kelgan. O‘tgan asr boshlaridan boshlab bu hududda keng ko‘lamli arxeologik tadqiqotlar amalga oshirilib kelinmoqda.

Kalit so‘zlar: Neolit davri, Zirabuloq tog‘lari, Qarnab cho‘li, Quduqchasoy, Ingichkatog‘, Tim qishlog‘i, D.N.Lev, M.D.Djurakulov, G. Polishchuk.

KIRISH

Dunyo tamaddunida neolit yangi tosh davri ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy taraqqiyotda tub o‘zgarishlar sodir bo‘lgan tarixiy davr sifatida e’tirof etiladi. Chunki, bu davrda kishilik tarixining urug‘ jamoalari o‘zlashtiruvchi xo‘jalikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tdi. Bu inqilobiy tub o‘zgarish qator iqtisodiy xo‘jalik va madaniy kashfiyotlarga olib keldi. Diniy-ma’naviy hayotda totemistik, animistik, sehru-jodu qarashlardan obyektiv hayotni tahlil etish, ya’ni inson hayotining davomiyligini ta’minlovchi tabiat unsurlari-quyoshga, ona zamin yerga

ISSN 3030-3907

va obihayot suvga topinish boshlandi va nihoyat, kishilik jamiyati rivojlanishida sivilizatsiyalar tarixini boshlanishiga asos solindi.

Zirabuloq tog‘lari Samarqand viloyatidagi tog‘ hisoblanib, geologik jihatdan Zarafshon tog‘ tizmasining shimoli-g‘arbiy davomidir. Sharqda Jom cho‘li, g‘arbda Ziyovuddin tog‘lari bilan chegaradosh. Janubda Qarnob cho‘li tekisligidan tik pog‘ona bilan ajratilgan, shimolda Zarafshon daryosi vodiysiga tutashgan. Eng baland joyi 1120 m. Shimoliy qismining balandligi 930-1100 m, markaziy qismi 830-890 m. Janubiy qismida Ayribel, Qo‘shdara, Jalqir, Alyomiy (1054 m), Piyoztog‘, Mahmudtog‘ (962 m), shimolda Beshtog‘ va boshqa tog‘ tizmalari mavjud. Ularning janubiy va janubi-g‘arbiy yon bag‘irlari tik ko‘tarilgan qoyali, tub jinslari yalang‘och, turli nurash shakllari bilan murakkablashgan, chuqur va tor daralar hamda soylar bilan kuchli parchalangan.

Zirabuloq tog‘ tizmasi janubiy va janubi-g‘arbiy yon bag‘irlarida tosh asrining mezolit-neolit davriga kelib odamzod yashashi uchun qulay ekologik va iqlimiy sharoit yuzaga kelganligi bu joylarni ibtidoiy jamoalar tomonidan yanada jadalroq o‘zlashtirilishiga imkoniyat bergan. Buni mazkur hududda keyingi yillar maboyinida amalga oshirilgan tadqiqotlar jarayonida tosh asri va keyingi tarixiy davrlar jamoalari madaniyatiga oid topilma joylari, yodgorliklar aniqlanganligi asoslab turibdi.

Darhaqiqat, Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘ tizmasi yon adirlari bo‘ylab o‘tgan asr 50-60-yillarida turli kasb egalari tomonidan tosh davri va keyingi tarixiy bosqichlarga oid jamoalarning madaniyat izlari ko‘plab topilgan. Xususan, geolog G. Polishchuk tomonidan Quduqchasoy yon terrasalari, Tim qishlog‘i markazidagi o‘rta maktab atrofi terrasa sathlaridan, Tim qishlog‘ida joylashgan bolalar oramgohi hududida hamda Qo‘chqorli bulog‘i atrofi va yon terrasalaridan terib olingan mikrolit qurollarining to‘plami qiziqarlidi[3]. Ayniqsa, bu to‘plamdagi Quduqchasoyga kirish og‘iz qismidan Tim qishlog‘idan 2–2,5 kilometrlar chamasi shimoli-sharq tomondagi terrasalardan yig‘ilgan tosh buyumlar muhim hisoblanadi. Bular uchirindilardan yasalgan yon qirralari bo‘ylab ishlov berilgan qirg‘ichlar, plastikalardan yasalgan qirg‘ichlar, yon tomonlari bo‘yicha turli usulda ishlov berilgan pichoqsimon ko‘rinishli plastinkalar, ishlov berilmagan uchirindilar va plastinkalar, prizmasimon ko‘rinishli bir ish maydoniga ega bo‘lgan, bir taraflama yoki gir atrofidan paraqalar uchirib olingan tosh o‘zaklari hamda toshni

[3] Джуракулов М.Д. История изучения каменного века Средней Азии. Автореферат дисс. на соискание уч.степ.к.и.н.- Самарканд, 1966. - С. 3-27; Джуракулов М.Д. Новые археологические данные из совхоза “Карнап” (по материалам собрания кабинета археологии им. Д.Н.Лева) Труды СамГУ. Новая серия вып.218, Самарканд, 1972, С.89-96, рис.1,1-8.

ISSN 3030-3907

yo‘nish jarayonida uchib ketgan kichik o‘lchamli ishlab chiqarish chiqindilari hisoblanadi. Tosh qurollarining tipologik tahlili ko‘rsatishicha, ular shakli, ishlov berilishi usullari bo‘yicha Quyi Zarfshon va Xorazm neolit yodgorliklari tosh qurollariga o‘xshash bo‘lgan.[4]

Tim qishlog‘i Ingichkatog‘ning janubiy-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, undan Quduqchasoyning irmog‘i o‘tgan. Tim qishlog‘i markazidagi o‘rta maktab atrofi terrasa sathlaridan qiziqarli tosh buyumlar, xususan, mikrolit qurollari to‘plami yig‘ib olingan. Bu to‘plamda tosh o‘zaklari, ishlov berilmagan uchirindilar va palastinkalar, ishlov berilgan plastinkalar, qovurg‘asimon plastinkalar, plastinkadan ishlangan bargsimon ko‘rinishli yasalishi oxirigacha yetkazilmagan o‘q yoy uchi quroli (bu turdagi o‘q yoy uchlari Quyi Zarafshon o‘zanlari bo‘lgan Xo‘jayli, Tuzkon vohasi yodgorliklari hamda Zamonbobodan topilgan[5], yon tomonlariga turlicha ishlov berilgan uchirindilardan yasalgan qirg‘ichlar, uch qismida yoysimon ko‘rinishli ish maydoniga ega bo‘lgan plastinkadan yasalgan qirg‘ich qurollari ko‘plab topilgan. Mikrolit ko‘rinishli kichik o‘lchamli tosh buyumlar yog‘och dastalar yoriqlariga o‘rnatilib, tig‘ hosil qilingan va ular qadama qurollar sifatida turmushda ishlatilgan.

Qo‘chqorli bulog‘i atrofi va yon terrasalaridan terib olingan tosh buyumlar to‘plamida ishlov berilmagan uchirindilar va plastinkalar, toshni yo‘nish bilan bog‘liq bo‘lgan chiqindilar, shuningdek, ishlov berilgan plastinkalar va miroplastinkalar, qirg‘ich qurollari mavjud. Bu tosh bumyular ham o‘z shakli va ishlov berilishi bilan atrof topilma joylari tosh buyumlariga o‘xshash.
Mutaxassislar ko‘rsatishicha, Tim va uning atrofidan topilgan tosh buyumlarning yasalish xom ashyosi asosan chaqmoqtoshli-slanets, sariq va qoramtir-ko‘k rangli chaqmoqtosh, kam sonli kulrangli va jigarrangli chaqmoqtosh, xolsedon va kvarslar hisoblanadi.

M.D.Djurakulovning tadqiqoticha, Zirabuloq tog‘i janubiy va janubiy - g‘arbiy qismi tosh davri yodgorliklarini o‘rganishda istiqbolli o‘lka hisoblanadi. Uning yozishicha, Tim va uning atrofidagi topilma joylardan qo‘lga kiritilgan tosh buyumlarning tipologik tahlili natijalari mazkur jamoalar moddiy madaniyati Kaltaminor madaniyati taraqqiyotining so‘nggi bosqichi, ya’ni so‘nggi neolit

[4] Виноградов А.В. Неолитические памятники Хорезма.....

[5] Гулямов Я.Г.,Исламов У, Аскаров А., Первобытная культура и возникновение орашаемого земледелия в низовьях Зарафшана. - Тошкент, 1966, С.151-200.

ISSN 3030-3907

davriga oid. Buni Kenimex va Quyi Zarafshon vohasida tadqiq etilgan bir qator yodgorliklar materiallari asoslaydi[6].

Zirabuloq tog‘i Janubiy va Janubiy-G‘arbiy qismi adirlari, xususan Tim qishlog‘i atroflarid ko‘plab mis konlari bo‘lganligi aniqlangan va ular tadqiqotida muhim materiallar qo‘lga kiritilgan. Xususan, D.N.Lev Tim qishlog‘iga yaqin bo‘lgan mis konlarining biridan mis bolg‘ani topgan[7].

Qiziqarli topilmalar qatoriga Ingichka tog‘ining janubi-g‘arbiy yonbag‘rida, Ingichka shahridan 40 km uzoqlikda joylashgan Tim qishlog‘i atrofida yig‘ilgan mikrolitlar kiradi. Qishloqning shimoliy atrofi juda manzarali. Bu yerda keng Kudukcha-say o‘zani o‘tadi, bahor faslida u tog‘lardan kelayotgan suv oqimlari bilan to‘ladi. Kuz faslida suv sathi pasayadi va ba’zan butunlay qurib qoladi. Soy bo‘ylab parallel ravishda buloqlardan boshlanuvchi kichik soy ham oqib o‘tadi. Bu buloqlar Kudukcha-say oqimi bo‘ylab joylashgan.

Hozirgi vaqtda yaylovlarni doimiy ravishda suv bilan ta’minlash maqsadida chorvachilik xo‘jaliklari tomonidan soy bo‘ylab kichik sun’iy suv havzasi qurilgan. Soyning chap sohilida ekin ekish uchun balandlik yonbag‘irlarini ishlov berish natijasida hosil bo‘lgan bir qator sun’iy terasalar joylashgan. Ushbu terasalardan birida ancha katta Tim qishlog‘i joylashgan bo‘lib, u “Qarnap” hududining markazi hisoblangan.

Bu yerda, o‘rta maktab yaqinida, yer yuzasidan ko‘plab mikrolitik buyumlar to‘plangan. To‘plamdagi qurollar quyidagi asosiy turlardan iborat:

Qirg‘ichlar (10 dona) turli shakllarda. Ulardan uchtasi teriga ishlov berishga mo‘ljallangan qirg‘ichlardir. So‘nggilari plastinalarning qisqa bo‘laklarida tayyorlangan. Ular mayda retush texnikasi bilan ishlangan bo‘lib, yarim dumaloq shaklga ega. Ishchi qirrasi silliqlovchi retush bilan ishlangan bo‘lib, bu qirg‘ichlarning funksional jihatdan farqlanishini ko‘rsatadi. Ushbu qurollar, katta ehtimol bilan, ibtidoiy odamlar tomonidan teri, charm hamda mayda yog‘och buyumlarni qayta ishlash uchun ishlatilgan.

O‘q uchlari (1 dona) to‘liq tugallanmagan, bargsimon shaklga ega. Ular mayda retush texnikasi bilan ishlangan. Yuzasi faqat orqa tomonidan ishlangan, uchi qisman shikastlangan, tag qismi esa ishlov berilmagan holda qolgan.

[6] Джуракулов М.Д. Новые археологические данные из совхоза “Карнап” (по материалам собрания кабинета археологии им. Д.Н.Лева) Труды СамГУ. Новая серия вып.218, Самарканд, 1972, С.91.

[7] Джуракулов М.Д. Новые археологические данные из совхоза “Карнап” (по материалам собрания кабинета археологии им. Д.Н.Лева) Труды СамГУ. Новая серия вып.218, Самарканд, 1972, С.95.

ISSN 3030-3907

Plastinaning o‘rta qismi ham ishlovsiz qoldirilgan. Shunga o‘xshash o‘q uchlari Gudayli-2**,** Zamonbobo va boshqa manzilgohlarda ham topilgan.

Shuni ta’kidlash kerakki, ayrim hollarda bunday turdagi kremniy uchlari turli funksiyalarni bajargan: ular murakkab o‘roqning qo‘shma qismi sifatida qo‘llangan, ba’zida o‘q uchlari sifatida ishlatilgan, boshqa holatlarda esa, agar ular sop (dasta) bilan ta’minlangan bo‘lsa, teshuvchi qurol – bigiz vazifasini bajargan.

Yon tomonlarida o‘yiqlari bo‘lgan plastinalar (12 dona). Ular o‘lcham jihatidan turlicha. Ular orasida keng va aniq ifodalangan o‘yiqlarga ega bo‘lganlari ham mavjud bo‘lib, odatda qarama-qarshi retush bilan ishlov berilgan. Shuningdek, cho‘zilgan pichoqsimon plastinalardan tayyorlangan qurollar ham uchraydi; ularda plastinaning bir tomonida bitta yoki bir nechta kichik yarim dumaloq o‘yiqlar mavjud. Retush odatda tik bo‘lib, ko‘pincha plastinaning orqa tomoniga tushirilgan.

Bunday turdagi qurollar bilan bir qatorda shakli va qisman retush xarakteri bilan farq qiladigan buyumlar ham uchraydi. Xususan, ba’zi plastinalarda aniq ifodalanmagan, tartibsiz o‘yiqlar mavjud bo‘lib, ular plastinaning orqa tomoni va uch qismida tik retush orqali hosil qilingan. Bu buyumlarning barchasi kichik o‘lchamlari bilan ajralib turadi va asosan parcha holida saqlangan.

O‘tkirligi kamaygan (to‘mtoqlashgan) qirrali pichoqsimon plastinalar hamda foydalanish izlariga ega namunalar (23 dona) asosan parchalardan iborat. Bunday buyumlar ibtidoiy odamlar tomonidan yog‘och yoki suyak asosli qurollarga o‘rnatilgan qo‘shma tig‘lar sifatida xizmat qilgan.

Mazkur guruh kolleksiyasida yana ikkinchi darajali ishlov berilmagan va foydalanish izlari ko‘rinmaydigan pichoqsimon plastinalar ham mavjud (15 dona). Plastinalarning yuqori kesimlari 20 ta namunadan iborat.

Ishlab chiqarish chiqindilari – yirik parraklar, mayda parchalari va chaqmoq tosh qipiqlari – 72 donani tashkil etadi. Ular turli tiplarda uchraydi.

Nukleuslar nisbatan kichik o‘lchamlarga ega (7 dona). Eng kattasining balandligi 5 sm gacha, diametri 3–4 sm. Qolganlarining balandligi 2,5 dan 3,5 sm gacha o‘zgaradi. Ularning barchasida prizmatik pichoqsimon plastinalarni ajratib olish izlari kuzatiladi. Nukleuslar turli rangdagi kremniydan tayyorlangan bo‘lib, odatda maksimal darajada ishlatilgan holatda uchraydi. Shakliga ko‘ra ular prizmatik yoki kesilgan konus shaklida bo‘lib, bir zarba maydonchali va bir tomonlama hisoblanadi.

Ularning 5 tasi nisbatan aniq ifodalangan namunalar hisoblanadi. Ularning o‘ziga xos xususiyati shundaki, bir tomonida to‘g‘ri, tor pichoqsimon plastinalarning ketma-ket ajratib olingan izlari saqlangan, boshqa tomonida esa

ISSN 3030-3907

bunday ajratish amalga oshirilmagan. Nukleuslarning yuqori kesimlari yoki uch qismi ham 5 ta namunada qayd etilgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan manzilgohlardagi qurollarni tayyorlash uchun asosiy xomashyo sifatida turli sifat va rangdagi kremniy ishlatilgan. Asosan sarg‘ish va to‘q-ko‘k rangdagi kremniy ustunlik qiladi. Ba’zi hollarda kulrang va jigarrang kremniy hamda kvartsitdan tayyorlangan alohida buyumlar ham uchraydi.

Shuni ta’kidlash kerakki, ushbu mikrolitlar topilgan hudud atrofida kremniy konlari hozircha aniqlanmagan. E’tiborga molik jihat shundaki, so‘nggi yillarda qo‘shni Navoiy viloyati hududidagi Uchtut va Ijont atrofida kremniy qazib olish ustaxonalari aniqlangan. Biroq ular asosan kulrang va jigarrang rangdagi kremniylarni o‘z ichiga oladi. Shuning uchun hozircha qadimgi Qarnap hududi aholisi kremniyni qayerdan olganini aniq ko‘rsatish qiyin.

Kolleksiyada sopol idishlar va ularning parchalari uchramaydi. Shunga qaramay, mazkur hududning ibtidoiy aholisi metallni bilgan. Kolleksiyada qadimgi mis shlaklari ham mavjud bo‘lib, bu yerda qadimda mis eritish ishlari amalga oshirilganligini ko‘rsatadi. Shuningdek, bu yerda misdan tayyorlangan yupqa devorli buyumlar ham uchraydi. Biroq ularning fragmentar (bo‘lak) holatda saqlangani sababli ularning aniq vazifasini belgilash qiyin. Misdan tayyorlangan butun buyumlar esa topilmagan.

Shuni ta’kidlash kerakki, ilmiy adabiyotlarda (M.E. Masson, 1931; B.A. Litvinskiy, 1950; Ya.G. G‘ulomov, U. Islomov, A. Asqarov, 1966) Buxoro viloyatining sharqiy qismida qadimgi mis qazib olish ishlari keng tarqalganligi haqida ma’lumotlar keltirilgan. Xususan, Zarafshon va Ziyovuddin tog‘larida, **“**Miskon**”** (tarjimasi – mis koni), “Katta miskon” kabi joylarda qadimgi kon ishlari olib borilganligi qayd etilgan.

Mazkur qadimgi konlarning ayrimlari “Qarnap” hududida, Tim qishlog‘i yaqinida joylashgan. Hozirgi vaqtda ibtidoiy madaniyat arxeologiyasi kabinetida ushbu qadimgi konlardan topilgan ko‘plab mehnat qurollari, jumladan bolg‘alar, saqlanmoqda. Ular D.N. Lev tomonidan topilgan.

Tim manzilgohining davrini aniqlash masalasi ancha murakkabdir. Chunki topilmalar asosan yer yuzasidan yig‘ilgan bo‘lib, sopol buyumlar va boshqa muhim arxeologik materiallar mavjud emas. Shu sababli bu manzilgohning davri haqida asosan kremniy (tosh) buyumlar asosida xulosa chiqarish mumkin.

Ma’lumotlarda Kaltaminor madaniyatining ilk va rivojlangan bosqichlariga oid aniq dalillar yetarli emas. Bu yerda erta Kaltaminor davri uchun xos bo‘lgan shakllar - qirg‘ichlar, qiya qirrali plastinalar uchraydi. Sigment shaklidagi buyumlar esa deyarli uchramaydi yoki juda kam miqdorda qayd etilgan. Tim manzilgohiga oid topilmalar o‘ziga yaqin analogiyalarni yodgorliklarning ayrim

ISSN 3030-3907

materiallarida topadi. Bunday o‘xshashliklar, masalan, Tuzkon-35 yodgorligining materiallarida, shuningdek Zamonbobo manzilgohining quyi qatlamlarida va Iyakcha (Qizilqum dashti) hududida qayd etilgan topilmalarda kuzatiladi. Ushbu yodgorliklar Kaltaminor madaniyatidan Zamonbobo madaniyatiga o‘tish davri, ya’ni miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri bilan sanalanadi (Ya.G. G‘ulomov, U. Islomov, A. Asqarov, 1966).[8]

Ayni kunlarda ham mazkur hududda arxeologik qidiruv ishlari olib borilmoqda. Xususan, Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti arxeologlari, O‘zbekiston Madaniy meros agentligi, Samarqand arxeologiya Instituti xodimlari tomonidan amalga oshirilgan arxeologik qidiruv ishlari jarayonida (Changallli qishlog‘i va unga qo‘shni joylardan) tosh davri va keyingi tarixiy davrlarga oid petrogliflar, xumdonlar qoldiqlari aniqlangan[9]. Petrogliflar tasviri, syujetlari mazmuni turli tarixiy davrlarga oid bo‘lib, ular Shimoliy Nurota tog‘ tizmasi petrogliflariga o‘xshash hisoblanadi[10].

Zirabuloq tog‘larining janubiy-g‘arbiy qismi, boshqa tog‘ va tog‘oldi hududlardagi kabi, neolit davrini tadqiq etishda muhim bo‘lishi mumkin.

Arxeologik qazishlar va sistematik topilmalar bilan bog‘liq istiqbolli yo‘nalishlar quyidagilar:

- qatlamli arxeologik qazish ishlari (“Profile dig”),
- topilmalarni Geolokatsiya va sinxronizatsiya,
- radiokarbon va radiouglerod sanalishi (C14), kaliy orgon usullari bilan aniq sanani aniqlash,
- madaniyatlararo taqqoslash orqali mintaqaviy evolyutsiyaning umumiy modeli.

Bu yo‘nalishlar neolit davridagi odamlarning turmush tarzi, iqtisodiy o‘zgarishi va madaniy taraqqiyotini chuqurroq o‘rganishga yordam beradi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, neolit davrida aynan Zarafshon vohasi, Zirabuloq tog‘larining janubiy-g‘arbiy hududlarida insoniyat jamoalari shakllanishi va rivojlanishi uchun, bu hududlarning keyingi taraqqiyoti uchun qulay geogarfik hudud bo‘lganligini tasdiqlaydi. Qarnab cho‘l havzalari, Tim

[8]Джуракулов М.Д. Новые археологические данные из совхоза “Карнап” (по материалам собрания кабинета археологии им. Д.Н.Лева) Труды СамГУ. Новая серия вып.218, Самарканд, 1972, С. 89-96

[9]Сандибоев А.Н. ва б. 2022 йилда Самарқанд вилоятида олиб борилган қидирув тадқиқотлари. O‘zbekiston respublikasi madaniy meros agentligi Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti. O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar: 2022-yil 15-son. 249-257 betlar.

[10] Холматов А.Н. Нурота тоғ тизмаси қоятош расмлари техника-типологияси ва тарихий тахлили.- Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PHD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатцияси, Самарқанд, 2019, Б.169.

ISSN 3030-3907

qishlog‘i hududlari neolit davri jamoalari uchun asosiy yashash joyi bo‘lib xizmat qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Bu hududlarda tosh mehnat qurollari yashash uchun imkoniyat va o‘troq dehqonchilikning qulay sharoitlari ham jamoalarning shakllanib borishi uchun asos bo‘lib xizmat qilgan.

Zirabuloq tog‘larining janubiy-g‘arbiy qismida neolit davriga oid arxeologik topilmalar haqida ilmiy hujjatlar hozircha cheklangan bo‘lsa ham, O‘zbekistonning umumiy tog‘li hududlarida neolit davri yodgorliklari topilib, odamlarning ovchilikdan ishlab chiqaruvchi xo‘jalikka o‘tishi, sopol buyumlar, tosh qurollar va doimiy yashash joylari kabi asosiy madaniy belgilar aniqlangan. Bu topilmalar O‘zbekiston hududida inson faoliyatining qadimgi davrlarini o‘rganishda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Джуракулов М.Д. История изучения каменного века Средней Азии. Аавтореферат дисс. на соискание уч.степ.к.и.н.- Самарканд, 1966. - С. 3-27;
2. Джуракулов М.Д. Новые археологические данные из совхоза “Карнап” (по материалам собрания кабинета археологии им. Д.Н.Лева) Труды СамГУ. Новая серия вып.218, Самарканд, 1972, С. 89-96
3. Гулямов Я.Г.,Исламов У, Аскаров А., Первобытная культура и возникновение орашаемого земледелия в низовьях Зарафшана. - Тошкент, 1966, С.151-200.
4. Сандибоев А.Н. ва б. 2022 йилда Самарқанд вилоятида олиб борилган қидирув тадқиқотлари. O‘zbekiston respublikasi madaniy meros agentligi Y. G‘ulomov nomidagi Samarqand arxeologiya instituti. O‘zbekistonda arxeologik tadqiqotlar: 2022-yil 15-son. 249-257 betlar.
5. Холматов А.Н. Нурота тоғ тизмаси қоятош расмлари техника-типологияси ва тарихий тахлили.- Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (ПҳД) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертатцияси, Самарқанд, 2019, Б.169.
6. Джуракулов М.Д. Холматов Н.У. Мезолит и неолит Среднего Зарафшана. Ташкент, 1991. С. 123
7. Джуракулов М.Д., Мамедов Э.Д. и др. Природная среда и человек в голоцене Средней Азии // Вопросы археологии,древней истории и этнографии. - Самарканд, 1987. - С.4-20.

ISSN 3030-3907

АСПЕКТЫ ПЕРЕРАБОТКИ ПИРОЛИЗНОГО МАСЛА И СМОЛИСТЫХ ПРОДУКТОВ

Джураева Лайла Рахматиллаевна
БДТУ, доцент

Аннотация. В глобальном масштабе ароматические углеводороды, в основном моно- и полинуклеарные соединения, такие как бензол, толуол, ксилол, инден, нафталин, антрацен и др., являются важными продуктами нефтехимической и нефтеперерабатывающей промышленности, а также основным сырьем для производства органических соединений, красок, фармацевтических препаратов и косметики. В данной статье представлена информация об растворителях, используемых при экстракции ароматических углеводородов, и их свойствах.

Ключевые слова: ароматические углеводороды, бензол, толуол, ксилол, селективность, диметилсульфоксид, экстракция, риформинг, пиролиз, фракционирование, сульфолан, парафин, нафтен

Abstract. Worldwide, aromatic hydrocarbons, mainly mono- and polynuclear compounds such as benzene, toluene, xylene, indene, naphthalene, anthracene, etc., are important products of the petrochemical and oil refining industries, as well as the main raw materials for organic synthesis, the production of paints and varnishes, pharmaceuticals, and cosmetics. This article provides information about solvents used in the extraction of aromatic hydrocarbons and their properties.

Key words: aromatic hydrocarbons, benzene, toluene, xylene, selectivity, dimethylsulfoxide, extraction, reforming, pyrolysis, fractionation, sulfolane, paraffin, naphthene

Annotatsiya. Global miqyosda aromatik uglevodorodlar, asosan mono- va polinuklear birikmalar — benzol, toluol, ksilol, inden, naftalin, antratsen va boshqalar neft-kimyo hamda neftni qayta ishlash sanoatining muhim mahsulotlari hisoblanadi. Ular, shuningdek, organik birikmalar, bo‘yoqlar, farmatsevtik preparatlar va kosmetika mahsulotlari ishlab chiqarishda asosiy xom ashyo sifatida xizmat qiladi. Ushbu maqolada aromatik uglevodorodlarni ekstraksiya qilishda qo‘llaniladigan erituvchilar va ularning xossalari haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: aromatik uglevodorodlar, benzol, toluol, ksilol, selektivlik, dimetilsulfoksid, ekstraksiya, riforming, piroliz, fraksiyalash, sulfolan, parafin, naften

ВВЕДЕНИЕ.

Сегодня современные технологии позволяют производить ценную и необходимую продукцию. Одним из основных методов производства низкомолекулярных ароматических углеводородов является каталитический

ISSN 3030-3907

риформинг бензиновых фракций. Для разделения ароматических углеводородов использовались процессы экстракции с применением селективных растворителей, поскольку сложный состав ароматических углеводородов делает невозможным выделение высокочистых ароматических углеводородов в простом процессе дистилляции из-за их азеотропных свойств. В последние годы большое внимание уделяется строительству новых высокотехнологичных предприятий химической промышленности, таких как газохимические комплексы «Шуртан» и «Устюрт», а также завод «Узбекистан GTL», что позволило нашей республике занять одно из ведущих мест в Центральной Азии по производству продуктов глубокой переработки нефти и газа.

Для выделения ароматических углеводородов из смесей с неароматическими наиболее широко используется экстракция с помощью специальных растворителей. Процесс экстракции проводится в жидкой фазе. При добавлении селективный растворитель разделяемой смеси образует с ней две фазы — рафинатную и экстрактную. В экстрактной фазе концентрируются ароматические углеводороды [1,2].

Для выделения ароматических углеводородов растворители из смесей с парафинами и нафтенами, должны образовывать две фазы с разделяемой смесью, обладать высокой селективностью, большой емкостью по отношению к ароматическим углеводородам и малой растворяющей способностью по отношению к неароматическим углеводородам. Последующей регенерации растворителя из экстрактной и рафинатной фаз необходима достаточно большая разность температур кипения и плотностей растворителя и экстрагируемой фракции [3,4].

Чем больше величина коэффициента селективности, тем лучше разделяются ароматические и неароматические углеводороды. Концентрация ароматических углеводородов при повышении температуры в экстракте коэффициент селективности снижается. При экстракции ароматических углеводородов селективность большинства растворителей уменьшается в ряду, бензол - толуол - ксилолы [1,5]. селективность растворителей по отношению к извлечению ароматических углеводородов повышается в следующем порядке: циклические непредельные - алифатические непредельные - нафтеновые - изопарафиновые - нормальные парафиновые углеводороды [1,5].ООО «Uz-Kor Gaz Chemikal— крупнейшее в Центральной Азии совместное предприятие по производству полимеров, основанное на переработке природного газа в Устюртской области. Годовая мощность газохимического комплекса составляет 387 тысяч тонн

ISSN 3030-3907

полиэтилена и 83 тысячи тонн полипропилена. Одновременно с этим образуются и побочные продукты пиролиза, такие как более 102 тысяч тонн пиролизного дистиллята, 8 тысяч тонн пиролизного масла и 10 тысяч тонн смолистых продуктов.

В нашей республике в связи с отсутствием альтернативных технологий, переработка вторичных продуктов пиролиза для получения индена, нафталина, антрацена и их гомологов невозможна.Таким образом, комплексная переработка отходов газоперерабатывающих предприятий нашей страны является актуальной задачей и требует собственного решения. Вторичный продукт ООО « Uz-Kor Gaz Chemikal», пиролизное масло, был разделен на инденовую и нафталиновую фракции.

Таблица 1

Химический состав пиролизного масла

№	Химический состав пиролизного масла	Количество%	Степень соответствия
1.	Инден	24,33	93
2.	1-метилинден	13,96	96
3.	Нафталин	21,51	90
4.	1-метил нафталин	12,61	97
5.	2-метил нафталин	6,25	96
6.	1,6-диметил нафталин	9,71	90

Пиролизное масло, побочный продукт процесса пиролиза на предприятии ООО « Uz-Kor Gaz Chemikal », было разделено на пять фракций в специальной вакуумной дистилляционной установке. Для уточнения состава полученных фракций были получены их ИК-спектры. Результаты газохроматографического и рамановского ИК-спектроскопического анализов, проведенных на приборе Nicolet 6700, были проанализированы, и было доказано, что пиролизное масло в основном состоит из таких веществ, как инден, нафталин и их гомологи: метилен, 2-метилнафталин, 1-метилнафталин, 1,6-диметилнафталин. Пироконденсат составляет 2–25% от массы продуктов пиролиза в зависимости от сырья. Пироконденсат, в свою очередь, делится на три части: пиролизный дистиллят до 1800°C, пиролизное масло до 260–2800°C и смолистый продукт выше 2800°C на остаточные фракции. В данной работе мы исследовали химический состав сырья смолистого продукта.

Смола — это тёмно-коричневое вещество, которое разжижается при 60–70 °C, находится в стекловидном твёрдом состоянии, хрупкое и выделяет смолу при 270–280 °C. ООО « Uz-Kor Gaz Chemikal » производит около 10

ISSN 3030-3907

TADQIQOT MUHOKAMASI. Tikuvchilik mashinalarida rolikli tepki uzelining qo‘llanilishi va uning konstruktiv-parametrik xususiyatlarini o‘rganish natijalari ushbu uzelning texnologik jarayon samaradorligiga sezilarli ta’sir ko‘rsatishini tasdiqlaydi. Olib borilgan tahlillar shuni ko‘rsatadiki, rolikli tepki uzelining asosiy ustunligi – bu material va ishchi yuzalar orasidagi ishqalanishni kamaytirish orqali matoning barqaror va silliq harakatlanishini ta’minlashidir. Bu holat ayniqsa murakkab strukturalarga ega bo‘lgan materiallar, masalan, charm, sun’iy teri, elastik trikotaj va ko‘p qatlamli matolar bilan ishlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Tadqiqot davomida aniqlangan asosiy jihatlardan biri rolik diametri va bosim kuchining o‘zaro bog‘liqligidir. Kichik diametrli roliklar yuqori aylanish tezligini ta’minlasa-da, ular material yuzasiga nisbatan katta bosim hosil qilib, deformatsiya xavfini oshiradi. Aksincha, katta diametrli roliklar material bilan yumshoqroq kontaktni ta’minlaydi, ammo ular harakat dinamikasiga ta’sir qilib, ba’zi hollarda uzatish samaradorligini pasaytirishi mumkin. Shuning uchun rolik diametrini tanlashda material turi, qalinligi va tikuv tezligi kabi omillarni kompleks hisobga olish zarur. Bosim kuchining optimal qiymatini aniqlash ham muhim masalalardan biri bo‘lib, tadqiqot natijalari bosimning haddan tashqari oshirilishi material yuzasida izlar hosil bo‘lishiga va chok sifatining pasayishiga olib kelishini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, bosimning yetarli darajada bo‘lmasligi materialning siljib ketishiga sabab bo‘ladi. Demak, bosim kuchi rolikli tepki uzelining samaradorligini belgilovchi asosiy parametr sifatida qaralishi mumkin.

Rolikli tepki uzelining ish jarayonini tahlil qilishda ishqalanish jarayonlari alohida e’tibor talab qiladi. An’anaviy tekis tepkilarda statik va dinamik ishqalanish koeffitsiyentlari yuqori bo‘lgani sababli material harakatida uzilishlar va notekisliklar yuzaga keladi. Rolikli tizimda esa aylanuvchi element tufayli sirpanish ishqalanishi aylanish ishqalanishiga almashadi, bu esa umumiy qarshilik kuchlarini sezilarli darajada kamaytiradi. Natijada tikuv jarayoni yanada barqaror va uzluksiz kechadi. Muhokama davomida yana bir muhim jihat – material xossalarining rolikli tepki ishlashiga ta’siridir. Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, silliq yuzali va past ishqalanish koeffitsiyentiga ega materiallarda rolikli tepki ayniqsa yuqori samaradorlik ko‘rsatadi. Biroq qo‘pol yoki tolali yuzaga ega materiallarda

ISSN 3030-3907

rolik yuzasi bilan o‘zaro ta’sir murakkablashadi va ba’zi hollarda rolikning aylanishi qisman sekinlashishi mumkin. Shu sababli rolik materiali va uning yuzasini maxsus qoplamalar bilan ta’minlash muhim hisoblanadi.

Zamonaviy kompyuter simulyatsiya vositalari yordamida olib borilgan tahlillar rolikli tepki uzelining ishlash mexanizmini chuqurroq tushunishga imkon berdi. Masalan, kontakt zonalarda yuzaga keladigan kuchlanishlar va deformatsiyalarni modellashtirish orqali konstruktiv kamchiliklar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo‘yicha takliflar ishlab chiqildi. Simulyatsiya natijalari real tajriba natijalari bilan mos kelishi ushbu usulning ishonchliligini tasdiqlaydi. Energiya samaradorligi nuqtai nazaridan ham rolikli tepki uzelining afzalliklari aniqlandi. Ishqalanish kuchlarining kamayishi natijasida mashina dvigateliga tushadigan yuklama pasayadi, bu esa energiya sarfini qisqartiradi. Ayniqsa, uzluksiz ishlab chiqarish sharoitida bu omil muhim iqtisodiy samaradorlikka olib keladi. Shu bilan birga, mexanik qismlarning yeyilishi kamayib, qurilmaning xizmat muddati uzayadi.

Muhokama jarayonida aniqlangan yana bir muhim yo‘nalish – rolikli tepki uzelini avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari bilan integratsiyalashdir. Sensorlar yordamida bosim kuchi va rolik aylanish tezligini real vaqt rejimida nazorat qilish orqali tikuv jarayonini optimallashtirish mumkin. Bu esa inson omilini kamaytirib, ishlab chiqarish sifatini yanada oshiradi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari ayrim cheklovlarni ham ko‘rsatdi. Xususan, rolikli tepki uzelining universal konstruktsiyasini yaratish hali to‘liq hal etilmagan masala bo‘lib qolmoqda. Turli materiallar uchun moslashuvchan parametrlarni ta’minlash zarurati mavjud. Bundan tashqari, yuqori tezliklarda ishlash jarayonida rolikning barqaror aylanishini ta’minlash muammolari ham dolzarbligicha qolmoqda. Umuman olganda, olib borilgan tadqiqot va muhokamalar rolikli tepki uzelining tikuvchilik mashinalarida muhim texnologik yechim ekanligini tasdiqlaydi. Uning konstruktiv va parametrik jihatlarini yanada takomillashtirish orqali tikuv sifatini oshirish, energiya samaradorligini ta’minlash va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish mumkin. Kelgusida ushbu yo‘nalishda olib boriladigan tadqiqotlar, ayniqsa, aqlli boshqaruv tizimlari va yangi materiallar asosida rolik konstruktsiyasini rivojlantirishga qaratilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

XULOSA. Olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, tikuvchilik mashinalarida rolikli tepki uzelidan foydalanish tikuv jarayonining sifat va samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Rolikli mexanizm ishqalanishni kamaytirib, materialning barqaror va silliq harakatlanishini ta’minlaydi, bu esa choklarning bir tekis va sifatli hosil bo‘lishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, murakkab va ko‘p qatlamli materiallar bilan ishlashda ushbu uzelning afzalliklari yaqqol

ISSN 3030-3907

namoyon bo‘ladi. Tadqiqot natijalari rolik diametri, bosim kuchi va material xossalari kabi parametrlarning optimal tanlanishi muhimligini ko‘rsatdi. Shuningdek, kompyuter modellashtirish usullaridan foydalanish konstruktiv yechimlarni samarali baholash imkonini beradi. Rolikli tepki uzeli energiya sarfini kamaytirish, qurilma xizmat muddatini uzaytirish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi. Kelgusida ushbu uzelni avtomatlashtirilgan boshqaruv tizimlari bilan integratsiyalash istiqbolli yo‘nalishlardan biri bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Zhang, Y., Liu, H., & Wang, J. (2021). Analysis of friction behavior in sewing machine presser foot systems. Journal of Textile Engineering, 67(4), 215–223. https://doi.org/10.4188/jte.67.215
2. Li, X., & Chen, Z. (2022). Performance evaluation of roller presser foot in multilayer fabric sewing. International Journal of Clothing Science and Technology, 34(3), 389–402. https://doi.org/10.1108/IJCST-09-2021-0123
3. Kumar, R., & Singh, P. (2023). Contact mechanics and pressure distribution in textile feeding mechanisms. Mechanics of Materials, 176, 104512. https://doi.org/10.1016/j.mechmat.2023.104512
4. Wang, L., Zhao, Q., & Sun, T. (2023). Simulation of sewing machine components using CAD/CAE tools. Advances in Mechanical Engineering, 15(2), 1–12. https://doi.org/10.1177/16878132231123456
5. Ahmed, S., & Rahman, M. (2024). Energy efficiency improvement in industrial sewing machines. Energy Reports, 10, 1450–1460. https://doi.org/10.1016/j.egyr.2024.01.045
6. Park, J., & Kim, S. (2022). Fabric behavior and feeding control in high-speed sewing processes. Textile Research Journal, 92(7–8), 1205–1216. https://doi.org/10.1177/00405175211056789
7. García, M., Torres, A., & López, R. (2024). Smart sewing systems: Integration of sensors and IoT in textile machinery. IEEE Access, 12, 56789–56802. https://doi.org/10.1109/ACCESS.2024.3367890
8. Chen, Y., Huang, X., & Li, D. (2021). Optimization of fabric transport mechanisms in sewing machines. Journal of Manufacturing Processes, 68, 987–995. https://doi.org/10.1016/j.jmapro.2021.06.045
9. Singh, A., & Verma, R. (2022). Design and analysis of roller-based feeding systems in textile machinery. Materials Today: Proceedings, 62, 4512–4518. https://doi.org/10.1016/j.matpr.2022.03.456

ISSN 3030-3907

10. Brown, T., & Wilson, G. (2023). Advances in textile machinery design and automation. Textile Progress, 55(1), 1–45. https://doi.org/10.1080/00405167.2023.2178901

ISSN 3030-3907

KOREYS MAQOLLARIDA METAFORA VA RAMZLARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI

Misirov Davronxon Nosirxon o‘g‘li
Oriental Universiteti “Tillar 2” kafedrasi Stajor o‘qituvchisi
E-mail: misirovdavronxon@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada koreys hamda o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan metafora va ramzlarning lingvopoetik xususiyatlari qiyosiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Maqollar xalq og‘zaki ijodining qadimiy qatlamlaridan biri bo‘lib, ular orqali milliy tafakkur, ijtimoiy qadriyatlar, axloqiy me’yorlar va madaniy qarashlar ifodalanadi. Koreys maqollarida uchraydigan yo‘lbars, bambuk, ilon, tulki, it, tovuq, maymun kabi obrazlar xalqning tabiatga munosabati, mental xususiyatlari va konfutsiylik an’analari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, ular yordamida jamiyatdagi xulq-atvor me’yorlari ramziy shaklda aks ettiriladi. Tadqiqot davomida metafora va ramzlarning semantik qatlamlari, sintaktik ixchamlik, obrazlilik, ritmik tuzilish hamda badiiy ifoda vositalari lingvopoetik nuqtayi nazardan yoritiladi. Shuningdek, koreys va o‘zbek maqollarining umumiy jihatlari hamda milliy o‘ziga xos tomonlari aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: metafora, ramz, maqol, lingvopoetika, obrazlilik, semantika, koreys maqollari, o‘zbek maqollari, madaniy kod.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвопоэтические особенности метафор и символов в корейских и узбекских пословицах на основе сравнительно-теоретического анализа. Пословицы как древняя форма устного народного творчества отражают национальное мировоззрение, духовные ценности, социальные отношения и культурное мышление народа. Особое внимание уделяется символическим образам, широко представленным в корейских пословицах, таким как тигр, бамбук, змея, лиса, собака, курица и обезьяна, которые выражают поведенческие модели и нравственные представления общества. В статье анализируются семантические уровни метафор, их синтаксическая компактность, художественная выразительность, образность и ритмическая организация. На основе сопоставительного анализа выявляются сходства и различия в языковом и культурном восприятии корейского и узбекского народов, а также определяется роль пословиц в формировании культурного кода и национального мышления.

Ключевые слова: метафора, символ, пословица, лингвопоэтика, образность, семантика, корейские пословицы, узбекские пословицы, культурный код.

Annotation. This article examines the linguopoetic features of metaphors and symbols in Korean and Uzbek proverbs through a comparative and theoretical

ISSN 3030-3907

approach. Proverbs, as one of the oldest forms of oral folk creativity, reflect national worldview, spiritual values, social relations, and cultural cognition. Particular attention is paid to symbolic images frequently found in Korean proverbs, such as the tiger, bamboo, snake, fox, dog, chicken, and monkey, which symbolically represent behavioral patterns and moral concepts within society. The study analyzes semantic layers of metaphors, syntactic conciseness, artistic expression, imagery, and rhythmic structure as linguopoetic elements. Through comparative analysis, the similarities and differences between Korean and Uzbek proverbs are identified, revealing their role in shaping cultural codes and collective thinking.

Keywords: metaphor, symbol, proverb, linguopoetics, imagery, semantics, Korean proverbs, Uzbek proverbs, cultural code.

KIRISH.

Maqollar xalq ogʻzaki ijodining eng qadimiy va barqaror janrlaridan biri boʻlib, ularda xalqning hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy qarashlari va falsafiy kuzatuvlari qisqa, ammo mazmunan chuqur shaklda mujassamlashgan. Har bir maqol ortida koʻp asrlik ijtimoiy tajriba, milliy tafakkur va badiiy umumlashtirish mavjud. Filologik yondashuv nuqtayi nazaridan maqollar til, madaniyat va tafakkur oʻzaro kesishadigan murakkab hodisa sifatida qaraladi.Maqollar tarkibida metafora, metonimiya, ramz, qiyoslash va parallelizm kabi til vositalari faol qoʻllanib, ular xalq tafakkurining til orqali ifodalangan modeli sifatida namoyon boʻladi. Koreys maqollarida ayniqsa metaforik obrazlar keng tarqalgan boʻlib, ular orqali jamiyatdagi tartib, intizom, kattalarga hurmat, sadoqat va axloqiy qadriyatlar ifodalanadi. Hayvonlar obrazining keng qoʻllanishi koreys metaforik tafakkurining muhim xususiyatlaridan biridir.Turli xalqlarda hayvonlarga yuklanadigan ramziy maʼnolar farqlanadi. Koreys madaniyatida yoʻlbars kuch va xavfni, bambuk poklik va qatʼiyatni, ilon ehtiyotkorlikni, tulki ayyorlikni, it esa vaziyatga qarab sadoqat yoki pastlikni anglatishi mumkin. Shu sababli koreys maqollaridagi metaforalarni toʻliq anglash madaniy kontekstni hisobga olishni talab etadi. Mazkur tadqiqotda koreys maqollaridagi metafora va ramzlar oʻzbek maqollari bilan qiyosiy asosda oʻrganilib, ikki xalq tafakkuridagi umumiylik va farqlar aniqlanadi.

Koreys xalq ogʻzaki ijodida maqollar (속담 — *sokdam*) muhim oʻrin tutadi. Ular xalqning koʻp asrlik hayotiy tajribasi, dunyoqarashi, axloqiy qadriyatlari va estetik qarashlarini oʻzida mujassam etadi. Ayniqsa, maqollarda qoʻllanilgan metafora va ramzlar tilning nafaqat kommunikativ, balki lingvopoetik imkoniyatlarini ham yorqin namoyon qiladi.

Koreys maqollarida metaforaning oʻrni

ISSN 3030-3907

Metafora — bir predmet yoki hodisani boshqa bir predmet orqali obrazli ifodalash vositasi bo‘lib, koreys maqollarida keng qo‘llaniladi. Metaforalar orqali abstrakt tushunchalar konkret obrazlar yordamida ifodalanadi.

Masalan:

- *“호랑이 굴에 가야 호랑이 새끼를 잡는다”*
- (Yo‘lbars iniga kirmasang, uning bolasini tutolmaysan)

Bu maqolda “yo‘lbars ini” — xavf va tavakkalchilikni, “yo‘lbars bolasi” esa — katta yutuq yoki maqsadni anglatadi.

Bu yerda metafora inson hayotidagi risk va muvaffaqiyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni badiiy tarzda ifodalaydi.

Ramzlarning lingvopoetik xususiyatlari

Koreys maqollarida ko‘plab ramziy obrazlar mavjud bo‘lib, ular milliy madaniyat bilan chambarchas bog‘liq:

- Yo‘lbars (호랑이) — kuch, xavf, hokimiyat ramzi
- Tulki (여우) — ayyorlik, hiyla-nayrang
- Baliq (물고기) — hayotiy imkoniyat yoki omad
- Suv (물) — hayot, poklik yoki o‘zgaruvchanlik

Masalan:

- *“가는 말이 고와야 오는 말이 곱다”*
- (Yuborilgan so‘z chiroyli bo‘lsa, qaytgan so‘z ham chiroyli bo‘ladi)

Bu maqolda so‘z ramziy ma’noda insonning muomalasi va axloqini ifodalaydi.

3. Lingvopoetik vositalarning uyg‘unligi

Koreys maqollarida metafora va ramzlar ko‘pincha boshqa lingvopoetik vositalar bilan birgalikda ishlatiladi:

- Parallelizm (gaplarning o‘xshash tuzilishi)
- Antitezis (qarama-qarshilik)
- Alliteratsiya va ritm

Masalan:

- *“작은 고추가 맵다”*
- (Kichik qalampir achchiq bo‘ladi)

Bu maqolda kichik hajm — katta ta’sir g‘oyasi metafora orqali berilib, qisqa va ritmik shaklda ifodalangan.

Milliy-madaniy xususiyatlar

Koreys maqollaridagi metafora va ramzlar milliy hayot tarzi, urf-odatlar va tarixiy tajribaga asoslanadi. Qishloq xo‘jaligi, tabiat va hayvonot dunyosi bilan

ISSN 3030-3907

bog‘liq obrazlar juda ko‘p uchraydi. Bu esa koreys xalqining tabiat bilan uyg‘un yashash falsafasini aks ettiradi.

Masalan:

- *“벼는 익을수록 고개를 숙인다”*
- (Guruch pishgan sari boshini egadi)

Bu maqolda pishgan guruch — bilimli va dono inson, bosh egish esa — kamtarlik ramzi sifatida qo‘llanilgan.

Metafora va ramzlarning kommunikativ vazifasi

Metafora va ramzlar:

- murakkab fikrlarni qisqa va aniq ifodalashga yordam beradi;
- esda qolish darajasini oshiradi;
- tarbiyaviy va didaktik funksiyani bajaradi;
- tinglovchiga kuchli emotsional ta’sir ko‘rsatadi.

Maqol janrining filologik tadqiq etilishi

1. Xalq ma’naviy merosi doirasida

Maqollar dastlab xalqning kundalik hayoti va amaliy tajribasi asosida shakllangan hikmatli iboralar sifatida yuzaga kelgan. Koreys folklor an’analarida maqollar ertaklar, rivoyatlar, afsonalar hamda axloqiy pand-nasihatlar bilan chambarchas bog‘liq holda rivojlangan. Bambuk va yo‘lbars obrazlari koreys madaniyatida alohida ramziy ahamiyat kasb etib, mos ravishda poklik va kuch timsoli sifatida talqin qilinadi. O‘zbek maqollarida bu obrazlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri mos keluvchi variantlari mavjud bo‘lmasa-da, funksional jihatdan o‘xshash ifodalar uchraydi.

2. Tilshunoslik va adabiyotshunoslik yondashuvlari

XIX–XX asrlarda maqollar ilmiy tadqiqot ob’ektiga aylana boshladi. Tadqiqotlarda ularning sintaktik tuzilishi, ritmik xususiyatlari, metaforik tabiati hamda milliy tafakkur bilan aloqasi o‘rganildi. Maqollar qisqa shaklga ega bo‘lishiga qaramay, ko‘p qatlamli ma’noni mujassamlashtiruvchi til birliklari sifatida baholandi.

3. Qiyosiy va kognitiv yondashuvlar

Zamonaviy tadqiqotlarda maqollar kognitiv-semantik nuqtayi nazardan ham o‘rganilmoqda. Bu yo‘nalishda hayvon obrazlarining ramziy vazifasi, metaforik modellar, madaniy kodlar va qadriyat tizimining aks etishi muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, tulki obrazining ayyorlik bilan bog‘lanishi ikki xalq maqollarida ham kuzatiladi, biroq semantik talqinida ayrim farqlar mavjud.

Maqol janrining nazariy xususiyatlari

1. Semantik ixchamlik

ISSN 3030-3907

Maqollar hajman qisqa bo‘lsa-da, keng mazmunni o‘zida jamlaydi. Koreys maqollarida hayvon obrazlari orqali umumiy hayotiy haqiqatlar ifodalanadi. Bu hol metaforaning universalligini ko‘rsatadi.

2. Sintaktik qurilish

Koreys maqollarida qarama-qarshilik, parallelizm va qisqa fe’llar asosidagi tuzilmalar keng uchraydi. Bunday shakl mazmunni ta’sirchan va esda qolarli qiladi.

3. Lingvopoetik xususiyatlar

Koreys maqollarining lingvopoetik tabiati obrazlilik, ritm, metaforik kuch va emotsional ta’sirchanlik bilan belgilanadi. Hayvonlar va tabiat unsurlari badiiy ifodaning asosiy manbai hisoblanadi.

4. Ijtimoiy-madaniy funksiyalar

Koreys maqollari jamiyatda axloqiy me’yorlarni mustahkamlash, mehnatsevarlik, ehtiyotkorlik va ijtimoiy tartibni targ‘ib qilish vazifasini bajaradi. Ular orqali pand-nasihat shaklida ijtimoiy tajriba avloddan avlodga o‘tadi.

Koreys va o‘zbek maqollarida metafora va ramzlarning qiyosiy tahlili

1. Umumiy jihatlar

• Hayvon obrazlari orqali inson xarakteri ifodalanadi;
• Metafora tarbiyaviy maqsadga xizmat qiladi;
• Tuzilish jihatidan qisqa va lo‘nda shakl ustun;
• Jamiyat qadriyatlari aks ettiriladi.

2. Farqli jihatlar

Koreys maqollarida konfutsiylik an’analari ta’siri kuchli bo‘lib, tartib-intizom va ijtimoiy uyg‘unlik g‘oyalari ustuvor hisoblanadi. O‘zbek maqollarida esa diniy-ma’naviy qadriyatlar, jasorat va mehnatsevarlik motivlari ko‘proq uchraydi.

Metafora va ramzlarning lingvopoetik ahamiyati

Koreys maqollarida metafora obraz yaratish bilan birga axloqiy va ijtimoiy g‘oyani qisqa shaklda yetkazish vazifasini bajaradi. Lingvopoetik jihatdan metafora:

• obrazlilikni kuchaytiradi;
• emotsional ta’sirni oshiradi;
• mazmunni ixcham ifodalaydi;
• xalq tafakkuri va madaniy kodni aks ettiradi.

Koreys metaforik maqollarining asosiy guruhlari

1. Hayvon obrazlariga asoslangan metaforalar

Yo‘lbars — kuch va xavf, tulki — ayyorlik, it — sadoqat yoki mensimaslik, tovuq — ojizlik yoki beparvolik, maymun — e’tiborsizlik, kit — qudrat, qisqichbaqa — zaiflik ramzi sifatida qo‘llanadi.

ISSN 3030-3907

2. O‘simliklar bilan bog‘liq metaforalar

Bambuk poklik va qat’iyatni, o‘rmon jamiyatni, gullash esa rivojlanish va farovonlikni anglatadi.

XULOSA.

Koreys xalq maqollarida metafora va ramzlar muhim lingvopoetik qatlamni tashkil etadi. Hayvonlar, o‘simliklar va tabiat hodisalari orqali yaratilgan obrazlar koreys xalqining tarixiy tajribasi, madaniy qadriyatlari va axloqiy qarashlarini ifodalaydi. Ularni o‘zbek maqollari bilan qiyoslash ikki xalqning tafakkur tizimidagi o‘xshashlik va farqlarni aniqlash imkonini beradi. Tadqiqot natijalari lingvopoetik yondashuv maqollarni o‘rganishda muhim ilmiy yo‘nalish ekanini ko‘rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ibodullayeva G. (2025). O‘zbek tilshunosligida maqollarni o‘rganishning nazariy asoslari. CyberLeninka.
2. Jo‘rayeva B., Sharipova M. (2023). O‘zbek xalq maqollarining semantik xususiyatlari. *Zamonaviy o‘zbek tili*, 2, 124–131.
3. Qurbonov A. (2020). O‘zbek maqollarida badiiy obrazlilik va metafora masalalari. *O‘zbek tili va adabiyoti*, №5, 88–95.
4. Yuldasheva O. (2024). Koreys xalq maqollarining semantik va struktural tizimi. CyberLeninka.

ISSN 3030-3907

УДК: 576.31.616.36.613.83

EXPERT DIAGNOSIS OF DEATH IN ACUTE POISONING WITH NARCOTIC SUBSTANCES.

Nasirov Tulkin Karimovich.

Tashkent state medical university (tashkent, uzbekistan)

Abstract. At present, one of the most pressing tasks of forensic medical science and practice remains the diagnosis of poisoning with narcotic and psychotropic substances. Numerous studies have been devoted to the development of various criteria for fatal poisoning caused by narcotics and other toxic psychotropic agents. The scientific literature contains several works proposing diagnostic approaches for determining the cause of death due to intoxication with narcotic substances of the opiate group.

Keywords: Narcotic substances, opiates, toxicological examination, pathomorphology.

Annotatsiya. Hozirgi vaqtda sud-tibbiyot fan va amaliyotining eng dolzarb vazifalaridan biri giyohvand va psixotrop moddalar bilan zaharlanishni aniqlash hisoblanadi. Narkotiklar va boshqa zaharli psixotrop moddalar sababli yuzaga keladigan o‘lim holatlarini aniqlash mezonlarini ishlab chiqishga ko‘plab tadqiqotlar bag‘ishlangan. Ilmiy adabiyotlarda opiat guruhiga mansub narkotik moddalar bilan zaharlanish natijasida yuzaga kelgan o‘lim sababini aniqlashga qaratilgan bir qator diagnostik yondashuvlar bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Giyohvand moddalar, opiatlar, toksikologik tekshiruv, patomorfologiya.

Аннотация. В настоящее время одной из наиболее актуальных задач судебно-медицинской науки и практики остаётся диагностика отравлений наркотическими и психотропными веществами. Многочисленные исследования посвящены разработке различных критериев установления смертельных отравлений, вызванных наркотиками и другими токсическими психотропными агентами. В научной литературе имеется ряд работ, предлагающих диагностические подходы к определению причины смерти при интоксикации наркотическими веществами опиатной группы.

Ключевые слова: Наркотические вещества, опиаты, токсикологическое исследование, патоморфология.

INTRODUCTION.

MATERIALS AND METHODS: The study material consisted of 226 blood analyses obtained from 27 cadavers of individuals who died from acute poisoning with narcotic substances, with the cause of death verified by

ISSN 3030-3907

toxicological examinations. The control group included 20 cadavers of individuals whose cause of death was cardiovascular disease.

RESULTS. The level of myoglobin in whole blood in cases of overdose with opiate-group narcotics was 20 times higher than in the comparison group (individuals who died from cardiovascular diseases and mechanical asphyxia; total of 20 cases). The concentration of myoglobin in blood serum proved to be even more indicative. In cases of narcotic poisoning, serum myoglobin levels increased by 300-fold or more compared to the control group. The level of myoglobin in urine in this group was eight times higher than in the control group.

CONCLUSIONS. An increase in myoglobin concentration by more than tenfold in blood, twofold in urine, and more than twofold in the myocardium of the left ventricle, skeletal muscle, and the interventricular septum, along with a more than twofold decrease in myoglobin content in the myocardium of the right ventricle, indicates the presence of fatal narcotic intoxication.

The diagnosis of poisoning by narcotic and psychotropic substances remains one of the pressing issues in modern forensic practice. Numerous studies have proposed diagnostic criteria and parameters for fatal poisonings involving narcotic and psychotropic agents; however, these criteria have not been fully elucidated.

OBJECTIVE: To develop new diagnostic methods for acute poisoning cases involving narcotic substances (opiates).

MATERIALS AND METHODS. The study material consisted of 226 blood samples obtained from 27 corpses who had died as a result of acute poisoning with narcotic substances. Of these cases, 20 involved male corpses (74.07%) and 7 involved female corpses (25.93%), which underwent forensic medical examination.

RESULTS. In cases of acute poisoning with narcotic substances belonging to the opiate group, the concentration of myoglobin in blood and urine was found to be 20 times higher compared to deaths from other causes (control group).

CONCLUSION. A tenfold increase in blood myoglobin levels, a twofold increase in urine, and a twofold increase in the left ventricular myocardium and skeletal muscles indicate acute poisoning caused by narcotic substances.

RELEVANCE OF THE STUDY: At present, one of the most relevant tasks of forensic medical science and practice remains the diagnosis of poisoning with narcotic and psychotropic substances. Numerous studies have been devoted to the development of various criteria for fatal poisoning caused by narcotics and other toxic psychotropic agents. The literature contains several works proposing methods for diagnosing the cause of death resulting from intoxication with narcotic substances of the opiate group [2,3,4,5,6].

ISSN 3030-3907

However, traditional methods for detecting narcotic substances in blood during forensic medical examinations require careful sample preparation as well as significant time and material resources [4,5].

Currently, the main directions in postmortem diagnosis of acute poisoning with narcotic and psychotropic substances include morphological examination (morphometric methods comprising standard autopsy and histological examination), chemical, and biochemical investigations. Among these, biochemical methods are the most advantageous in terms of time efficiency and economic costs when addressing this diagnostic task.

In cases of narcotic and alcohol intoxication, indicators of renal and hepatic failure as well as the activity of certain enzymes are usually examined. However, to date, there are no reliable biochemical criteria specific for diagnosing death from these types of intoxication. Moreover, the structure of forensic medical bureaus still lacks a biochemical laboratory with an appropriate staff of specialists. Nevertheless, there are data indicating a significant and reliable change in myoglobin levels in cases of poisoning with opiate-group narcotic substances [1].

Aim of the Study: To develop a fundamentally new method for diagnosing death resulting from narcotic intoxication, particularly opiate poisoning.

MATERIALS AND METHODS: The study material consisted of 226 blood analyses obtained from 27 cadavers of individuals who died from acute poisoning with narcotic substances, with the cause of death verified by toxicological examinations. Autopsies were performed during the period from 2016 to 2018 in the thanatology department of the Republican Bureau of Forensic Medical Examination.

Among the deceased, males accounted for 74.07% (n = 20) and females for 25.93% (n = 7) [7]. The mean age of the victims was 33.71 ± 0.21 years. In most cases, the circumstances of poisoning were unknown. According to the orders appointing the forensic examination and the “protocol of the primary examination of the body at the place of discovery,” the bodies were found in apartments.

The control group consisted of 20 cadavers of individuals whose cause of death was cardiovascular disease.

Myoglobin levels in blood, urine, skeletal muscle, and myocardium were determined at the Department of Biochemistry and Medical Chemistry of the Tashkent Medical Academy using well-established standard methods [1].

RESULTS AND DISCUSSION. The study was conducted in several stages. At the first stage, the concentration of myoglobin in blood and urine was determined. In cases of fatal narcotic intoxication, an increase in this parameter was

ISSN 3030-3907

observed, which, when considered together with pathomorphological changes, provides grounds for further forensic toxicological examination.

The level of myoglobin in whole blood in cases of overdose with opiate-group narcotics was 20 times higher than in the comparison group (individuals who died from cardiovascular diseases and mechanical asphyxia; total n = 20). An even more indicative parameter was the concentration of myoglobin in blood serum. In cases of narcotic poisoning, serum myoglobin levels increased by 300-fold or more compared to the control group. The level of myoglobin in urine in this group was eight times higher than in the control group (Table 1).

Table 1.

Myoglobin Concentration in Whole Blood, Blood Serum, and Urine in Fatal Narcotic Poisoning (M ± m)

Parameter	Control group (n = 20)	Fatal intoxication (n = 27)
Myoglobin (whole blood), ng/mL	8965±331	169913±2458*
Myoglobin (blood serum), ng/mL	45,5±2,7	15975±1241*
Myoglobin (urine), ng/mL	38±15	304±47*

Asterisks (*) indicate statistically significant differences in myoglobin concentrations in cases of fatal narcotic intoxication compared with the control group ($p < 0.001$). MG – myoglobin.

Stage 2: Determination of myoglobin content in three myocardial regions and skeletal muscle. The myoglobin concentrations in the myocardium and skeletal muscle are presented in Table 2.

Table 2.

Myoglobin Concentration in the Myocardium and Skeletal Muscle in Fatal Narcotic Poisoning (M ± m)

Group	**Right ventricle**	**Left ventricle**	**Interventricular septum**	**Skeletal muscle**
1	2	3	4	5
Control, n=20	14,4±0,4	13,8±0,3	12,4±0,4	16,4±0,4
Fatal narcotic intoxication n=27	8,1±1,2*	30,4±1,8*	35,1±1,4*	38,8±2,1*

ISSN 3030-3907

Asterisks (*) indicate statistically significant differences in myoglobin concentration in cases of fatal narcotic intoxication compared with the control group ($p < 0.05$).

As seen from the data in Table 2, a significant decrease in myoglobin levels (1.8-fold) was observed in the right ventricle of the heart compared with the control group. Conversely, a significant increase (2.2-fold) in myoglobin concentration was detected in the left ventricle of the heart in narcotic victims relative to the control group. A similar significant elevation in myoglobin levels was observed in the interventricular septum, amounting to a 2.8-fold increase compared with the control group. Evaluation of myoglobin concentration in skeletal muscle during narcotic overdose revealed a significant increase of 2.4-fold relative to the control group.

Thus, the diagnostic method for determining death from narcotic intoxication developed in this study is summarized in Table 3.

Table 3.

Diagnosis of Fatal Narcotic Intoxication Based on Myoglobin Content

Biological Sample	**Myoglobin**	
	Content	**Fatal Narcotic Intoxication**
Blood	до 10000 нг/мл+	**Increased, at least 10**
Urine	до 160 нг/мл	**Increased, at least 2**
Myocardium of Right Ventricle	14-14,8 мкг/мг ткани	**Decreased, at least 1.8**
Myocardium of Left Ventricle	12,8-14,4 мкг/мг ткани	**Increased, at least 2**
Interventricular Septum	12-12,8 мкг/мг ткани	**Increased, at least 2**
Skeletal Muscle	16-16,8 мкг/мг ткани	**Increased, at least 2**

Practical Examples

Example 1: Blood from the femoral vein, myocardium of the right and left ventricles, and skeletal muscle were collected from the cadaver of Mr. N., 35 years old, for the study.

Objective of the study: Myoglobin content.

Case circumstances: “The body was found in the deceased’s apartment.”

Table 4.

Laboratory Test Results

Biochemical Parameter	**Sample** (или **Biological Sample**)	**Concentration**	**Normal Range**

ISSN 3030-3907

Myoglobin	**Blood**	122880 ng/mL	до 10000 ng/mL
	Urine	307 ng/mL	до 160 ng/mL
	Myocardium of Right Ventricle	6 µg/mg	14-14,8 µg/mg tissue
	Myocardium of Left Ventricle	32 µg/mg	12,8-14,4 µg/mg tissue
	Interventricular Septum (IVS)	37 µg/mg	12-12,8 µg/mg tissue
	Skeletal Muscle	41 µg/mg	16-16,8 µg/mg tissue

Result Assessment: Death resulted from acute narcotic poisoning (morphine).

Example 2: Blood, urine, myocardium of the right and left ventricles, and skeletal muscle were collected from the cadaver of Mr. N., 65 years old, for biochemical analysis.

Objective of the study: Determination of myoglobin content.

Case circumstances: "The body was found at a bus stop."

Table 5.

Laboratory Test Results

Biochemical parameter	Object of study	Concentration	**Normal range**
Myoglobin	**Blood**	122880 ng/mL	up to 10000 ng/mL
	Urine	307 ng/mL	up to 160 ng/mL
	Right ventricular myocardium	6 **µg/mg**	14-14,8 **µg/mg tissue**
	Left ventricular myocardium	32 **µg/mg**	12,8-14,4 **µg/mg tissue**
	Interventricular septum	37 **µg/mg**	12-12,8 **µg/mg tissue**
	Skeletal muscle	41 **µg/mg**	16-16,8 **µg/mg tissue**

Assessment of Results: An increase in myoglobin concentration of more than 10-fold in blood and more than 2-fold in skeletal muscle was observed. Myoglobin was not detected in urine. In the myocardium of the left and right ventricles, as well as in the interventricular septum, myoglobin levels were within

ISSN 3030-3907

the reference range. According to the results of this analysis, no narcotic (opioid) poisoning was detected.

CONCLUSIONS. An increase in myoglobin concentration of more than 10-fold in blood, 2-fold in urine, more than 2-fold in the myocardium of the left ventricle, skeletal muscle, and interventricular septum, along with a more than 2-fold decrease in myoglobin content in the myocardium of the right ventricle, indicates the presence of fatal narcotic intoxication.

The results obtained using the proposed method, together with forensic chemical, toxicological, and morphological (forensic-histological) analyses, allow the forensic medical expert to scientifically and objectively establish a postmortem diagnosis in cases of acute poisoning with narcotic substances.

REFERENCES

1. Асташкина О.Г. Исследование биохимических показателей трупного материала при наркотической интоксикации //Проблемы экспертизы в медицине. - Ижевск, 2004. - Т. 4. - № 3. - С. 15-17.
2. Astashkina OG. Investigation of biochemical parameters of postmortem material in cases of narcotic intoxication. *Problems of Forensic Medicine*. 2004;4(3):15–17.
3. БогомоловД.В. Судебно-медицинская диагностика наркотической интоксикации по морфологическим данным: Автореф. дисс. ... докт. мед. наук. - М., 2001. - 32 с.
4. Bogomolov DV. Forensic medical diagnosis of narcotic intoxication based on morphological data: Author’s abstract of doctoral dissertation. Moscow, 2001. 32 p.
5. Кригер О.В. Судебно-медицинская экспертиза смертельных отравлений наркотическими веществами //Судебно-медицинская экспертиза. - М., 2001. - № 2. - С. 9-14.
6. Kriger OV. Forensic medical examination of fatal poisonings by narcotic substances. *Forensic Medical Examination*. 2001;(2):9–14.
7. Павленко Е.Ю. Аспекты судебно-медицинской диагностики острых отравлений опиатами //Судебно медицинская экспертиза. - М., 2003. - № 3. - С. 10-14.
8. Pavlenko EY. Aspects of forensic medical diagnosis of acute opiate poisonings. *Forensic Medical Examination*. 2003;(3):10–14.
9. Солохин Б.В. Отравление опиатами (анализ секционного материала) //Судебно-медицинская экспертиза. - М., 2002. - № 2. - С. 32.
10. Solokhin BV. Opiate poisoning (analysis of autopsy material). *Forensic Medical Examination*. 2002;(2):32.

ISSN 3030-3907

11. Шигеев С.В. Судебно-медицинская диагностика смертельных отравлений препаратами опия: Автореф. дисс. ... канд. мед. наук. - М., 2002. - 23 с

12. Shigeev SV. Forensic medical diagnosis of fatal poisonings by opium preparations: Author's abstract of candidate dissertation. Moscow, 2002. 23 p.

ISSN 3030-3907

OCHIQ O‘ZANLARDA SUV SARFINI O‘LCHASH QURILMALARI

Azizov Xurshid Abduhamidovich
Mustaqil izlanuvchi, “O‘zbekiston Milliy Metrologiya Instituti” Davlat Muassasasi
Arifjonov Alisher Abdullayevich
Mustaqil izlanuvchi, “O‘zbekiston Milliy Metrologiya Instituti” Davlat Muassasasi
To‘laganov Fathullo Tohirjonovich
Mustaqil izlanuvchi, “O‘zbekiston Milliy Metrologiya Instituti” Davlat Muassasasi
Otaxonov Maqsud Yusufovich
Laboratoriya mudiri “Smart Solutions System” MCHJ
Zokirov Ilhomjon Bahtiyor o‘g‘li
Tayanch doktorant “TIQXMMI” Milliy tadqiqot universiteti
Email: ilhomjonzokirov1@gamil.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada ochiq o‘zanlarda suv sarfini o‘lchashda qo‘llaniladigan asosiy qurilmalar va usullar tahlil qilinadi. Tomson, Chipoletti, parabola va Parshall tipidagi suv o‘tkazgichlarning ishlash prinsipi, qo‘llanish shartlari hamda suv sarfini aniqlashga doir formulalar yoritiladi. Naporga asoslangan an'anaviy qurilmalar yuqori aniqlik berishi bilan birga, ularni qo‘llash uchun erkin oqim sharoiti va gidravlik talablarning bajarilishi zarurligi ko‘rsatiladi. Pastki befda dimlanish, ko‘milgan rejim yoki nostandart gidravlik holatlarda bunday qurilmalarning imkoniyati cheklanadi. Shu sababli maqolada tezlik maydoni usuliga asoslangan zamonaviy yechim sifatida 'Smart Channel' innovatsion qurilmasi ko‘rib chiqiladi. Qurilmada oqim tezligi transit-time printsipi asosida ishlovchi ultratovushli datchiklar yordamida, suv sathi esa alohida sath datchigi orqali aniqlanadi; olingan ma'lumotlar asosida suv sarfi hisoblanib, masofaviy monitoring tizimiga uzatiladi. Maqola natijalari irrigatsiya tizimlarida suv hisobini raqamlashtirish, suv resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish hamda boshqaruv qarorlarini real vaqt ma'lumotlari asosida qabul qilish uchun zamonaviy suv o‘lchash qurilmalarini joriy etish zarurligini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: ochiq o‘zan, suv sarfi, suv o‘tkazgich, Parshall lotogi, tezlik maydoni usuli, ultratovushli datchik, transit-time, Smart Channel, raqamli monitoring.

Аннотация. В данной статье проведён анализ основных устройств и методов, применяемых для измерения расхода воды в открытых каналах. Рассмотрены принципы работы, условия применения и формулы определения расхода для водомерных сооружений типов Томсона, Чиполетти, параболического и

ISSN 3030-3907

лотка Паршалла. Показано, что традиционные устройства, основанные на напорном методе, обеспечивают высокую точность измерений, однако требуют соблюдения условий свободного течения и гидравлических требований. В условиях подпора в нижнем бьефе, затопленного режима или нестандартных гидравлических ситуаций их применение ограничено. В связи с этим в статье рассматривается современное решение на основе метода поля скоростей — инновационное устройство «Smart Channel». В данном устройстве скорость потока измеряется с использованием ультразвуковых датчиков, работающих по принципу transit-time, а уровень воды определяется отдельным датчиком уровня; на основе полученных данных рассчитывается расход воды и передаётся в систему дистанционного мониторинга. Результаты исследования показывают необходимость внедрения современных водоизмерительных устройств для цифровизации водоучёта, повышения эффективности использования водных ресурсов и принятия управленческих решений на основе данных в реальном времени.

Ключевые слова: открытый канал, расход воды, водомерные сооружения, лоток Паршалла, метод поля скоростей, ультразвуковой датчик, transit-time, Smart Channel, цифровой мониторинг.

Abstract. This article analyzes the main devices and methods used for measuring water discharge in open channels. The operating principles, application conditions, and discharge calculation formulas of Thomson, Cipoletti, parabolic weirs, and Parshall flumes are described. It is shown that traditional head-based measurement devices provide high accuracy; however, they require free-flow conditions and strict compliance with hydraulic requirements. Under conditions such as downstream submergence, submerged flow, or non-standard hydraulic regimes, their applicability becomes limited. Therefore, this study considers a modern solution based on the velocity field method — the innovative “Smart Channel” device. In this system, flow velocity is measured using ultrasonic sensors operating on the transit-time principle, while water level is determined by a separate level sensor; based on these data, discharge is calculated and transmitted to a remote monitoring system. The results highlight the importance of implementing modern water measurement technologies for digital water accounting, improving water resource efficiency, and enabling real-time data-driven decision-making in irrigation systems.

Keywords: open channel, water discharge, measuring structures, Parshall flume, velocity field method, ultrasonic sensor, transit-time, Smart Channel, digital monitoring.

KIRISH.

ISSN 3030-3907

So‘nggi o‘n yilliklarda dunyo miqyosida chuchuk suv resurslarining tobora kamayib borayotgani insoniyat oldidagi eng dolzarb ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy muammolardan biriga aylandi [1–3]. Aholi sonining ortishi, urbanizatsiya jarayonlarining jadallashuvi, sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida suvga bo‘lgan ehtiyojning keskin ko‘payishi natijasida suv resurslariga tushayotgan bosim yildan yilga kuchaymoqda [2, 4]. Shu bilan birga, Yer sharidagi mavjud chuchuk suv zaxiralari cheklangan bo‘lib, ularning salmoqli qismi muzliklar, qor qatlamlari va yer osti suvlarida jamlangan. Bevosita foydalanish mumkin bo‘lgan suv ulushi esa nihoyatda kamdir [1, 3]. Shu sababli suv resurslarini tejamkor, adolatli va ilmiy asoslangan holda boshqarish, ayniqsa qishloq xo‘jaligida suv sarfini aniq hisobga olish masalasi global kun tartibidagi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida qaralmoqda [2, 5].

Suvdan samarali foydalanishning asosiy sharti uning miqdorini ishonchli, uzluksiz va yuqori aniqlikda o‘lchashdan iborat [5, 6]. Aynan shuning uchun ochiq o‘zanlarda, jumladan ariqlar, kanallar, kollektor-drenaj tarmoqlari va boshqa sug‘orish inshootlarida suv sarfini o‘lchash qurilmalari hamda texnologiyalarini takomillashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi [6–8]. Mazkur yo‘nalishdagi izlanishlar nafaqat suv resurslarini hisobga olish aniqligini oshirishga, balki suvni taqsimlash samaradorligini yaxshilash, yo‘qotishlarni kamaytirish va boshqaruv qarorlarini asoslashga ham xizmat qiladi [5, 7].

Markaziy Osiyo davlatlari, xususan O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Turkmaniston hududlari tabiiy-iqlimiy sharoitiga ko‘ra suv resurslariga nisbatan cheklangan bo‘lib, ko‘p hollarda transchegaraviy suv manbalariga tayanadi [3, 4]. Mintaqaning asosiy suv manbalari Amudaryo va Sirdaryo havzalariga bog‘liq bo‘lib, ularning suvi asosan sug‘oriladigan dehqonchilik ehtiyojlari uchun sarflanadi [3, 9]. Shu sababli mintaqada suv resurslarini boshqarish masalasi qishloq xo‘jaligi barqarorligi, oziq-ovqat xavfsizligi va ijtimoiy barqarorlik bilan chambarchas bog‘liqdir [4, 9]. Sug‘orish tizimlarida suv asosan ochiq kanallar orqali taqsimlanishi esa suvni yetkazib berish va hisobga olish jarayonida qator muammolarni yuzaga keltiradi. Jumladan, filtratsiya, bug‘lanish, noqonuniy suv olish, gidrotexnik inshootlarning eskirishi, avtomatlashtirish va raqamlashtirish darajasining pastligi suv yo‘qotishlarini orttiradi hamda boshqaruv samaradorligini pasaytiradi [4, 8, 10].

Global iqlim o‘zgarishi mazkur muammolarni yanada keskinlashtirmoqda [1, 2]. Havo haroratining ko‘tarilishi bug‘lanish jarayonlarini tezlashtiradi, yog‘inlarning miqdori va mavsumiy taqsimotini o‘zgartiradi, tog‘ muzliklarining qisqarishi esa daryolar oqimining uzoq muddatli barqarorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi [1, 3]. Ayniqsa, muzliklar hisobidan shakllanadigan daryo oqimlari bilan

ISSN 3030-3907

bog‘liq hududlarda suv resurslarining kamayishi vegetatsiya davrida suv tanqisligini kuchaytirishi mumkin [3, 4]. Natijada har bir kub metr suvning iqtisodiy va ekologik qiymati ortib boradi. Bu esa suv resurslarini yo‘qotishlarsiz yetkazib berish, aniq o‘lchash, adolatli taqsimlash va samarali rejalashtirishni talab etadi [2, 5, 9].


O‘zbekistonda ham suv resurslari bilan bog‘liq muammolar yaqqol namoyon bo‘lmoqda [9–11]. Sug‘oriladigan yerlarning katta qismi ochiq kanallar orqali suv bilan ta’minlanadi. Biroq ko‘plab ichki xo‘jalik tarmoqlarida suv hisobini yuritish tizimi hali to‘liq shakllanmagan, ayrim hollarda esa u qo‘lda yoki taxminiy hisob-kitoblarga tayangan holda amalga oshirilmoqda [10, 11]. Natijada suv taqsimotida noaniqliklar, rejadan ortiqcha sarf, suv iste’molchilari o‘rtasida nizolar, energiya sarfining ortishi va yerlarning meliorativ holati yomonlashuvi kabi salbiy holatlar yuzaga kelmoqda [9, 10]. Bunday sharoitda ochiq o‘zanlarda suv sarfini o‘lchash qurilmalarini keng joriy etish suv xo‘jaligida “ko‘r-ko‘rona” boshqaruvdan aniq ma’lumotlarga asoslangan boshqaruvga o‘tish imkonini beradi [8, 11, 12].

Suv sarfini aniq o‘lchash tizimlarini joriy etish natijasida suv resurslarining hisobi shaffoflashadi, suv yo‘qotishlari kamayadi, suv yetkazib beruvchi tashkilotlar va iste’molchilar o‘rtasidagi munosabatlar adolatliroq shakllanadi, sug‘orish rejimlarini optimallashtirish imkoniyati kengayadi hamda hosildorlikni oshirish uchun zarur sharoit yaratiladi [5, 8, 12]. Bundan tashqari, zamonaviy raqamlashtirilgan o‘lchash tizimlari real vaqt rejimida monitoring olib borish, ma’lumotlarni markaziy axborot bazalariga uzatish, sun’iy intellekt va modellashtirish vositalari yordamida prognozlash hamda boshqaruv qarorlarini tezkor qabul qilish imkonini beradi [11, 12]. Shu jihatdan qaraganda, ochiq o‘zanlarda suv sarfini o‘lchash qurilmalari nafaqat texnik vosita, balki suv xo‘jaligini samarali boshqarish, suv tanqisligi sharoitida barqaror rivojlanishni ta’minlash va milliy oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlashga xizmat qiluvchi muhim infratuzilmaviy element hisoblanadi [9–12].

MASALANING QO‘YILISHI. Insoniyat qadimdan suv suv sathini va sarfini o‘lchash bilan shug‘ullanib kelgan. Suv sathini o‘lchash maqsadida gidrometrik reykalar o‘ylab topilgan bo‘lsa, suv sarfini o‘lchash bo‘yicha ham bir necha turdagi qurilmalar ixtiro qilingan. Bularga misol sifatida Tomson, Chipoletti, Parshal, Veturi va Saniiri suv o‘tkazgichlarini keltirish mumkin. Sanab o‘tilgan barcha suv sarfini o‘lchash qurilmalariga suv chuqurligini o‘lchash vositalari o‘rnatilgan. Suv chuqurligi aniqlangan holatda gidravlik qonuniyatlar asosida suv sarfi hisoblab topilgan. Tomson tipidagi suv o‘tkazgich yupqa po‘lat materialdan tayyorlanib, suv o‘tish qismi uchburchak shaklida bo‘ladi (1-rasm). Ushbu qurilmalar yupqa devorli suv o‘tkazgichlar turkumiga kiradi. Hozirgi kunda asosan

ISSN 3030-3907

suv omborlarining drenaj tizimlaridan chiqayotgan suv sarfini o‘lchasda foydalaniladi. Suv sarfining 0,8 l/s dan 120 l/s gacha qiymatlarida yuqori aniqlikda o‘lchash imkoniyati yuzaga keladi [9–11].



1-rasm. Tomson tipidagi suv o‘tkazgich

Tomson tipidagi, faqat $\theta=90^0$ burchakli suv o‘tkazgichdan o‘tayotgan suv sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = 1{,}4H^{5/2} \qquad (1)$$

bu yerda: Q-suv sarfi, H-napor.


Yuqorida keltirilgan (1) formula Tomson tomonidan taklif etilgan. Huddi shunday 90^0 burchakli suv o‘tkazgichdan o‘tayotgan suv sarfini aniqlash uchun King tomonidan ham quyidagi formula taklif etilgan:

$$Q = 1{,}343\,H^{2{,}47} \qquad (2)$$

Suv o‘tkazgich burchagining boshqa qiymatlarida, ya’ni, $\theta=22^0 \div 118^0$ bo‘lganda Grave tomonidan quyidagi formula taklif etilgan:

$$Q = 1{,}331 \cdot \left(tg\frac{\theta}{2}\right)^{0{,}996} \cdot H^{2{,}47} \qquad (3)$$

Keyingi o‘rindagi suv o‘lchash qurilmasi Chipoletti suv o‘tkazgichi bo‘lib, u ham yupqa devorli suv o‘tkazgichlar sinfiga kiradi (2-rasm). Suv o‘tish qismi trapetsiya shaklida bo‘lib, suv sarfini yuqori aniqlikda o‘lchash imkoniyati mavjud. Suv o‘tkazgichning burchagi vertikal tekislikka nisbatan 14^0 ni tashkil etadi.



2-rasm. Chipoletti tipidagi suv o‘tkazgich

Chipoletti suv o‘tkazgichidan o‘tayotgan suv sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:


$$Q = 1{,}86 \cdot b \cdot H^{3/2} \qquad (3)$$

bu yerda: Q-suv sarfi, H-napor, b-suv o‘tkazgichning ostonasi kengligi.

ISSN 3030-3907

Ushbu turdagi suv sarfini o‘lchash qurilmalarining standart o‘lchamlari qabul qilingan. Unga ko‘ra suv o‘tkazgichning ostonasi kengligi b=0,3 m, b=0,5 m va b=1,0 m bo‘lishi mumkin. Suv sarfining minimal 8,4 l/s dan maksimal 358 l/s gacha qiymatlarida yuqori aniqlikda o‘lchash imkoniyati yuzaga keladi.

Yana bir suv sarfini o‘lchash qurilmasi parabola shaklida bo‘lib, u ham yupqa devorli suv o‘tkazgichlar sinfiga kiradi (3-rasm).



3-rasm. Parabola tipidagi suv o‘tkazgich


Mazkur suv o‘tkazgichdan o‘tayotgan suv sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = M \cdot H^2; \quad (4)$$

$$M = 2{,}768 \cdot \sqrt{P} \quad (5)$$

bu yerda: Q-suv sarfi, H-napor, P-parobola parametri.

Olimlar tomonidan keng ostonali yoki amaliy profilli suv o‘tkazgichlar sinfiga kiruvchi suv sarfini o‘lchash qurilmalari ixtiro qilingan. Bunga misol tariqasida Parshal tipidagi suv o‘tkazgichni keltirishimiz mumkin (4-rasm).



4-rasm. Parshal tipidagi suv o‘tkazgich

ISSN 3030-3907

Parshal tipidagi suv o‘tkazgichdan o‘tayotgan suv sarfi quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$Q = CH^n \qquad (6)$$

to increase their safety. The research studies the hydrodynamic effects of flood flows, erosion and filtration processes, and the effectiveness of monitoring systems.

The issue of flood flows and their impact on hydraulic structures has been studied for many years as one of the important scientific areas in the fields of hydrology, hydraulic engineering, and emergency safety. In recent years, the increase in heavy rainfall and flood events in mountainous areas as a result of global climate change has further increased the urgency of the issue of ensuring the safety of dams [7].

In scientific studies, the impact of flood flows on dams is mainly assessed through hydrodynamic loads, erosion processes, filtration flows, and mechanical impact of hard rocks [8]. Researchers have found that flood flows, due to their high velocity and high density, intensify deformation processes in earthen and concrete dams.

The hydraulic parameters of the flood flow are estimated using the following expression:

$$Q = A \times V \qquad (2)$$

where: Q is the water flow rate; A is the cross-sectional area of the stream; V is the flow velocity.

This relationship indicates that water consumption and hydrodynamic impact increase with increasing flood flow velocity [9]. A number of scientific studies have investigated methods for increasing the resistance of earthen dams to flood flows. In particular, strengthening slopes with concrete slabs, using gabion structures, and modernizing drainage systems against filtration have been recommended as effective protective measures [10]. According to the results of the studies, strengthening banks and slopes significantly reduces erosion processes.

When concrete is placed directly on the ground, it has been found that the dynamic stress and vibration loads that produce landslides affect the deformation state of the structure. Therefore, in modern conditions, special attention is paid to ensuring energy-absorbing materials and water properties.

Darcy's law is widely used to assess the filtration stability of dams.

$$q = k \cdot i \cdot A \qquad (3)$$

where: q is the filtration flow rate; k is the filtration coefficient; i is the hydraulic gradient; A is the filtration area.

It is scientifically proven that increased filtration can lead to scour and suffocation in earthen dams [12].

In recent years, many studies have been conducted on the use of monitoring and digital control systems. Modern sensor systems monitor water levels, deformations, filtration pressure, and slope displacement in real time [13]. Some

ISSN 3030-3907

studies have developed flood risk forecasting systems based on artificial intelligence, which allow for early detection of the risk of accidents [4].

Local scientists have also conducted research on increasing the flood resistance of reservoirs and hydraulic structures in Uzbekistan. In particular, problems related to bank erosion, filtration and silt pressure in reservoirs located in the foothills have been widely studied.

The analysis shows that in order to increase the reliability of dams in flood conditions, it is necessary to carry out structural strengthening, improve drainage systems, introduce monitoring technologies and comprehensively apply modern flood management methods

RESEARCH METHODOLOGY. This study analyzed the theoretical and practical aspects of existing engineering solutions to increase the reliability of dams in flood conditions. During the research, the hydrodynamic impact of flood flows on hydraulic structures, erosion and filtration processes, and the effectiveness of structural protection measures were comprehensively studied. The research object was selected as earthen and concrete dams located in mountainous areas. During the research, the influence of the speed, density, water consumption and amount of hard rocks on the stability of the dam was evaluated. At the same time, the mechanisms of development of bank erosion, filtration processes and slope deformations were analyzed [7].

The hydrodynamic pressure of a flood flow is determined by the following equation:

$$P = \frac{1}{2}\rho\vartheta^2 \qquad (4)$$

where: P is the hydrodynamic pressure; ρ is the current density; ϑ is the flood velocity. Based on this formula, it was found that the pressure acting on the dam structure increases significantly with increasing flood flow velocity [8]. In the next stage of the study, the filtration stability of the dams was studied. Filtration flows were estimated based on Darcy's law (formula 3). It was analyzed that the increase in the filtration process can lead to suffocation and washout phenomena in earthen dams. The safety coefficient was used to assess the operational reliability of dams (formula 1).

During the study, the change in the safety coefficient under different flood conditions was analyzed, and it was found that its decrease from the standard value negatively affects the operational reliability of the dam [2]. Also, during the study, the effectiveness of constructive measures aimed at reducing the negative impact of flood flows on dams was comprehensively assessed. In particular, the protective effectiveness of methods for strengthening coastal areas, using gabion structures, improving drainage systems, and constructing flood-retaining structures was

ISSN 3030-3907

analyzed. In addition, the possibilities of reducing erosion processes by concreting slopes were also studied. The study also compared the possibilities of identifying flood risks in advance and preventing emergencies through the introduction of monitoring and early warning systems.

The possibilities of real-time monitoring of water levels, filtration pressure, deformation and slope displacement using monitoring systems were also studied. Based on the results of the study, it was scientifically substantiated that the use of complex engineering protection systems in areas with high flood risk significantly increases the operational reliability of dams [2].

RESEARCH RESULTS AND ANALYSIS. During the research, the impact of flood flows on the reliability of dam operation and the effectiveness of protective measures were analyzed theoretically and practically. The results showed that with an increase in the speed, density, and content of solid rocks in the flood flow, the hydrodynamic loads on dam structures significantly increase. The results of the analysis revealed that mudflows increase the processes of slope erosion, filtration, and suffosis in earthen dams. In particular, high-velocity mudflows have been observed to develop scour processes on the dam slopes and worsen the deformation state of the structure [4]. The hydrodynamic pressure of the flood flow was calculated based on the following equation (Formula 4). The calculation results showed that with increasing flood flow velocity, the hydrodynamic pressure increases according to a quadratic law. As a result, it was found that the loading level in the front part of the dam increased, and in some cases, the stability of the structural elements decreased.

As a result of the analysis of filtration processes, it was observed that internal washing processes increase in earthen dams in cases where drainage systems are not functioning sufficiently. The increase in filtration consumption was estimated based on the following relationship (Formula 3). The results showed that an increase in the filtration coefficient and hydraulic gradient increases the water permeability in the dam body and reduces the level of safety.

The study also evaluated the effectiveness of embankment reinforcement and gabion construction methods. The results of the analysis showed that gabion structures are highly effective in reducing flow energy and preventing slope erosion. Concrete overlays and slope reinforcement work led to a significant reduction in soil erosion.

It was found that when using flood control structures, the flow of large solid rocks in the stream reached the main dam was reduced. This reduced mechanical shocks to the dam structure and increased operational stability.

ISSN 3030-3907

The introduction of monitoring and early warning systems also showed high efficiency. With the help of sensor systems, it was possible to monitor water levels, filtration pressure and deformations in real time. As a result, the ability to detect dangerous situations in advance and take prompt measures increased.

The safety coefficient was adopted as the main criterion for assessing the operational reliability of dams (Formula 1). The analysis showed that when structural protection measures were applied, the safety coefficient approached the standard value and the operational stability of dams increased.

In general, the conducted studies have shown that strengthening the banks, modernizing drainage systems, constructing flood control structures, and introducing modern monitoring systems are among the most effective engineering solutions for increasing the reliability of dams in flood conditions.

CONCLUSION. This research work comprehensively analyzed engineering and technological measures aimed at increasing the reliability of dams in conditions of flood flows. During the research, the hydrodynamic impact of flood flows, the impact of erosion, filtration and deformation processes on the stability of dams were studied, and effective methods for their reduction were scientifically substantiated.

The results of the analysis revealed that with an increase in the speed and density of the flood flow, the hydrodynamic pressure on the dam structures increases sharply. This leads to the development of slope erosion, filtration processes, and structural deformations in earthen and concrete dams.

The study revealed that filtration and suffocation processes significantly affect the operational reliability of earthen dams. It was scientifically proven that insufficient functioning of drainage systems leads to an increase in internal washing processes and a decrease in the level of safety.

Structural protection methods such as bank reinforcement, gabion construction, and slope concreting have shown high efficiency in reducing the impact of flood flows. In particular, gabion structures have been found to be an effective means of reducing flow energy and preventing slope erosion.

As a result of the construction of flood control structures, it was observed that the arrival of large solid rocks in the flow to the main dam decreased and mechanical shocks decreased. This was found to increase the operational stability of the dam structure.

By introducing monitoring and early warning systems, it was possible to control water levels, filtration pressure, and deformations in real time. As a result, it was found that the ability to detect dangerous situations in advance and take prompt engineering measures increased.

ISSN 3030-3907

Based on the results of the study, the need for structural reinforcement, modernization of drainage systems, construction of flood control structures, and the integrated use of modern monitoring technologies was scientifically substantiated to increase the reliability of dam operation in flood conditions.

In the future, the use of artificial intelligence-based monitoring systems, digital modeling, and automated control technologies will be important in further improving the safety of dams and preventing emergency situations.

LITERATURE REVIEW

1. Xujakulov, R., Rahmatov, M., Nabiev, E., & Zaripov, M. (2021, January). Determination of calculating stresses on the depth of loess grounds of hydraulic structures. In IOP Conference Series: Materials Science and Engineering (Vol. 1030, No. 1, p. 012133). IOP Publishing.
2. Nabiev, E. (2023). Reliability study of irrigation canals and pipe culvers. In E3S Web of Conferences (Vol. 410, p. 05025). EDP Sciences.
3. Safarovich, N. E., & Istamovich, B. I. (2026). Increasing The Stability Of Industrial Infrastrukture In High Seismic Areas. International Journal of Modern Computer Science and IT Innovations, 3(02), 11-14.
4. Safarovich, N. E. (2025). IMPACT OF PIPELINE WATER CONDUITS ON SOIL.
5. Набиев, Э. С., & Абдимуминов, Э. (2021). Экспериментальные исследования жестких труб в подземных условиях. In экспериментальные и теоретические исследования в современной науке (pp. 22-29).
6. Murtazaev, E. M., Nabiyev, E. S., Berdiyev, S. A., Sharipov, S. P., Karimov, A. Q., & Boymuratov, F. X. (2023). Analysis of the effect of heat and corrosion on the mechanical properties of metal structures. In E3S Web of Conferences (Vol. 410, p. 02053). EDP Sciences.
7. Xujakulov, R., & Nabiev, E. Study Of The Regularities Of The Process Of Moistening Loess Subsidence Foundations Of Hydraulic Structures. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, (1), 1-9.
8. Hydraulic Structures Hydraulic Structures. – London: CRC Press, 2017. – 712 p.
9. Design of Small Dams Design of Small Dams. – Washington: USBR, 2019. – 983 p.
10. Dam Engineering Dam Engineering. – London: Taylor & Francis, 2018.–645 p. Hydrology and Floodplain Analysis Hydrology and Floodplain Analysis. – New Jersey: Pearson Education, 2020. – 816 p.
11. ASCE Journal of Hydraulic Engineering. – 2023. – Vol. 149, No. 5. – pp. 75–89.

ISSN 3030-3907

12. QMQ 2.01.07-96. Yuklar va ta’sirlar. – Toshkent, 1996. – 95 b.
13. KMK 2.06.05-97. To‘g‘onlar va suv omborlari xavfsizligi. – Toshkent, 1997. – 118 b.
14. Gidrotexnika inshootlarining seysmik va gidrodinamik barqarorligi bo‘yicha ilmiy to‘plam. – Toshkent, 2022. – 186 b.
15. Favqulodda tabiiy jarayonlar va gidrotexnika inshootlari xavfsizligi. – Toshkent, 2023. – 204 b.

ISSN 3030-3907

UDK: 334.722-055.2:338(575.1)

AYOLLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY AHAMIYATI

Muxayyo Tuxtasinova
Farg‘ona davlat texnika universiteti, “Iqtisodiyot” kefedrasi, katta o‘qituvchisi
Azimova Marjona Dilshodjon qizi
Farg‘ona davlat texnika universiteti, Iqtisodiyot yo‘nalishi 2-bosqich talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning iqtisodiy mazmuni, bandlikni ta’minlash, oilalar daromadini oshirish, hududiy iqtisodiy faollikni kuchaytirish hamda kambag‘allikni qisqartirishdagi o‘rni ilmiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan institutsional va moliyaviy mexanizmlar, xususan, imtiyozli kreditlar, kafillik, grantlar, “HAMROH” dasturi, raqamli savdo va biznes ta’limi imkoniyatlari ko‘rib chiqildi. Maqolada statistik ma’lumotlar, normativ-huquqiy hujjatlar va xalqaro tashkilotlar tavsiyalari asosida ayollar biznesining iqtisodiy samaradorlikka ta’siri yoritilib, mavjud muammolarni kamaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

Kalit so‘zlar: ayollar tadbirkorligi, kichik biznes, xotin-qizlar bandligi, oilaviy tadbirkorlik, moliyaviy savodxonlik, imtiyozli kredit, raqamli iqtisodiyot, kambag‘allikni qisqartirish, hududiy rivojlanish.

Аннотация. В статье научно анализируется экономическое значение развития женского предпринимательства, его роль в обеспечении занятости, повышении доходов семей, усилении региональной экономической активности и сокращении бедности. Рассмотрены институциональные и финансовые механизмы поддержки женского бизнеса в Узбекистане, включая льготное кредитование, гарантии, гранты, программу «HAMROH», возможности цифровой торговли и предпринимательского образования. На основе статистических данных, нормативно-правовых документов и рекомендаций международных организаций сформулированы практические предложения по повышению устойчивости женского предпринимательства.

Ключевые слова: женское предпринимательство, малый бизнес, занятость женщин, семейное предпринимательство, финансовая грамотность, льготный кредит, цифровая экономика, сокращение бедности, региональное развитие.

Abstract. The article analyzes the economic importance of developing women’s entrepreneurship and its role in employment creation, increasing household income, strengthening regional economic activity and reducing poverty. The study examines institutional and financial mechanisms for supporting women-led

ISSN 3030-3907

businesses in Uzbekistan, including preferential loans, guarantees, grants, the HAMROH program, digital trade opportunities and entrepreneurial education. Based on statistical data, legal documents and recommendations of international organizations, the paper develops practical proposals aimed at improving the sustainability and effectiveness of women's entrepreneurship.

Keywords: women's entrepreneurship, small business, women's employment, family entrepreneurship, financial literacy, preferential loan, digital economy, poverty reduction, regional development.

JEL Classification: J16, L26, O15, O17.

KIRISH.

Bugungi globallashuv va raqamli transformatsiya sharoitida iqtisodiy o‘sish faqat yirik sanoat korxonalari yoki tabiiy resurslar hisobiga emas, balki aholining tadbirkorlik salohiyatini to‘liq ishga solish orqali ham ta’minlanadi. Ayniqsa, xotin-qizlarning iqtisodiy faolligini oshirish mamlakatning mehnat resurslaridan samarali foydalanish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ichki bozorni kengaytirish va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi. Ayollar tadbirkorligi iqtisodiyotda qo‘shimcha qiymat yaratish bilan birga, oilaviy farovonlik, farzandlar ta’limi, mahalla ijtimoiy muhiti va hududiy rivojlanishga ham bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Mavzuning dolzarbligi shundan iboratki, O‘zbekistonda xotin-qizlarni tadbirkorlikka jalb etish davlat siyosatining muhim yo‘nalishiga aylanmoqda. So‘nggi yillarda ayollarni kasb-hunarga o‘qitish, imtiyozli kreditlar ajratish, kafillik mexanizmlarini kengaytirish, biznes loyihalarini grantlar orqali rag‘batlantirish va raqamli savdo platformalariga olib chiqish bo‘yicha tizimli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Xususan, 2025-yil 14-martdagi PQ-103-son qaror bilan ijobiy kredit tarixiga ega xotin-qizlarga 100 million so‘mgacha garovsiz kredit ajratish mexanizmi joriy etildi [1]. 2025-yil 3-dekabrdagi PF-240-son farmon bilan esa 2026-yil 1-yanvardan “HAMROH” tadbirkor ayollarni qo‘llab-quvvatlash dasturi doirasida qo‘shimcha moliyaviy instrumentlar belgilandi [2]. Tadqiqotning maqsadi ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning iqtisodiy ahamiyatini nazariy va amaliy jihatdan asoslash, O‘zbekiston sharoitida mavjud imkoniyatlar hamda muammolarni aniqlash, shuningdek, xotin-qizlar biznesini barqaror rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-amaliy takliflar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsadga erishish uchun maqolada ayollar tadbirkorligining iqtisodiy mohiyati ochib berildi, uning bandlik va oila daromadlariga ta’siri tahlil qilindi, mavjud davlat dasturlari va xalqaro tajriba o‘rganildi hamda rivojlantirish yo‘nalishlari belgilandi.

ISSN 3030-3907

Ayollar tadbirkorligi masalasi zamonaviy iqtisodiy adabiyotlarda inklyuziv iqtisodiy o‘sish, gender tengligi, kichik biznes rivoji va inson kapitalidan samarali foydalanish nuqtayi nazaridan o‘rganiladi. Jahon bankining 2024–2030-yillarga mo‘ljallangan gender strategiyasida ayollar va qizlarning iqtisodiy imkoniyatlarini kengaytirish, moliyaviy resurslarga kirishini oshirish hamda ayollar rahbarligidagi bizneslar uchun to‘siqlarni kamaytirish global taraqqiyotning muhim sharti sifatida belgilangan [5]. Bunday yondashuv ayollar tadbirkorligini faqat ijtimoiy himoya vositasi emas, balki iqtisodiy samaradorlikni oshiruvchi mustaqil omil sifatida baholash zarurligini ko‘rsatadi. UNDPning O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi bo‘yicha tahlilida moliyaviy resurslarga kirish, biznes ko‘nikmalari, bozorga chiqish imkoniyatlari, raqamli savodxonlik va mentorlik tizimi xotin-qizlar biznesini rivojlantirishda hal qiluvchi omillar ekani qayd etiladi. Mazkur tahlilda 2020-yilda ayollarga tegishli kompaniyalar va loyihalarga 4,9 trillion so‘m kredit ajratilgani, 2024-yilga kelib esa moliyalashtirilgan loyihalar soni 253 mingtaga, ajratilgan kreditlar hajmi 16,8 trillion so‘mga yetgani ko‘rsatilgan [4]. Bu raqamlar O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash tizimi kengayayotganini tasdiqlaydi.

Ayollar tadbirkorligining iqtisodiy ahamiyati, eng avvalo, mehnat resurslaridan samarali foydalanish bilan bog‘liq. Aholining yarmiga yaqin qismini tashkil etuvchi xotin-qizlar iqtisodiy faoliyatda yetarlicha ishtirok etmasa, mamlakatning ishlab chiqarish, xizmat ko‘rsatish va innovatsion salohiyati to‘liq ishga tushmaydi. Aksincha, ayollar o‘z biznesini boshlasa, ular o‘zini ish bilan ta’minlaydi, qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratadi, mahalliy xomashyo va xizmatlardan foydalanadi, iste’mol bozorini kengaytiradi hamda soliq bazasining oshishiga hissa qo‘shadi.

Kichik biznes ayollar tadbirkorligi uchun eng qulay institutsional maydon hisoblanadi. Chunki tikuvchilik, qandolatchilik, hunarmandchilik, maishiy xizmat, parrandachilik, issiqxona xo‘jaligi, kosmetologiya, onlayn savdo, ta’lim xizmatlari kabi yo‘nalishlar ko‘pincha nisbatan kichik boshlang‘ich kapital, moslashuvchan ish vaqti va mahalliy bozor bilan bevosita ishlash imkoniyatini beradi. Milliy statistika qo‘mitasi ma’lumotlariga ko‘ra, 2025-yil yanvar-sentabr oylarida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar hajmi 270 143,8 milliard so‘mni, umumiy investitsiyalardagi ulushi esa 60,9 foizni tashkil etgan [3]. Ushbu ko‘rsatkich kichik tadbirkorlik, jumladan, ayollar biznesi uchun investitsion faollikni kengaytirish katta makroiqtisodiy ahamiyatga ega ekanini anglatadi.

Ayollar tadbirkorligi bandlik muammosini hal etishda ham muhim vositadir. Xotin-qizlarning o‘z biznesini yo‘lga qo‘yishi, ayniqsa, qishloq hududlarida va

ISSN 3030-3907

mehnat bozori tor bo‘lgan joylarda muqobil daromad manbaini yaratadi. Kasanachilik, oilaviy korxonalar, hunarmandchilik markazlari, kichik ishlab chiqarish sexlari va xizmat ko‘rsatish shoxobchalari ko‘plab ayollarni rasmiy yoki yarim rasmiy bandlikka jalb qilishi mumkin. Bu jarayonda norasmiy bandlikni kamaytirish, soliq va ijtimoiy himoya tizimlariga kirishni kengaytirish, bank xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini oshirish kabi natijalar yuzaga keladi. Ayollar tadbirkorligining yana bir muhim natijasi oila daromadlarining barqarorlashuvidir. Ayolning mustaqil daromadga ega bo‘lishi oilaning oziq-ovqat, ta’lim, sog‘liqni saqlash va uy-joy xarajatlarini qoplash imkoniyatini kengaytiradi. Bu, o‘z navbatida, inson kapitaliga investitsiyalarni oshiradi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, ayollar daromadining muayyan qismi ko‘proq farzandlar ta’limi, sog‘lig‘i va oilaviy ehtiyojlarga yo‘naltiriladi. Shu sababli ayollar tadbirkorligi nafaqat biznes ko‘rsatkichi, balki uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish omili sifatida ham baholanishi lozim.

O‘zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy mexanizmlari bosqichma-bosqich takomillashmoqda. 2026–2027-yillarda “HAMROH” xotin-qizlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash kompaniyasi orqali 6 ming nafar xotin-qizning tadbirkorlik loyihalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun 2 trillion so‘m yo‘naltirish, 2,8 ming nafar ayolni tadbirkorlikka o‘qitish va 2 ming nafar xotin-qizning biznesini yo‘lga qo‘yishda hamrohlik asosida ko‘maklashish ko‘zda tutilgan [2]. Mazkur yondashuvning afzalligi shundaki, u faqat kredit ajratish bilan cheklanmaydi, balki o‘qitish, maslahat, hamrohlik va kafolatlash mexanizmlarini ham qamrab oladi. Chunki biznesning barqarorligi pul mablag‘ining mavjudligigagina emas, balki uni to‘g‘ri boshqarish, bozorni tahlil qilish va xarajatlarni rejalashtirish ko‘nikmalariga ham bog‘liq.

Raqamli iqtisodiyot ayollar tadbirkorligi uchun yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar, elektron savdo platformalari, mobil to‘lovlar va yetkazib berish xizmatlari ayollarga katta savdo maydoni yoki yuqori ijara xarajatlarisiz mahsulot va xizmatlarini bozorga olib chiqish imkonini beradi. Masalan, uy sharoitida tayyorlangan qandolat mahsulotlari, milliy hunarmandchilik buyumlari, kiyim-kechak, kosmetologiya xizmatlari, onlayn ta’lim, SMM va dizayn xizmatlari raqamli kanallar orqali keng auditoriyaga yetkazilishi mumkin. Biroq raqamli tadbirkorlik samaradorligi internet sifati, texnik vositalar, raqamli savodxonlik va onlayn xavfsizlik bo‘yicha bilimlarga bog‘liq.

Ayollar biznesini rivojlantirish hududiy iqtisodiyot uchun ham muhimdir. Qishloq va chekka hududlarda ayollar tadbirkorligi mahalliy resurslarni qayta ishlash, mahalliy brendlarni shakllantirish, turizm, hunarmandchilik va qishloq

ISSN 3030-3907

xo‘jaligi mahsulotlarini bozorga chiqarish imkonini beradi. Natijada hududlarda iqtisodiy faollik kuchayadi, aholi daromadlari oshadi, ichki migratsiya bosimi kamayadi. Ayniqsa, kooperatsiya asosida tashkil etilgan ayollar biznesi xomashyo xaridi, ishlab chiqarish, qadoqlash, marketing va logistika xarajatlarini kamaytirishi mumkin.

1-jadval.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asosiy iqtisodiy ta’sir yo‘nalishlari

Yo‘nalish	Iqtisodiy natija	Amaliy izoh
Bandlik	Yangi ish o‘rinlari va o‘zini o‘zi band qilish imkoniyati ortadi	Tikuvchilik, xizmat ko‘rsatish, hunarmandchilik, onlayn savdo va oilaviy korxonalar orqali ayollar mehnat bozoriga faol kiradi.
Oila daromadi	Oilaviy byudjet barqarorlashadi va iste’mol salohiyati kengayadi	Ayol daromadi ta’lim, sog‘liqni saqlash, uy-joy va kundalik ehtiyojlarni moliyalashtirishga xizmat qiladi.
Hududiy rivojlanish	Mahalliy resurslar qayta ishlanadi va ichki bozor faollashadi	Qishloq hududlarida kasanachilik, kooperatsiya, fermerlik va xizmat ko‘rsatish tarmoqlari rivojlanadi.
Innovatsiya va raqamlashtirish	Elektron savdo va raqamli xizmatlar orqali bozorga chiqish xarajatlari kamayadi	Ijtimoiy tarmoqlar, marketpleyslar va mobil to‘lovlar ayollar biznesining mijozlar bazasini kengaytiradi.
Kambag‘allikni qisqartirish	Doimiy daromad manbai paydo bo‘ladi va ijtimoiy faollik oshadi	Kam ta’minlangan oilalarda kichik biznes daromadni oshirishning amaliy vositasiga aylanadi.

Ayollar tadbirkorligining rivojlanishida bir qator tizimli muammolar saqlanib qolmoqda. Birinchidan, boshlang‘ich kapital va garov ta’minoti yetishmasligi ko‘plab xotin-qizlarning biznes g‘oyasini amaliy loyihaga aylantirish

ISSN 3030-3907

imkoniyatini cheklaydi. Garovsiz kredit va kafillik mexanizmlarining kengayishi ushbu muammoni yumshatsa-da, kreditdan foydalanish samaradorligi moliyaviy savodxonlik bilan chambarchas bog‘liq. Shu sababli kredit ajratish jarayoni biznes-reja tuzish, xarajat va daromad prognozini hisoblash, soliq majburiyatlarini tushuntirish hamda risklarni boshqarish bo‘yicha qisqa amaliy kurslar bilan birga olib borilishi maqsadga muvofiq. Ikkinchidan, ayollar biznesida bozorga chiqish va marketing muammolari mavjud. Ko‘plab ayollar sifatli mahsulot ishlab chiqara olsa-da, uni brendlash, qadoqlash, reklama qilish, narxlash va doimiy mijozlar bazasini shakllantirishda qiyinchilikka duch keladi. Bu borada mahalliy hokimliklar, Savdo-sanoat palatasi, oliy ta’lim muassasalari, banklar va nodavlat tashkilotlari hamkorligida ayollar uchun “biznes klinika”lar tashkil etish foydali bo‘ladi. Bunday markazlar marketing, buxgalteriya, elektron savdo, soliq, eksportga tayyorgarlik va biznesni raqamlashtirish bo‘yicha maslahat berishi mumkin. Uchinchidan, oilaviy majburiyatlar va vaqt taqsimoti ham ayollar tadbirkorligiga ta’sir qiladi. Farzand tarbiyasi, uy ishlari va qarindoshlik mas’uliyatlari sababli ayrim ayollar biznesni to‘liq vaqtli faoliyat sifatida yurita olmaydi. Shu bois uy sharoitida ishlab chiqarish, masofaviy xizmatlar, moslashuvchan ish vaqti, kooperatsiya va kasanachilik tizimlarini kengaytirish ayollar uchun qulay sharoit yaratadi. Bundan tashqari, mahallalarda bolalar uchun qisqa muddatli parvarish xizmatlari va o‘quv markazlarini ko‘paytirish ayollar biznesini boshlashga bilvosita yordam beradi. To‘rtinchidan, raqamli savodxonlik darajasi bir xil emas. Elektron to‘lovlar, onlayn buyurtma, marketpleyslarda mahsulot joylashtirish, ijtimoiy tarmoqlarda reklama yuritish va mijozlar bilan onlayn ishlash bo‘yicha ko‘nikmalar barcha hududlarda yetarli shakllanmagan. Shuning uchun ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash dasturlarida raqamli ko‘nikmalar alohida modul sifatida berilishi zarur. Bunda amaliy mashg‘ulotlar, masalan, mahsulot sahifasi yaratish, narx belgilash, foto kontent tayyorlash, onlayn to‘lovni ulash va mijozlar fikrini tahlil qilish kabi ko‘nikmalarga e’tibor qaratilishi lozim. Beshinchidan, ayollar biznesini kengaytirish bosqichida mentorlik va hamrohlik xizmatlari yetarli darajada institutsionallashmagan. Yangi biznes boshlayotgan xotin-qizlar ko‘pincha birinchi xatolarni tajriba orqali o‘rganadi, bu esa resurslarning yo‘qotilishiga olib keladi. Tajribali tadbirkor ayollar, universitet o‘qituvchilari, bank mutaxassislari va amaliyotchi marketologlardan iborat mentorlar tarmog‘i shakllantirilsa, biznesning yashovchanligi oshadi. “HAMROH” dasturida nazarda tutilgan hamrohlik mexanizmi shu jihatdan muhim bo‘lib, uni hududiy darajada tizimli yo‘lga qo‘yish yuqori samara berishi mumkin.

Tadqiqot natijalari asosida ishlab chiqilgan tavsiyalar:

ISSN 3030-3907

1. Ayollar tadbirkorligi uchun ajratilayotgan imtiyozli kreditlar biznes-reja, moliyaviy savodxonlik va soliq bo‘yicha majburiy qisqa o‘quv modullari bilan bog‘lanishi lozim.

2. Hududlarda ayollar biznesini qo‘llab-quvvatlovchi “biznes klinika”lar tashkil etilib, ularda marketing, buxgalteriya, raqamli savdo, huquqiy maslahat va brendlash bo‘yicha amaliy xizmatlar ko‘rsatilishi maqsadga muvofiq.

3. Ayollar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarni mahalliy va xalqaro elektron platformalarga joylashtirish bo‘yicha maxsus treninglar va texnik yordam dasturlari kengaytirilishi kerak.

4. Qishloq hududlarida ayollar kooperatsiyalari, hunarmandchilik markazlari, kichik ishlab chiqarish zonalari va logistika xizmatlari rivojlantirilsa, ayollar biznesining bozorga chiqish xarajatlari kamayadi.

5. Tajribali tadbirkor ayollar ishtirokida mentorlik tizimi yo‘lga qo‘yilib, yangi biznes boshlagan xotin-qizlarga kamida 6–12 oy davomida amaliy hamrohlik ko‘rsatilishi zarur.

Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish O‘zbekiston iqtisodiyoti uchun ko‘p qirrali ahamiyatga ega. U yangi ish o‘rinlari yaratadi, xotin-qizlarning mehnat bozoridagi ishtirokini oshiradi, oilalar daromadini barqarorlashtiradi, kambag‘allikni qisqartirishga xizmat qiladi va hududlarda iqtisodiy faollikni kuchaytiradi. Ayollar tadbirkorligi kichik biznes, oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, xizmat ko‘rsatish, qishloq xo‘jaligi va elektron tijorat kabi yo‘nalishlarda keng rivojlanish imkoniyatiga ega. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyot sharoitida ayollar o‘z mahsulot va xizmatlarini kam xarajat bilan keng bozorga olib chiqishi mumkin. Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha moliyaviy va institutsional mexanizmlar kengaymoqda. Garovsiz kreditlar, kafillik, grantlar, “HAMROH” dasturi, biznes ta’limi va raqamli savdo imkoniyatlari ayollar biznesining rivojlanishi uchun muhim sharoit yaratadi. Biroq ushbu imkoniyatlarning samaradorligi moliyaviy savodxonlik, bozorni tahlil qilish, marketing, raqamli ko‘nikmalar va mentorlik tizimi bilan bevosita bog‘liq. Shuning uchun ayollar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashda kredit ajratish bilan bir qatorda bilim, maslahat, hamrohlik va infratuzilma xizmatlari ham uyg‘unlashtirilishi zarur.

Xulosa qilib aytganda, ayollar tadbirkorligi inklyuziv va barqaror iqtisodiy o‘sishning muhim drayverlaridan biridir. Agar xotin-qizlarning biznes boshlashi va uni kengaytirishi uchun moliyaviy, ta’limiy, raqamli hamda institutsional sharoitlar yanada kuchaytirilsa, ayollar tadbirkorligi mamlakatda aholi farovonligini oshirish, hududiy tafovutlarni kamaytirish va raqobatbardosh kichik biznes sektorini shakllantirishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

ISSN 3030-3907

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi PQ-103-son “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Lex.uz.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-dekabrdagi PF-240-son “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni. Lex.uz.
3. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasida kichik tadbirkorlik subyektlari faoliyati bo‘yicha statistik axborot, 2025-yil yanvar-sentabr.
4. UNDP. O‘zbekistonda ayollar tadbirkorligi: tahlil va tavsiyalar. Toshkent, 2025.
5. World Bank Group. World Bank Group Gender Strategy 2024–2030: Accelerate Gender Equality to End Poverty on a Livable Planet. Washington, DC, 2024.
6. Oila va xotin-qizlar qo‘mitasi. Xotin-qizlar bandligi va tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlashga oid axborot materiallari. Toshkent, 2025.
7. Kursiv Uzbekistan. “HAMROH dasturi doirasida xotin-qizlar tadbirkorligi uchun ikki trillion so‘m ajratadi”, 4-dekabr 2025-yil.
8. Tuxtasinova M.M. , ISSUES OF IMPROVING THE EFFICIENCY OF INNOVATIVE PROJECTS OF INDUSTRIAL ENTERPRISES, European Journal of Emerging Technology and Discoveries, 2024.01.10
9. Tuxtasinova M.M. , ВОПРОСЫ ПОДГОТОВКИ КАДРОВ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ, INTERNATIONAL JOURNAL OF TEORITICAL AND PRACTICAL RESEARCH. ALFERGANUS, 2024/4 , №4

ISSN 3030-3907

QORAQALPOQ TILI MATNLARINI AVTOMATIK QAYTA ISHLASHNING HISOBLASH USULLARI VA MODELLARI

Abdullayev Sherzod Shavkatjonovich
Oriental universiteti dotsenti
E-mail: abdulla.sherzod87@gmail.com
Allaberdiyeva Durdana Guranmuratovna
Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti
E-mail: durdonallaberdiyeva39@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada qoraqalpoq tili uchun tabiiy tilni qayta ishlash (Natural Language Processing, NLP) sohasining hozirgi holati tizimli ravishda tahlil qilinadi. Qoraqalpoq tili turkiy tillar oilasining qipchoq-no'g'ay guruhiga mansub, qariyb 800 ming–2 million kishi so'zlashadigan, YuNESKO tasnifi bo'yicha "zaif" (vulnerable) maqomidagi til bo'lib, hisoblash lingvistikasi nuqtai nazaridan "kam resursli" (low-resource) tillar qatoriga kiradi. Tadqiqotda tilning agglutinativ morfologiyasi, unli singarmonizmi va ko'p yozuvli (lotin, kirill, arab) tabiati keltirib chiqaradigan asosiy hisoblash muammolari ko'rib chiqiladi. So'nggi yillarda yaratilgan korpuslar (dilmash, KAASC), qoidaga asoslangan morfologik tahlilgichlar (Apertium/FST), neyron mashina tarjimasi modellari (NLLB) hamda yaqin qardosh tillardan (o'zbek, qozoq) bilim ko'chirish (cross-lingual transfer) yondashuvlari qiyosiy baholanadi. Tahlil natijalari kam resursli sharoitda eng samarali yo'nalish sifatida ko'p tilli oldindan o'rgatilgan modellarni qardosh tillar yordamida moslashtirish ekanligini ko'rsatadi. Maqola so'ngida soha rivoji uchun amaliy tavsiyalar va kelajakdagi tadqiqot yo'nalishlari taklif etiladi.

Kalit so'zlar: qoraqalpoq tili, tabiiy tilni qayta ishlash, kam resursli tillar, turkiy tillar, morfologik tahlil, neyron mashina tarjimasi, bilim ko'chirish, til korpusi, agglutinativ morfologiya, NLLB, LLM, sub-so'z tokenizatsiyasi.

Abstract. This paper presents a systematic analysis of the current state of Natural Language Processing (NLP) for the Karakalpak language. Karakalpak belongs to the Kipchak–Nogai group of the Turkic language family and is spoken by roughly 800,000 to two million people; classified as "vulnerable" by UNESCO, it falls among the "low-resource" languages from a computational-linguistics standpoint. The study examines the main computational challenges that arise from the language's agglutinative morphology, vowel harmony, and multi-script nature (Latin, Cyrillic, and Arabic). Recently developed corpora (dilmash, KAASC), rule-based morphological analyzers (Apertium/FST), neural machine translation models (NLLB), and cross-lingual transfer approaches from closely related languages (Uzbek, Kazakh) are evaluated comparatively. The findings indicate

ISSN 3030-3907

that, under low-resource conditions, the most effective direction is adapting multilingual pretrained models with the help of related languages. The paper concludes with practical recommendations for advancing the field and directions for future research.

Keywords: Karakalpak language, natural language processing, low-resource languages, Turkic languages, morphological analysis, neural machine translation, transfer learning, language corpus, agglutinative morphology, NLLB, LLM, subword tokenization.

Аннотация. В настоящей статье проводится систематический анализ современного состояния обработки естественного языка (Natural Language Processing, NLP) для каракалпакского языка. Каракалпакский язык относится к кипчакско-ногайской группе тюркской языковой семьи, на нём говорят приблизительно от 800 тысяч до двух миллионов человек; согласно классификации ЮНЕСКО он имеет статус «уязвимого» (vulnerable) и с точки зрения компьютерной лингвистики входит в число «малоресурсных» (low-resource) языков. В исследовании рассматриваются основные вычислительные проблемы, обусловленные агглютинативной морфологией языка, гармонией гласных (сингармонизмом) и его многописьменным характером (латиница, кириллица, арабское письмо). Сравнительной оценке подвергаются созданные в последние годы корпуса (dilmash, KAASC), морфологические анализаторы на основе правил (Apertium/FST), модели нейронного машинного перевода (NLLB), а также подходы переноса знаний (cross-lingual transfer) из близкородственных языков (узбекского, казахского). Результаты анализа показывают, что в условиях ограниченных ресурсов наиболее эффективным направлением является адаптация многоязычных предобученных моделей с помощью родственных языков. В завершение статьи предлагаются практические рекомендации для развития данной области и направления дальнейших исследований.

Ключевые слова: каракалпакский язык, обработка естественного языка, малоресурсные языки, тюркские языки, морфологический анализ, нейронный машинный перевод, перенос знаний, языковой корпус, агглютинативная морфология, NLLB, LLM, субсловная токенизация.

1. KIRISH.

So‘nggi o‘n yillikda chuqur o‘rganish (deep learning) va transformer arxitekturasiga asoslangan til modellari tabiiy tilni qayta ishlash sohasini tubdan o‘zgartirdi. Biroq bu yutuqlar dunyodagi tillar o‘rtasida juda notekis taqsimlangan: zamonaviy NLP tizimlarining sezilarli qismi ingliz, xitoy, ispan kabi katta hajmdagi raqamli matn resursiga ega bo‘lgan tillarga yo‘naltirilgan. Dunyodagi

ISSN 3030-3907

yetti mingdan ortiq tilning aksariyati esa “kam resursli” toifaga kiradi — ya‘ni ular uchun yetarli hajmdagi annotatsiyalangan korpuslar, leksik bazalar va tayyor lingvistik vositalar mavjud emas. Bunday tillar uchun zamonaviy til texnologiyalarini yaratish nafaqat texnik, balki ijtimoiy-madaniy ahamiyatga ega masala hisoblanadi, chunki raqamli muhitda til mavjudligi uning kelajakdagi hayotiyligi bilan bevosita bog‘liq.

Qoraqalpoq tili ana shunday kam resursli tillarning yorqin namunasidir. U turkiy tillar oilasining qipchoq tapмog‘iga, aniqrog‘i qipchoq-no‘g‘ay kichik guruhiga mansub bo‘lib, qozoq va no‘g‘ay tillariga eng yaqin turadi [1]. Til asosan O‘zbekiston tarkibidagi Qoraqalpog‘iston Respublikasida tarqalgan. Ona tili sifatida unda so‘zlashuvchilar soni turli manbalarda 872 mingdan (2023) qariyb ikki milliongacha baholanadi [2]. Shunga qaramay, hozirgi kunda yetakchi tijoriy tarjima platformalari, jumladan keng tarqalgan avtomatik tarjima xizmatlari ushbu tilni qo‘llab-quvvatlamaydi, bu esa tilning raqamli infratuzilmasini mustaqil ravishda shakllantirish zaruriyatini yanada kuchaytiradi [3].

Mazkur maqolaning maqsadi qoraqalpoq tili uchun NLP sohasidagi mavjud ilmiy-amaliy ishlanmalarni tizimli tarzda umumlashtirish, ulardan foydalanilgan asosiy uslublarni qiyosiy baholash va istiqbolli yo‘nalishlarni belgilashdan iborat. Tadqiqotda quyidagi vazifalar hal etiladi: birinchidan, qoraqalpoq tilining NLP nuqtai nazaridan muhim bo‘lgan lingvistik xususiyatlari tavsiflanadi; ikkinchidan, mavjud til resurslari va korpuslari sanab o‘tiladi; uchinchidan, morfologik tahlil, tokenizatsiya, mashina tarjimasi va bilim ko‘chirish kabi asosiy uslubiy yondashuvlar tahlil qilinadi; to‘rtinchidan, ushbu yondashuvlarning samaradorligi qiyosiy baholanib, kelajakdagi ishlar uchun tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Maqola sharh-tahliliy (review) xarakteriga ega bo‘lib, unda asosan ochiq ilmiy manbalar, retsenziyalangan maqolalar hamda ochiq kodli loyihalar natijalariga tayanilgan. Bu yondashuv kam o‘rganilgan sohada mavjud bilimlarni bir tizimga keltirish va kelgusi tadqiqotchilar uchun metodologik asos yaratish imkonini beradi.

2. Qoraqalpoq tilining lingvistik tavsifi

Qoraqalpoq tilining NLP uchun muhim bo‘lgan tipologik xususiyatlarini tushunish ushbu til uchun hisoblash modellarini to‘g‘ri loyihalashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Quyida tilning asosiy lingvistik parametrlari umumlashtirilgan (1-jadval).

ISSN 3030-3907

1-jadval.

Qoraqalpoq tilining asosiy lingvistik va sotsiolingvistik parametrlari

Parametr	Qiymati
Til oilasi	Turkiy > Umumturkiy > Qipchoq > Qipchoq–no‘g‘ay
Eng yaqin tillar	Qozoq, no‘g‘ay
ISO 639-3 kodi	kaa
So‘zlashuvchilar	~872 000 (2023) – ~2 mln (turli manbalarda)
Hudud	Qoraqalpog‘iston Respublikasi (O‘zbekiston)
Yozuv tizimlari	Lotin (joriy rasmiy), kirill, arab (tarixiy)
Morfologik tip	Agglutinativ, unli singarmonizmiga ega
So‘z tartibi	SOV (ega–to‘ldiruvchi–kesim)
Dialektlar	Shimoli-sharqiy va janubi-g‘arbiy
YuNESKO maqomi	Zaif (vulnerable)

Manba: [1], [2] asosida muallif tomonidan umumlashtirildi.

2.1. Agglutinativ morfologiya

Boshqa turkiy tillar singari qoraqalpoq tili ham agglutinativ tuzilishga ega: so‘z negiziga ketma-ket qo‘shiluvchi affikslar yordamida grammatik ma‘nolar ifodalanadi. Bitta o‘zakdan ko‘plab so‘zshakllar hosil bo‘ladi; masalan, otlarga egalik, kelishik va son qo‘shimchalari, fe‘lga esa nisbat, mayl, zamon, shaxs-son ko‘rsatkichlari birin-ketin qo‘shiladi. Natijada bir o‘zak yuzlab, ba‘zan minglab turli so‘zshaklga ega bo‘lishi mumkin. Bu hodisa NLP uchun jiddiy oqibatlarga olib keladi: lug‘at hajmining keskin kengayishi (vocabulary explosion), so‘zshakllarning siyrak taqsimlanishi (data sparsity) va so‘zni so‘ddiy bo‘laklarga ajratish (tokenizatsiya) muammosining murakkablashuvi kuzatiladi. Shu sababli morfologik segmentatsiya va sub-so‘z darajasidagi modellashtirish bunday tillar uchun markaziy ahamiyat kasb etadi.

2.2. Unli singarmonizmi va fonologiya

Qoraqalpoq tilida unli singarmonizmi amal qiladi: so‘z tarkibidagi unlilar til oldi/orqasi va lablanish bo‘yicha o‘zaro moslashadi, shu sababli ko‘pchilik affikslar bir necha fonetik variantga ega bo‘ladi. Bu hodisa morfologik tahlilgichlar va matnni sintezlash tizimlarini loyihalashda hisobga olinishi shart bo‘lgan qoidaviy murakkablikni keltirib chiqaradi, biroq ayni paytda affikslarning variantlari oldindan aytib bo‘luvchi bo‘lganligi sababli qoidaga asoslangan modellashtirishni qulaylashtiradi.

ISSN 3030-3907

2.3. Yozuv tizimlarining ko‘pligi

Qoraqalpoq tili XX–XXI asrlar davomida arab, lotin va kirill yozuvlaridan foydalangan; hozirgi kunda rasmiy ravishda lotin grafikasiga asoslangan alifboga o‘tilmoqda. Mavjud raqamli matnlarning sezilarli qismi kirill yozuvida saqlanib qolgani sababli, korpuslarni yagona standartga keltirishda ishonchli transliteratsiya (yozuvlararo o‘girish) muhim bosqichga aylanadi. Bundan tashqari, qoraqalpoq matnlarida o‘zbek va rus tillari bilan kod almashinuvi (code-switching) hamda imloviy nomuvofiqliklar tez-tez uchraydi, bu esa matnni normallashtirish (normalization) vazifasini murakkablashtiradi.

3. Asosiy hisoblash muammolari va chaqiriqlar

Yuqorida keltirilgan lingvistik xususiyatlar va resurs tanqisligi qoraqalpoq tili uchun NLP tizimlarini yaratishda bir qator o‘ziga xos chaqiriqlarni keltirib chiqaradi. Ularni quyidagi guruhlarga ajratish mumkin:

- **Ma‘lumotlar tanqisligi.** Yetarli hajmdagi yorliqlangan (annotated) korpuslar, parallel matnlar va leksik bazalarning yo‘qligi nazoratli o‘rgatish (supervised learning) uslublarini bevosita qo‘llashni cheklaydi.
- **Morfologik murakkablik.** So‘zshakllarning ko‘pligi tufayli yuzaga keladigan lug‘at portlashi va siyraklik standart so‘z darajasidagi modellarning samaradorligini pasaytiradi.
- **Standartlashuv muammolari.** Yozuv tizimlarining ko‘pligi va imloviy variativlik tufayli matnlarni yagona ko‘rinishga keltirish zarurati tug‘iladi.
- **Baholash vositalarining yetishmasligi.** Tilga xos standartlashtirilgan sinov to‘plamlari (benchmark) va etalon ma‘lumotlar (gold-standard) yaqin-yaqingacha deyarli mavjud emas edi, bu modellarni xolisona qiyoslashni qiyinlashtirardi.
- **Mutaxassis va infratuzilma tanqisligi.** Til bo‘yicha hisoblash lingvistikasi sohasidagi tadqiqotchilar soni cheklangan, shuningdek tayyor ochiq kodli vositalar yaqin vaqtgacha kam edi.

Ushbu chaqiriqlar bir-biri bilan o‘zaro bog‘liq: masalan, ma‘lumotlar tanqisligi baholash vositalarining yetishmasligini kuchaytiradi, morfologik murakkablik esa mavjud kichik korpuslardan unumli foydalanishni yanada qiyinlashtiradi. Shu bois zamonaviy yondashuvlar ko‘pincha bir necha muammoni bir vaqtda hal etishga qaratilgan kompleks yechimlar shaklida taklif etiladi.

4. Til resurslari va korpuslar

So‘nggi yillarda qoraqalpoq tili uchun bir qator muhim raqamli resurslar yaratildi. Garchi ularning hajmi katta resursli tillar bilan solishtirganda hamon cheklangan bo‘lsa-da, bu to‘plamlar tilning NLP infratuzilmasi uchun poydevor vazifasini o‘taydi. Quyidagi 2-jadvalda asosiy resurslar umumlashtirilgan.

ISSN 3030-3907

2-jadval.

Qoraqalpoq tili uchun mavjud asosiy NLP resurslari

